



To'rayeva Dildora Anvarovna 1991-yil 15-martda Buxoro viloyati, Vobkent tumanida tug'ilgan.

2014-yilda Buxoro davlat universiteti "O'zbek filologiyasi" ta'lim yo'nalishini, 2017-yilda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining "Lingvistika(o'zbek tili)" mutaxassisligi bo'yicha magistratura bo'limini tamomlagan. 2014-2020-yillarda Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 308-umumiy o'rta ta'lim maktabi hamda "Bukhara education" o'quv markazida ona tili va adabiyot o'qituvchisi lavozimida ishlagan. 2020-2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida mehnat qilgan. 2023-yildan hozirgi kunga qadar Amaliy filologiya kafedrasining doktoranti(DSc) bo'lib faoliyat yuritmoqda.

D.To'rayeva ilmiy sohada bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan, xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalari bilan qatnashib, 40 dan ortiq maqola va tezislarni chop ettirgan. 2023-yilda hammualliflik asosida Lingvistik ekspertiza asoslari nomli o'quv qo'llanmasi nashr etilgan.

2022-yilda "O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi" mavzusida dissertatsiya himoya qilib, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgan.



D.A. To'rayeva

NUTQ HUDUDIIY XOSLANISHINING LINGVISTIK EKSPERTIZASI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI

TO‘RAYEVA DILDORA ANVAROVNA

NUTQ HUDUDIIY XOSLANISHINING
LINGVISTIK EKSPERTIZASI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2023

UO‘K: 811.512.133'373

KBK: 81.20'zb

T 98

To‘rayeva, Dildora Anvarovna. Nutq hududiy xoslanishining lingvistik ekspertizasi [Matn]: monografiya / D.A. To‘rayeva. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 120 b.

Ushbu monografiyada muammoli va anonim yozishmalarning lingvistik ekspertizasini amalga oshirish sud-huquq tizimi va tilshunoslik sohalarining muammosi ekanligi, yozishmalardagi noadabiy unsurlarning lingvistik tahlili har ikki soha uchun ahamiyatli ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan; o‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda til birliklarining hududiy xoslanishiga oid nazariy fikrlar umumlashtirilgan; fonetik, leksik, grammatik birliklarning arealogik munosabatini aniqlashning sud-huquq tizimiga ijobiy ta’siri ochib berilgan; yozishmalarda hududga aloqador birliklar aniqlangan va ilmiy asoslangan; o‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda hududga aloqador birliklarni aniqlash va shu orqali matn avtorizatsiyasini yaratish masalasining nazariy asoslari berilgan; yozishmalarda noadabiy unsurlarni aniqlashga doir metodlarni amalga oshirish tartiblari takomillashtirilgan.

Monografiya o‘zbek tilidagi muammoli va anonim yozishmalarni lingvistik jihatdan o‘rganish va yozishmalardagi noadabiy unsurlarni tahlil qilish nazariyasi bilan shug‘ullanuvchi tilshunos-ekspertlarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

B.R.Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

I.X.Islomov – filologiya fanlari doktori, dotsent

M.T.Turdibekov – filologiya fanlari doktori, dotsent

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

(1-sonli majlis qarori, 2023-yil 25-aprel)

ISBN 978-9943-9021-0-7

© **To‘rayeva D.A.**
© **“Bookmany print” nashriyoti, 2023.**

KIRISH

XXI asrga kelib jahon ilm-fan taraqqiyotida turli sohalarning integratsiyalashuvi kuchaydi. Tildan amaliy foydalanishning samaradorligini oshirishga mo'ljallangan muloqot madaniyati, psixolingvistika, yurislingvistika, neyrolingvistika, lingvistik ekspertiza kabi qator tarmoqlar yuzaga keldi. Bu esa lisoniy imkoniyatlardan amaliy foydalanishga, til birliklarining nutqiy voqelanishi hamda inson ma'naviyati, sha'ni, obro'-e'tiboriga ta'sir kuchini belgilashga xizmat qiladi. Inson omilini pirovard masalasiga aylantirgan xoh psixologik, xoh huquq, xoh sotsial soha bo'lsinki, bu boradagi ilmiy tadqiqot natijalari jamiyat hayotini yaxshilashga qaratilgan.

Dunyo tilshunosligida yuridik lingvistika atamasi XX asrning ikkinchi yarmida keng qo'llanila boshlandi. Bu soha rus, ingliz tilshunosligida taraqqiyot darajasiga yetgan bo'lib, 90-yillarda uning tarkibiy qismi sifatida lingvistik ekspertiza yo'nalishi shakllandi. Lingvistik ekspertiza huquq va tilshunoslik sohalarning kesishuvi natijasida yuzaga kelgan bo'lib, inson sha'ni, qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi birliklarni til doirasida o'rganuvchi tilshunoslikning amaliy yo'nalishidir. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalayotgan muallifi noma'lum bo'lgan va muammoli deb topilgan diniy-ekstremizm, terrorizm, turli yo'nalishdagi tahdid va da'vat xarakteridagi, insoniyat ma'naviy ongiga salbiy ta'sir etuvchi yozishmalarning lingvistik ekspertizasi bo'yicha dunyo tilshunosligida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu anonim yozishmalar muallifini aniqlash, matnda plagiatlik holatlarini tekshirish, savdo belgisi, korxonalar nomlaridagi ko'chirmachilikka oydinlik kiritish kabi muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimiga oid qator tadqiqotlar mavjud. Ularning aksariyati sud tili, huquq tizimiga oid atamalar kabi mavzular doirasidadir. Ammo kun sayin sud-huquq tizimidagi munozaralarga sabab bo'luvchi muammoli matnlar, anonim yozishmalarning lingvistik tahlili dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunday yozishmalarni xatshunoslik ekspertizasi, psixologik ekspertiza kabi qator sohalar tahlilga tortishdi. Ammo muammoning to'la va izchil yechimiga ehtiyoj sezila boshladi. Ya'ni inson qadr-qimmatini, obro'yi va nufuziga ta'sir etuvchi; tahqirlovchi; tahdid qiluvchi; oilasi, dini, millatiga qarshi kurashishga da'vat etuvchi kabi munosabatga ega yozishmalar muammoli obyektga aylanmoqda. Sud-huquq tizimida shu kabi qator muammolarni hal etishda tilshunoslik va huquqshunoslik fanlarining ilmiy-nazariy yechimlariga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Sud-huquq sohasida nutqiy nizolar o'zining tabiati bo'yicha nutqiy jinoyatdir, ularning boshqa jinoyatlardan farqi shundaki, ular da'vat etuvchi vosita sifatida vazifasini bajarmoqda, bu esa kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shunday paytda huquqshunoslik sohasida to'la, mustahkam bilimga ega tilshunos uchun talab ortadi. Ana shunday muammoli shaxsiy yozishmalar yoki anonim xatlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish masalaga ancha oydinlik kiritadi. Ya'ni shaxsiy yozishmalardagi har bir jumlaning leksik-semantik tahlili, psixologik ta'siri, pragmatik xosligini aniqlash va ularning inson sha'ni, qadr-qimmatiga daxldorligini o'rganish kabi tahlillar sud tizimidagi muammoli vaziyatlar yechimiga katta yordam

beradi. Shaxsiy yozishmalarda nutqiy birliklarning semantik-sintaktik xususiyatlariga ko'ra tahlilni amalga oshirish, shu orqali matn muallifini aniqlash yoki leksik birliklarning semantik darajalarini belgilash va uning inson haq-huquqlariga ta'sirini lingvistik jihatdan asoslash o'zbek tilshunosligi uchun yangi tarmoq hisoblanadi. Bu sud ekspertiza jarayoni uchun ham yangilik bo'lib, endilikda matn tahlili yozuvning shakliga qarab emas, balki nutqiy hosilalarning semantik-sintaktik xususiyatlari, nutq vaziyatiga muvofiqligi va birliklarning emotsional ta'sir kuchi kabi holatlarni lingvistik tahlil qilish orqali amalga oshadi. Demak, bu sohada nazariy asoslar yetarlicha, ammo unga amaliy jihatdan yondashish tilshunos-ekspert oldidagi ustuvor vazifadir. Shu asosda yuridik lingvistikaning tarmog'i bo'lmish lingvistik ekspertizani tilshunos ma'lum bir xonada nazariy asoslar bilan emas, balki xalq orasiga kirib, OAV, reklama matnlari, savdo markalari, korrupsiya, ekstremizm, da'vat, tahdid yo'nalishidagi turli matnlarning lingvistik tahlilini olib borishi, uni to'la tushunishi, anglashi va asoslashi zarur. O'zbek tilshunosligida bugungi kunda mazkur sohada bir nechta tadqiqotlar olib borilmoqda, ularning aksariyati huquqshunoslik bilan bog'liq. Ko'rinadiki, amaliy tilshunoslik tarmog'i sifatida shaxsiy yozishmalarda lingvistik ekspertizani amalga oshirish bugungi rivojlanayotgan asrimiz uchun dolzarb mavzulardan biridir.

Hozirgi kunda g'arb tilshunosligida lingvistik ekspertizaning taraqqiy etishi: muammoli va anonim yozishmalarning lingvistik tahliliga oid ilmiy tadqiqotlarning salmog'i, ekspertiza markazlarining tashkil etilganligi, hatto tahlil dasturlarining shakllantirilganligi o'zbek tilshunosligining bu borada ancha orqada qolganligini ko'rsatadi. Shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning lingvistik ekspertizasini amalga oshirish amaliy tilshunoslikda yangi sohaning taraqqiy etishiga yordam beradi. Muammoning sud-huquq tizimi va amaliy tilshunoslikda muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib-chiqib tadqiqot doirasida quyidagi qator masalalarga oydinlik kiritildi:

shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xosligini aniqlashning lingvistik ekspertisasi haqidagi nazariy fikrlar o'rganildi;

shaxsiy yozishmalardagi noadabiy unsurlarning hududiy xosligini aniqlash lingvistik ekspertizasining amaliy asoslari yaratildi; ularning mohiyati ochib berildi; tahlil bosqichlari belgilandi;

o'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalar lingvistik ekspertisasi asosida matn muallifining ma'lum hududga mansubligini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi;

munozarali matnning noadabiy leksik, fonetik, grammatik ifoda shakllarini o'rganish, hududlararo xosligini aniqlash usullari ishlab chiqildi;

ijtimoiy tarmoqlarda noadabiy unsurlar ifodalangan anonim shaxsiy yozishmalar lingvistik tahlilga tortildi va ularning avtorizatsiyasi aniqlandi;

o'zbek tilidagi anonim shaxsiy yozishmalarning muallifi va ularning hududiy mansubligini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi hamda ular amaliyotga tatbiq etildi.

Lingvistik ekspertiza yo'nalishidagi tadqiqotning ilk bor amalga oshirilayotganligi **tahlil uchun ishchi tushunchalarni** shakllantirishni talab etdi. Biz bunda rus va g'arb tilshunosligi nazariyalariga asoslandik.

Tahlil uchun ishchi tushunchalar

Biz o'z tadqiqotimiz davomida quyidagi ishchi tushunchalardan foydalandik.

Shaxsiy yozuv – biror narsani o'ylash yoki shaxsiy tajribani boshqalar bilan baham ko'rish zarurati tug'ilganda foydalaniladigan vosita.

Shaxsiy yozishma – yozuvchi tomonidan oldindan o'ylangan, qayta semantik jihatdan sintez qilingan va aytmoqchi bo'lgan fikrining eng yaxshi variantlaridan birini bayon etishga mo'ljallangan nutqi. U to'rt shaklda bo'lishi mumkin:

1. Qo'lyozma shakldagi yozishmalar;
2. Elektron-bosma shakldagi yozishmalar;
3. Audio shakldagi yozishmalar;
4. Video shakldagi yozishmalar.

Anonim yozishma – so'zlovchi tomonidan shaxsi, yashash joyi, ijtimoiy qatlami, jinsi, yoshiga xos xususiyatlarni sir saqlash maqsadida ijro etilgan yozuv.

Muammoli yoki konfliktli yozishma – nutqiy hosilalarning semantik ifodasida haqorat, da'vat, targ'ibot, tazyiq, tahdid, tahqir, tuhmat, kamsitish, obro'sizlantirish kabi jismoniy va yuridik shaxs sha'ni va manfaatlariga putur yetkazuvchi birliklar aks etgan yozuvdir. Bundan tashqari nojinoiy ahamiyatga molik bo'lgan yozishmalar ham muammoli sanaladi. Masalan, arxeologik qo'lyozma topilmalar, tarjima kitoblari, badiiy asarlar, normativ-huquqiy hujjatlar, tovar belgilari, korxonamuassasa nomlari, ishlab-chiqarilgan mahsulot nomlari ham lingvistik ekspertiza uchun bahs-munozarali obyekt bo'la oladi.

Noadabiy unsur – adabiy me'yordan cheklangan, ma'lum hudud, shaxs va jamoaga xos bo'lgan birliklar. Ular quyidagilar:

- 1) Shevaga oid so'zlar;
- 2) Vulgarizmlar (haqorat, so'kinish, qarg'ishga oid so'zlar);
- 3) Varvarizmlar;
- 4) Argo va jargonlar;
- 5) Kanselyarizmlar;
- 6) Parazit so'zlar.

Arealogiya – shevaga oid birliklarni hududlar kesimida o'rganuvchi soha.

Nutqning areal chegaralanishi – adabiy tilga oid birliklarning leksik, semantik, grammatik va sintaktik jihatdan ma'lum bir hududga xoslanishidir.

Fonoskopik ekspertiza – audio yozuvdagi ovozning toni, tembri, to'liqini, baland-pastligi kabi akustik va artikulyatsiyaviy xususiyatlari o'rganiladi.

Fonoskopik lingvistik ekspertiza – so'z va tovushlarning orfoepik va transkripsion xususiyatlari: tovushning yumshoq-qattiqligi, qisqa-cho'ziqligi, tor-kengligi, lablangan-lablanmaganligi kabi talaffuz belgilari o'rganiladi.

BIRINCHI BOB

SHAXSIY YOZISHMALARDA NOADABIY UNSURLARNING QO‘LLANISHI. SHAXSIY YOZISHMALARDA NOADABIY LEKSIK UNSURLARNING HUDUDIIY XOSLANISHI

1.1. Shaxsiy yozishma tushunchasi. Shaxsiy yozishmalar tili

Shaxsiy yozishma tushunchasi. Bugungi kunda ko‘pgina sohalar qatori tilshunoslikda ham tub sifat o‘zgarishlari yuzaga kelyapti. Antroposentrizm nazariyasi asosida tilshunoslikda turli fanlarning integratsiyalashuvi kuzatilyaptiki, bundan maqsad jamiyat farovonligiga erishish, inson manfaatlarini ulug‘lashdir. Zotan, prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, davlat tiliga bo‘lgan yuksak e’tiborni biz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak.

Keyingi yillarda nazariy me’yorlarning amaliy ifodasini o‘zida mujassam etgan qator tilshunoslik sohaları vujudga keldi. Bu, o‘z navbatida, insoniyat uchun xizmat qiladigan qator ilmiy-amaliy tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi¹. Taraqqiyot insoniyatga har qancha ijobiy va salbiy ta’sirini o‘tkazmasin, olim va olimalarning sa’y-harakatlari, izlanishlari natijasida inson manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa inson sha’ni, qadriyatlarini, obro‘yini ulug‘lashga munosib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda matn tilshunosligi va aloqa nazariyasi, qolaversa, sud-huquq tizimidagi lingvistik ekspertizaning eng asosiy obyektlaridan biri shaxsiy yozishmalar hisoblanadi. Shaxsiy yozuv – biror narsani o‘ylash yoki shaxsiy tajribani boshqalar bilan baham ko‘rish zarurati tug‘ilganda foydalaniladigan vosita². Shaxsiy yozishmalar tushunchasi qay mavzu va yo‘nalishda bo‘lishidan qat’i nazar insonning individual yondashib amalga oshirgan harakatidir. Shaxsiy yozishmalar bir tomonlama va ikki tomonlama munosabatlarda bo‘lishi mumkin. Xabar yo‘llovchi va qabul qiluvchisi aniq bo‘lgan shaxsiy yozishmalar – ikki tomonlama yozishmalar sanaladi. Ammo xabar yo‘llovchi aniq-u, qabul qiluvchi noaniq yoki xabar yo‘llovchi noaniq-u, qabul qiluvchi aniq bo‘lgan bir tomonlama munosabatdagi shaxsiy yozishmalar ham mavjud. Masalan, biror shaxs boshqa birovning o‘limiga sababchi bo‘lib qolishi va uning nomidan marhumning o‘zi aybdorligi xususida ma’lumot qoldirishi mumkin. Bunda yozishma ijrochisi aniq, ammo qabul qiluvchilar marhumning oilasi, qolaversa, fuqarolar huquqini himoya qiluvchi davlat tashkilotlaridir.

Shaxsiy yozishma tushunchasi faqatgina qo‘lyozma tarzidagi maktublardan, yoki elektron tarzidagi SMS, e-mail va ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalardan iborat emas, balki audio va video yozishmalar ham uning tarkibiga kiradi. Bu borada

¹ Mengliyev B.R., Nigmatova L.H. Problems of language, culture and spirituality in general explanatory dictionaries of Uzbek language / International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN: 1475-7192. – London, 2020. № 24. – 378-385 p.

² <https://koreajob.ru/uz/sekrety-interesnyh-istoricheskikh-pisem-istoriya-pisem-interesnye-fakty/>

Moskva yuridik instituti olimi O.Y.Antonov shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasini tadqiq etgan va ularni quyidagi turlarga ajratgan³:

- 1) maktub shaklidagi shaxsiy yozishmalar;
- 2) SMS va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalar;
- 3) audio tarzidagi shaxsiy yozishmalar;
- 4) video shaklidagi shaxsiy yozishmalar.

Shaxsiy yozishmalarning birinchi turi maktub shaklida bo‘lib, uning rivojlanish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Maktublar va pochta xizmati haqidagi dastlabki ma’lumotlar qadimgi Yunonistondagi Ossuriya va Bobil davlatlari bilan bog‘liq. Ossuriyaliklar miloddan avvalgi 3-ming yillikdayoq konvert sifatida loydan foydalanishgan. Avvalo, xat matni loy qatlami bilan qoplangan va ustiga qabul qiluvchining manzili yozilgan. Keyin planshet shaklidagi loydan yasalgan konvertlar ichidagi xatning maxsus ipi yoqilgan va uloqtirilgan. Xat manziliga yetgach, qabul qiluvchilar qotirilgan loyli konvertni bo‘laklab, xatni o‘qib chiqqan⁴. Demak, maxsus konvert shaxsiy yozishmaning ham sirliligini ta’minlagan, ham manzilga uloqtirish uchun qulaylik yaratgan. Shuningdek, daraxt po‘stlog‘i, bambuk, taxta, taroshlangan tosh kabilarda yozuv amalga oshirilgan. Bugungi kunda yozuv vositasi sifatida qog‘oz va elektron gadjetlar xizmat qiladi.

Shu o‘rinda lingvistik ekspertiza xatshunoslik ekspertizasining taraqqiyot bosqichi deyish mumkin. Ya’ni xatshunoslik ekspertizasida muammoli hamda anonim yozishmalarning shakliy xususiyatlari: yozuvning dinamikasi, harflarning katta-kichikligi, shakli (burchaksimon, ovalsimon, yotiq, to‘g‘ri kabi), yozuv vositasining turi, yozuv uslubi, bosim kuchi (yozuv vositasi kuchli bosimda, kuchsiz bosimda amalga oshirilishi) kabilar o‘rganiladi⁵. Lingvistik ekspertizada esa muallifi noma’lum bo‘lgan, muammoli deb topilgan yozishmalarning mazmuniy xususiyatlariga ko‘proq ahamiyat beriladi. Yozishmadagi so‘zlarning ma’no darajalari, inson qadr-qimmatiga ta’sir kuchi kabi xususiyatlari o‘rganiladi. Bunda matn tarkibiy qismlarini, avvalo, komponentlarga ajratib leksik, grammatik, sintaktik, punktuatsion tomonlari butun-qism munosabati asosida tahlil qilinadi⁶. Yozishma butun holatda o‘rganiladi, ya’ni umumiy mazmuni, nutq yo‘nalishi, tahdid, tahqir bor-yo‘qligi kabi qabul qiluvchiga nisbatan munosabatlar umumiy tarzda aniqlab olinadi. So‘ng matn qurilishidagi asosiy birliklar farqlanadi, avvalo, ko‘zga tashlanadigan jihatlari ajratib olinadi. Masalan, noadabiy leksik, grammatik va fonetik unsurlar bunda muhim belgi vazifasini bajaradi. Saralab olingan birliklarning uslubiy, hududiy, shaxs yoshi va jinsiga ko‘ra jihatlari atroflicha tahlil

³ Антонов О.Ю. Особенности использования специальные знания в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних // – Москва, 2018. – С. 5-11.

⁴ <http://srtdshi.ru/uz/fizika/osobennosti-gostinic-i-pochtovoi-sluzhby-v-drevnem-rime-istoriya.html>

⁵ Xolmatova G. Lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli // – Scientific Journal Impact Factor ISSN 2181-1784 VOL 1, ISSUE 3, 2021.

⁶ Ким Л.Г. Холистические принципы проведения идентификационной автороведческой экспертизы разножанровых текстов. Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. – С. 507-509.

qilinadi. Har ikkala ekspertizaning umumiy tomoni shundan iboratki, tahlil jarayonida dalil sifatida olingan materiallar o‘zaro qiyoslash, taqqoslash asosida yakuniy xulosalar hosil qilinadi.

Tadqiqotchi K.Dolinning so‘zlariga ko‘ra, “xat (nutqning yozma shakli) – yozuvchi tomonidan oldindan o‘ylangan, qayta semantik jihatdan sintez qilingan va aytmoqchi bo‘lgan fikrining eng yaxshi variantlaridan birini bayon etadigan matni”. Yozma nutq tilning qayta ishlangan shakli bo‘lib, uning eng kichik tafsilotlarigacha qayta tahrir qilish va qayta yaratish undan keyingina aniq bir xulosaga kelish mumkin bo‘lgan jarayon mahsulidir. Shuning uchun ham yozma nutq og‘zaki nutqqa nisbatan aniq va tushunarliroqdir. Shaxsiy yozishmalarning lingvistik tahlilida tilshunoslik, sotsiolingvistika, areal lingvistika, lingvistik geografiya, matn tilshunosligi, pragmalingvistika, psixolingvistika bilan bir qatorda psixologiya, biologiya, fizika kabi soha mutaxassislarining xulosalari muhim o‘rinda turadi⁷. Shunday ekan, tahlil jarayonida faqat tilshunos-ekspertning xulosalari bilan chegaralanib qolmay, balki turli soha mutaxassislarining xulosalari bilan umumlashtiriladi. Hech bir tarmoq alohida rivojlanmaganidek, lingvistik ekspertizada turli fanlarning integratsiyalashuv jarayoni aniq xulosa hosil qilishga yordam beradi. Bu lingvistik ekspertizada muallifning temperamenti, psixofiziologik holati, axloqi, ijtimoiy mavqeyi, hududiy mansubligi kabilar haqida ma’lumot olishga yordam beradi, huquqshunosning muammoli yozishmalarlarni ochib berishida ancha qo‘l keladi.

Bu maslalarga oid ilmiy izlanishlar dunyo tilshunosligida anchagina salmoqqa ega. Jahon tilshunos olimlari tomonidan hujjat va axborot masalalari bo‘yicha lingvist-ekspertlar Gildiyasi (GLEDIS)⁸ tadqiqotchilari: D.Golev⁹, A.Belchikov¹⁰, R.Perkins, P.Makdonald, M.Koppel¹¹, V.L.Milom, Y.V.Fomenko, L.P.Demidenko,

⁷ <https://youtu.be/7HCGob75xGQ> Join Dr. Robert Leonard, professor of linguistics and director of Hofstra's graduate program in forensic linguistics, to learn how the... Forensic Linguistics: Using Language Analysis to Solve Crimes with the FBI

⁸ <http://rusexpert.ru/uslugi/lingvokonfliktologiya.html> (дата доступа 1.12.2019).

⁹ <https://youtu.be/7HCGob75xGQ> Join Dr. Robert Leonard, professor of linguistics and director of Hofstra's graduate program in forensic linguistics, to learn how the... Forensic Linguistics: Using Language Analysis to Solve Crimes with the FBI; Голев Н.Д. Юридизация языковых конфликтов как основание их типологии // Юрислингвистика. 2008. № 9. – С. 137-156.; Голев Н.Д. Юрислингвистика и лингвоконфликтология (к типологии языковых конфликтов)// Современная филология: актуальные проблемы, теория и практика: сб. мат-ов II межд. науч. конф., – Красноярск: Изд-во СтбФУ, 2007. – С. 20-30; Голев Н.Д., Яковлева О. Е. Язык как собственность (к основаниям лингвомаркетологической концепции языка)// Юрислингвистика: Лингвоконфликтология и юриспруденция: межвузовский сборник научных трудов / под ред. Н.Д. Голева и Т.В. Чернышовой. – Кемерово, Барнаул: Изд-во Алт.ун-та, 2010. № 10. – С. 73-81.

¹⁰ Бельчиков Ю.А. Проблема выбора слова в речевой практике современных СМИ. 90-е годы XX века//Язык и мы. Мы и язык. 2006. – С. 367-372.

¹¹ Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages. 2019. – 52 p.; Perkins R. Linguistic Identifiers of L1 Persian speakers writing in English. NLID for Authorship Analysis. Unpublished doctoral dissertation. Aston University, – Birmingham, U.K, 2012.; MacDonald P. “We All Make Mistakes!”. Analysing an Error-coded Corpus of Spanish University Students’ Written English, in Complutense Journal of English Studies, 2016. Vol.24. – 103-129 p.; Koppel M., Schler J., Zigdon K. Determining an author’s native language by mining a text for errors. In Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining - KDD ’05. 2005. – 624-628 pp. – New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947.

L.I.Skvortsov, S.N.Zeitlin, F.P.Sergeyev, V.A.Grigorev noadabiy unsurlarning lingvistik ekspertizasi haqida tadqiqot ishlari olib borganlar¹². O‘zbek tilidagi noadabiy unsurlarning hududiy aloqadorliklarini o‘rganishda professor-olimlar Q.Muhammadjonov shimoliy o‘zbek shevalarini, A.Aliyev Namangan guruh shevalarini, X.Doniyorov Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi o‘zbek shevalarini, B.Jo‘rayev va A.Shermatov Yuqori Qashqadaryo hamda Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalarini, N.Murodova Navoiy viloyati shevalarini, T.Qudratov Qashqadaryo viloyatidagi o‘zbek shevalarining oraliq guruhini tadqiq etishgan¹³.

O‘zbek tilshunosligida ham turli shakllardagi matnlarning tahlili mavjud. Jumladan, matnning leksik, grammatik, fonetik tahlili M.Qurbonova, gazeta matnining psixolingvistik tahlili I.Azimova, matnda inson omilining ustuvorligi D.Xudoyberganova, matnning pragmatik xususiyatlari Sh.Safarov, M.Hakimov, qo‘lyozma matnlar H.Sulaymonov, lisoniy birliklar semantikasi A.Ziyayev, nutqiy birliklarning iyerarxik munosabati muammosi X.Xayrullayev, sathlararo dialektik kategoriyalarning ifodalanishi D.Nabiyeva¹⁴ kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

¹² Фоменко Ю. В. О типологии речевых ошибок // Рус. яз. в школе. № 2. – Новосибирск, 1987. – С. 50-56.; Фоменко Ю. В. Типы речевых ошибок // Учебное пособие. – Новосибирск, 1994.; Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение. // Пособие для учителей. – Москва, 1982. – С 143.; Скворецкая Е.В. Культура речи: (Упражнения и рекомендации). – Новосибирск, 1991. – С 88.; Сергеев Ф.П. Речевые ошибки и их предупреждение. // Пособие для учителя. – Киев, 1988. – С 123.; Скворцов Л.И. Канцеляризм и штампы // О культуре речи. – Москва, 1981. – С. 27-36.; Скворцов Л.И. Правильно ли мы говорим по-русски?: Справоч. пособие по произношению, ударению и словоупотреблению. – Москва, 1980. – С 224.; Цейтлин С.Н. Лексические неправильности в детской речи // Рус. яз. в школе. № 4. 1981. – С. 51-54.; Цейтлин С.Н. Нарушение синтаксических норм в речи школьников: (нормативное управление) // Рус. яз. в школе. 1980. № 1. – С. 55-58.; Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение. – Москва, 1982. – С. 143.; Цейтлин С.Н. Типичные морфологические неправильности детской речи: (Материалы исследований) // Речевые приемы и ошибки: типология, деривация и функционирование. – Москва, 1989. – С. 56-65; Демиденко Л.П. Речевые ошибки. – Минск, 1986. – С. 336.

¹³ Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.; Rajabov N. O‘zbek tilshunosligining 60 yillik taraqqiyoti tarixidan. – Samarqand, 1982.; Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1997.; Aliyev A.Y. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. – Toshkent: Fan, 1974. – B. 219.; Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979.; Qudratov T. O‘zbek tilining oraliq shevalari (Shahrisabz, Yakkabog‘, Chiroqchi va Qamashi rayonlaridagi oraliq sheva materiallari asosida): Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1968. – B. 236.; Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1969. – B. 25-31.; Murodova N. O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini. – Toshkent: Fan, 2007.; Shermatov A. Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – Toshkent, 1972.

¹⁴ Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014.; Nabiyeva D.A. O‘zbek tili sathlarida dialektik kategoriyalarning namoyon bo‘lishi: Filol. fan. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2006.; Azimova I.A. O‘zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2008.; Sulaymonov H. Alisher Navoiy lirikasining tekstologik o‘rganilishi: Filol. fan. dokt. ...diss. – Toshkent, 1961.; Ziyayev A.I. Tilda intensivatsiya/deintensifikatsiya semantikasining lisoniy birlik va shakl paradigmalarini hosil qilishi: Filol. fan. dokt. ...diss. – Farg‘ona, 2020.; Xayrullayev X.Z. Til va nutq birliklarining iyerarxik munosabatlari: Filol. fan. dokt. ...diss. – Toshkent, 2018.; Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlil asoslari: O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2007.; Hakimov M. O‘zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1994.

Sud tiliga oid Sh.Iskandarova¹⁵, M.Mirhamidov, S.Hasanov¹⁶, Sh.Shahobiddinova va mualliflar jamoasi¹⁷ tomonidan tadqiqot olib borilgan hamda ular monografiya holatida ilmiy to'plamlarda nashr etilgan.

Amaliy tishunoslik rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lgan lingvistik ekspertizaning taraqqiyoti jamiyat a'zolarining haq-huquqlarini himoyalash uchun manfaatlidir. Masalan, kriminalistikada shunday jihatlar mavjudki, jinoyat sodir etilgan joy va uning turi kabi jarayonlar video tarzida saqlanib qoladi, ammo jinoyatni sodir etgan shaxs xira holda ko'rinadi yoki maxsus niqobda harakatni amalga oshiradi. Bunday vaziyatda shaxsning nutqiy faoliyatini lingvistik ekspertiza qilish masalaga oydinlik kiritadi. Ovozning tiniqligi, nutqni tashkil etuvchi fonemalar, tezlik va talaffuz nisbiy aniqligi, uzunligi va strukturasi, belgi va so'z hajmi, muayyan so'zdan foydalanish, ijtimoiy vaziyatga ko'ra so'zlardan foydalanish, xususan, jarayon suhbatdoshlarining nutqiy imkoniyati, qobiliyatiga yo'naltirilganligi – bularning barchasi shaxsni tavsiflovchi ko'plab kompleks ko'rsatkichlardir. Yuqoridagi fikrga qo'shimcha tarzda E.Sepir yana shunday izoh beradi: insonning barcha xatti-harakatlari nutqida namoyon bo'ladi¹⁸. Ya'ni an'anaviy fonoskopik ekspertizada ovozning tembri, to'lqini, baland-pastligi kabi akustik va artikulyatsiyaviy xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa, lingvistik ekspertizada so'z va tovushlarning orfoepik va transkripsion xususiyatlari: tovushning yumshoq-qattiqliqi, qisqa-cho'ziqligi, tor-kengligi, lablangan-lablanmaganligi kabi talaffuz belgilari o'rganiladi. Bu yozishma muallifining qay hududga mansubligini aniqlashga yordam beradi. Xuddi shuningdek, audio yozishmalarda ham yuqoridagidek lingvistik tahlil amalga oshiriladi. Zotan, inson har qancha gapirish uslubini o'zgartirishga harakat qilsa ham, baribir individual xususiyatlari uning nutqida element tarzida bo'lsa ham aks etmay qolmaydi.

Lingvistik ekspertizaning an'anaviy sud ekspertizasidan farqi shundaki, nazariy tilshunoslik bilimlarini amalda tatbiq etish asosida matndagi so'zdan tortib tinish belgilarigacha, xoh dalil matni yozma, xoh og'zaki bo'lsin, tubdan, izchil tahlil qilinadi. Bu matn muallifini aniqlashning eng yaqin taxminlarini berishga yo'l ochadi. Bu kichik element bo'lsa ham, tilshunos ekspert uchun asos vazifasini bajaradi. Zotan, kichik elementlar tahlili jamiyatdagi jabrdiyda insonlar taqdirini belgilashga asos bo'lishi mumkin.

Shaxsiy yozishmalarning qo'lyozma, elektron, audio va video shakldagi turlarining o'ziga xos jihatlarga ko'ra lingvistik ekspertizani fanlar integratsiyalashuvi tarzida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shaxsiy yozishmalarning shakliy turini aniqlash uning mazmuniy guruhlarini ham o'rganish va tahlilga tortishda asos vazifasini o'taydi. Bu lingvistik ekspertizaning to'laqonli bajarilishiga zamin hozirlaydi.

¹⁵ Исқандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – Б 118.

¹⁶ Мирхамидов М., Ҳасанов С. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Университет, 2004.

¹⁷ Шахабитдинова Ш., Рустамов Д., Попов Д., Абдуллаев Б., Миралимова Ш. Оммавий лисоний маданият. – Андижон: Step by step print: 2020. – Б 150.

¹⁸ Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 656.

Shaxsiy yozishmalar tili. Oxirgi o‘n yillikda shaxsiy yozishmalar ancha faollashdi. Avvallari shaxsiy yozishmalarning maxfiyligi shariat qoidalari bilan ta‘minlangan, insonlar mustahkam axloqiy qoidalar bilan nazorat qilingan bo‘lsa, endilikda, har bir kishi o‘zini-o‘zi nazorat qilishi, tartibga chaqirib turishiga to‘g‘ri keladi. Ya‘ni internetda, jumladan, shaxsiy xabarlarda yozilgan barcha ma‘lumotlar osongina ommalashishi mumkin, bu insonning ehtiyotkorligini oshiradi va loqaydlikka barham berish kabi ijobiy xarakter kasb etadi.

Shaxsiy yozishmalarning shakliy turlari aniqlab olinishi davomida uning ma‘noviy xususiyatlari ham oydinlasha boradi. Bu masalada Kemerovo instituti olimi L.G.Kim xolistik usuldagi lingvistik ekspertizani taklif qiladi. Bu usul matnning butun holati, ya‘ni umumiy mazmuni, nutq yo‘nalishi, da‘vat yoki tahqirning mavjudligi kabilar bilan bir qatorda matnning tarkibini tashkil etuvchi eng kichik qismlarigacha o‘rganishdir. Bunda matnning umumiy holatidan matndagi elementlar va ularning chastotasini taqqoslash orqali muallif haqida xulosa chiqariladi¹⁹.

Rus olimi A.N.Baranov esa kvazissinonimik tahlil usulini taklif qiladi. Unda butun va qismlarning sinonimligi yuzasidan leksemalarni tahlil qilish orqali matn muallifi aniqlanadi. Masalan, *juda oz, to‘satdan, bexosdan, kutilmaganda* kabi so‘zlar mazmunan boshqa-boshqa tushunchani ifodalasa-da, ular matn tarkibida kontekstual sinonimlikni hosil qiladi²⁰.

Shaxsiy yozishmalarning tili turli yo‘nalishda bo‘lishi mumkin. Yozishma ijrochisining maqsadini aniqlab olish lingvistik ekspertizaga ancha yordam beradi. Shaxsiy yozishmalar quyidagi ma‘noviy turlarga ega²¹:

- Ekstremistik xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Terroristik xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Shaxsning obro‘yiga putur yetkazish xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Yuridik tashkilotning nufuziga salbiy ta‘sir o‘tkazish xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Tahdid, tahqirlash xarakteridagi shaxsiy yozishmalar;
- Da‘vat xarakteridagi shaxsiy yozishmalar;
- Jinoyat izini yopish xarakteridagi shaxsiy yozishmalar;
- Korrupsion xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Tuhmat xarakteridagi shaxsiy yozishmalar;
- Taklif xarakterdagi shaxsiy yozishmalar;
- Itimos xarakteridagi shaxsiy yozishmalar.

Shaxsiy yozishmalarning ma‘noviy turlarini aniqlash orqali muallifning maqsadi, niyati belgilab olinadi. Bunda yozishmaning, haqiqatan ham, muammoli,

¹⁹ Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. – 507 с.

²⁰ Баранов А.Н. Авторизация текста: пример экспертизы // Цена слова: Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации. – М., 2002. – С. 356–363.

²¹ Ярошук И.А., Жукова Н.А., Долженко Н.И. Лингвистическая экспертиза: Учебное пособие / – Белгород: ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – 16 с.

munozarali, bahsli ekanligi ahamiyatlidir. Masalan, hammaga ma'lum bo'lgan axborot haqida xabar berilgan bo'lsa, u hamma uchun ma'lum va maxfiy ma'lumot emas. Bunday vaziyatlarda tarqatuvchi shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmaydi. Ammo agar ma'lumot jamoa uchun sirli va shaxsiy hayotga taalluqli bo'lsa, (masalan, farzandsiz oilaning qavm-qarindoshiga bildirmagan holda bola asrab olganligi haqidagi ma'lumot yoki insonlar o'rtasidagi yashirin tarzda olib borilgan romantik munosabatlar) ushbu shaxsiy ma'lumotlar ommaga oshkor qilinsa, ijrochiga nisbatan fuqarolik va jinoiy javobgarlik paydo bo'lishi mumkin²².

Shaxsni jamoa oldida obro'sizlantirish, yuridik shaxslarning nufuziga putur yetkazish kabi masalalarning lingvistik tahlilida, nisbatan, Rossiya davlati ancha ilg'or. Rossiya Adliya vazirligining 2006-yil 526.1-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Nutq faoliyati mahsulotlarini o'rganish" ixtisosligi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash dasturi buning yorqin dalilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bu borada qator huquqiy me'yorlar aks etgan. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksning 46-moddasi tibbiy yoki tijorat sirlarini, yozishmalar va boshqa xabarlarining sirlarini, notarial harakatlarni, bank operatsiyalarini va jamg'armalarni, shuningdek, fuqaroga, uning huquqlariga, erkinliklariga va qonuniy manfaatlariga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan boshqa ma'lumotlarni oshkor qilish uchun javobgarlikni belgilaydi. Shuningdek, Jinoyat kodeksining 143-moddasida yozishmalar, telefon orqali muzokaralar, telegraf yoki boshqa xabarlarining sirini buzganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan²³. Ayon bo'ladiki, qonunda faqat daxlsizlik haqida fikr yuritilgan va shu sababli ham sud jarayonida muammoli matn sud-xatshunoslik, psixologik jihatdan keng tahlil qilindi, ammo shaxsiy yozishmalardagi nutqiy hosilalarning lingvistik ekspertizasiga muhtoj ishlar yechimsiz masalaga aylanmoqda.

Antroposentrizm ustunlik qiluvchi tilshunoslik yo'nalishlarida mutaxassis lingvistik nazariyalar tadqiqi ustida emas, balki nutq ijrochilarining shaxsi, manfaati uchun ahamiyatli nutqiy jarayonlar ustida ish olib boradi²⁴. Shunday yozishmalar borki, shaxs ichida ikkinchi shaxs yashiringan bo'ladi²⁵. Ya'ni bironing o'rnida boshqa biron yozishmani amalga oshiradi, yoki elektron gadgetidan foydalanadi va jinoyatni amalga oshirmagan shaxs o'z-o'zidan aybsiz aybdorga aylanib qoladi. Bunday vaziyatda masalaga lingvistik ekspertiza oydinlik kiritadi. O'sha kuni gumonlanuvchi shaxs uchrashgan insonlar haqida ma'lumot yig'iladi va ularning nutqi har tomonlama o'rganiladi. Dalil sifatida olingan nutqiy hosilalar lingvistik jihatdan o'rganiladi hamda yozishmadagi individual xususiyatlar farqlanadi. Bu gumonlanuvchi haqidagi taxminiy xulosalarga ancha aniqlik kiritadi.

Anonim shaxsiy yozishma tahlilida ikki: sifatli va miqdoriy yondashuv mavjud. Sifatli yondashuvda matnni tahlil qilish va izohlash uchun, dastavval, matnning tili,

²² <https://lex.uz/docs/-2307248>

²³ <https://lex.uz/docs/111453>

²⁴ Димитрова С. По спиралата на лингвистичните идеи // Актуални проблеми на лингвистиката. По случай 80-годишнината на проф. Стефана Димитрова / под ред. на М. Стаменов, И. Панчев. София: Акад. Изд. «Марин Дринов», 2016. – С. 13-25.

²⁵ Handbook of Psychology, 2003 / ed. by I. B. Weiner, D. K. Freedheim. Hoboken, New Jersey: John Wiley and Sons. – 491 pp.

uslubini tavsiflash kerak. Shu orqali matnning xususiyatini aniqlab olish, soʻng maʼlum yozuvchiga xosligini aniqlashdan iborat. Ikkinchi yondashuvda esa matndagi soʻzlar, adabiy meʼyordan chekinish holatlari va punktuatsion belgilar chastotasini hisoblash orqali miqdoriy yondashuv amalga oshiriladi²⁶. Aynan, maktub shaklidagi yozishmalar oʻz ichki maʼnoviy guruhlariga ham boʻlinadi. B.Najua matnlarning umumiy tasnifiga asoslanib, xat koʻrinishidagi matnlarning quyidagi subtipalarini taʼkidlaydi:

- 1) informatsion ruhdagi xatlar;
- 2) daʼvat ruhidagi xatlar;
- 3) kommunikativ ruhdagi xatlar.

Maktub – har qanday matn kabi nutq muloqotining bir turidir. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotchining fikriga koʻra, avvalo, matnlarni mazmuniy jihatdan farqlash va undan soʻng uning uslubi va strukturasi eʼtibor qaratish lozimdir. Bu borada Rossiyaning Orlov universiteti olimlari I.V.Popova, L.A.Vlasova shaxsiy yozishmalarning qoʻlyozma va SMS-chat turlarining lingvistik ekspertizasini uch bosqichga boʻlishdi²⁷. Olim Y.A.Belchikov ham shunday fikrni bildirdi: “Huquqiy masalalar boʻyicha bahsli matnning lingvistik ekspertisasi – bu toʻgʻridan-toʻgʻri filologiyaning eng qadimgi tarmoqlaridan biri germevntika bilan aloqador, zero, germevntikaning markaziy vazifalaridan biri matni (yozma va ogʻzaki) talqin qilish va uni tushunishdan iboratdir”²⁸. Y.A.Belchikovning fikriga qoʻshilgan holda, olimlar bahsli SMS xabarining lingvistik ekspertiza jarayonini 3 bosqichga ajratishdi:

1) suhbatning semantik bloklarini aniqlash – soʻzlovchi va qabul qiluvchi oʻrtasidagi suhbatning mavzusi aniqlanadi. Bunda mavzu markaziy oʻrinda boʻlib, suhbatdoshlar bir nechta mavzuda suhbatlashayotgan boʻlsa-da, bir mavzu xususida bir aylana chiziq orqali harakatlanishadi, yaʼni suhbat davomida bir necha bor aynan shu mavzuga qaytib kelishadi. Bu soʻzlashuv jarayonining semantik maydonini tashkil qiladi;

2) nutq harakatlarining turlarini aniqlash – axborot berish, maʼlumot soʻrash, ragʻbatlantirish, rozilik, norozilik, kelishmovchiliklarni ifodalash, suhbatdoshga boʻlgan munosabatni ifodalash, his-tuygʻular kabilar. Matnda suhbat jarayoni xabar, bayonot, izoh, tushuntirish, fikr bildirish, taxmin, ogohlantirish, daʼvat kabi nutq harakatlarida amalga oshadi. Bu, albatta, yozma matnlar uchun xos. Ogʻzaki, audio, video murojaatlarda esa nutq harakati ekstralingvistik omillarga koʻra belgilanadi;

3) informatsion komponentlarni aniqlash va tavsiflash – bahsli matnning ichki semantik mohiyatini yuzaga chiqaruvchi lingvistik birliklarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy yozishmaning umumiy strukturasi, soʻzlarning toʻliq yo

²⁶ Michell C.S. Investigating the use of forensic stylistic and stylometric techniques in the analyses of authorship on a publicly accessible social networking site (FACEBOOK). submitted in accordance with the requirements for the degree of MASTER OF ARTS. University of South Africa, 2013. – 64 pp.

²⁷ Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. – С. 24.

²⁸ Бельчиков Ю.А. Лингвистическая судебная экспертиза – целенаправленное гермеvntическое исследование // Спорные тексты СМИ и судебные иски: Публикации. Документы. Экспертизы. Комментарии лингвистов / под ред. проф. М.В. Горбаневского. М.: Престиж, 2005. – С. 15-20.

to'liq emasligi, haqiqiy mazmunni yashirish uchun qo'llaniladigan adabiy me'yordan chetga chiqqan leksik unsurlarning qo'llanilishi, noadabiy grammatik shakllarning ifodasi kabi lingvistik tahlil olib boriladi.

Olimlar bu usullarni taklif qilar ekan, avvalo, munozarali matn hermenevtika bilan hamohanglikda o'rganilishi kerakligini ta'kidlashadi. Huquqiy hermenevtika – bu qonuniy matnlarni talqin qilish qoidalari va usullarini o'rganishdir²⁹. Uning maqsadi shundaki, ushbu turdagi matnlarni talqin qilish matnlarning asl ma'nosini o'zgartirishi mumkin bo'lgan subyektiv mezonlarga asoslanib amalga oshirilmaydi. Balki, matnning umumiy mavzuviy xarakteri asosida tahlil qilinadi. Buning uchun, albatta, matn turi va uning tili pragmatik jihatdan o'rganiladi.

Aynan maktub tarzida ijrochining ishtirokiga ko'ra ikki tomonlama suhbat amalga oshgan muammoli matn tajriba sifatida olindi. Ushbu yozishma Telegram ijtimoiy tarmog'ida amalga oshirilgan. Jo'natuvchi va javob qaytaruvchi subyektlar to'rt kishidan iborat.



Lingvistik ekspertiza yuqoridagi tasnif orqali, ya'ni semantik bloklash va suhbat yo'nalishini aniqlash usullari asosida amalga oshirildi. Yozishmaning ifoda shakli ijtimoiy tarmoqda jo'natuvchi va qabul qiluvchilar o'rtasida bajarilgan. Ammo ijrochilar ikki shaxs o'rtasida emas, ya'ni B ismli shaxsga B1, B2, va B3 (ishtirokchilarga shartli nom berildi) ismli shaxslardan Telegram tarmog'i orqali xabar borgan. Suhbat yo'nalishi, shaxsiy yozishmaning tili xabar, kelishuv munosabatidan iborat. Bu bahsli matnning mavzusini aniqlashning muammoli joylari mavjud. Shuning uchun munozarali matnning mavzu yo'nalishini semantik bloklash usuli orqali aniqlashga harakat qilindi. Unga ko'ra, suhbatdoshlar bir xil mavzu doirasida ko'p to'xtalishlari, takror so'zlarning hisobi va biror fikrga qayta-qayta murojaat qilishlari kuzatish asosida aniqlanishi kerak. So'zning ma'nosini tashkil etuvchi informatsion tarkibiy qismlarini aniqlash va tavsiflash jumla tarkibini mantiqiy-grammatik tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Ushbu usul jo'natuvchi va qabul qiluvchilarning nutqiy birliklarini semantik jihatdan matndan tashqari va kontekstual tarzda tahlil qilishdan iboratdir. Bundan tashqari, kontentni tahlil qilish

²⁹ <https://uz.warbletoncouncil.org/hermeneutica-2189>

usuli, tavsiflovchi usul, semasiologik usullar sifatida lingvopragmatik va qiyosiy tahlil metodlaridan, qo‘shimcha tarzda leksikografik manbalardan ham foydalanildi. Matndan e‘tiborni jalb qiladigan birliklar ajratib olindi: *iflos, asfalt, uje, baza, 42 million, конкретны, moskva, tochna, умобы, 45, hal qilish, pul tikkan, qog‘ozlarning kopiyasi, rasmlar, kaneshna, chotkiy, anovi zavod, soqqalari, zavodga qancha beramiz, blat, hammasi o‘xshasin, rozilik berish, odam yollash, naqd pul, arzon narx, kelishilgan pul, shartnoma, nie, pr, audi, jonik, anka, akosh, kvitansiya, hujjat kabilar.*

B va B1 o‘rtasidagi suhbatda (Akish, Akosh) kabi ismlar qo‘llanilgan va B suhbat quruvchi B1 ga nisbatan quyidagi munosabatlarni bildirgan: *rozilik bildiradi (yaxshi, tasdiqlovchi stiker, men o‘ylab ko‘rishingni kutaman (miyani silkitib), odam yollash uchun qanday taklif bo‘lishi mumkin, biz uchun arzon miqdor sifatida ko‘rsatilgan shart bilan pul o‘tkazishimiz mumkin, eng ishonarlisini belgila, biz uchun qay bir variant foydali, eng qulay narxga kelishilishi, bankdan urinib ko‘rishi, yollanma shaxs o‘rnida ma‘qul variant topishi, ishni tez hal qilishi;* Ammo B1 suhbatga yangi munosabat kiritadi: *yollangan odam borligi va u bilan muammoning mavjudligi, muammo 25 milliondan boshlanishi, agar nie va audi ni xoxlasak, ish hal bo‘lishi, hujjatlar darhol qaror qabul qilinishi, eng foydalisi garov berishda ekanligi.*

Tadqiqot natijasida quyidagilar amalga oshirildi:

Faoliyatning asosiy maqsadi aniqlandi. Bunda, to‘g‘ri, zavod haqida fikr yuritilyapti, ammo zavodning turida muammo bor. Suhbat boshidan asfalt so‘zining qo‘llanishi vaziyatni chigallashtiradi. Xulosaga ko‘ra, aslida asfalt zavodi haqida so‘z boradi. Ammo bu mavzuga 2-3 marta qaytiladi, xolos. Asosiy suhbat sirli so‘zlar bilan amalga oshiriladi va ularga 6-7 marta qayta murojaat qilinadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, suhbat mavzusi asfalt zavodi emas, balki sirli so‘zlarga bog‘liq alohida obyektidir. Suhbat davomida *nie, audi, ml, x, A6, maz, c, g5, la* kabi sirli so‘zlar ajratib olindi. So‘zlarning mohiyati, albatta, zavod doirasida o‘rganildi. Chunki avvalboshdan suhbat zavod to‘g‘risida edi, faqat zavodning turida muammo mavjud edi. Tahlil natijasiga ko‘ra, bu shartli belgi va sirli so‘zlar mashina zavodiga tegishli ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Mashina nomlari: *Mazda, Lada, Audi, Jeep, Niva, Sonata X* kabilar.

Endi asfalt zavodi bilan bir qatorda qo‘llangan obyektlarni ajratib olinadi: *asfalt, korxonalar, hovli, 2 ta uy.* Shuningdek, suhbatdoshlar obyektlarning qiymatini ham muhokama qilishgan: *asfalt 35 million, hovli 20 million, 2 ta uy 70 million.*

Muhokama qilinayotgan faoliyatda geografik nomlar ham tilga olingan: *Varonej, Bryansk, Kaluga (akosh bryansk yoki varonejga shartnoma kerak. Moskvaga qanday turlari bor va ox texnikasi ahmoqona ekanligini ayting. Va boshqalar).*

B va B1 muzokaralarida amalga oshirilayotgan faoliyatda quyidagi tarkibiy qismlar muhokama qilinadi: *hujjatlar va yuridik shaxslar, shartnoma, kvitansiya, notarius (MChJ uchun shartnoma bormi?; Shartnoma ushbu firmalarga muhtoj ekanligi; hujjat aniq bo‘lsa, hammasini bajara olishi va hokazo.);*

B va B3 ning suhbatida quyidagilar aks etadi: *pul, ularning shakllari, miqdori: pul tikmoq, naqd pul, soqqa, liam, miqdori, qoldiqlari, chegirma, arzon narx, kamida bir million, kamida 2-3 million, eng kamida 150 million, 140 million, 70 million, 25 million, 35 million, 96 million, 800, 550, 520, 500, 300-500 va boshqalar (Akish kamida chorshanbagacha 10-15 million kerak. Bu nal (nalichiye – naqd) bo'lishi kerak. 15 yetarli deb o'ylayman va boshqalar).*

Tahlilning dastlabki xulosasi.

1) B va B1 o'zaro yaqin munosabatga ega shaxs. Buni quyidagi so'zlarida ko'rish mumkin: *birodar, ishonaman, bizning foydamiz, hal qilishing kerak, eng arzon narxda, bizga qulay variantni qil kabi.* Nutqiy hosilalarda o'zaro kelishish (*hal qilishing kerak, eng arzon narxda, bizga qulay variantni qil*), bir-biriga bo'lgan ishonch (*ishonaman*) hamda murojaat (*birodar*³⁰) munosabatlari mavjud. Bundan tashqari, B va B1ning suhbatini rasmiy uslubda emas, so'zlashuv uslubida olib borilganligi, B1ning vaziyatga manfaatdorlik ruhida jiddiy yondashuvda kuzatish mumkin. Demak, lingvistik tahlilda nutq uslubi, so'zlarning nutqiy vaziyatga mutanosibliigi, so'zlar semantik xususiyatlarini aniqlash ham katta yordam beradi.

2) B va B2 bu sohada harakatlarni rejalashtirish bilan shug'ullanadi. Ushbu faoliyat quyidagicha: *kinga qo'ng'iroq qilish kerakligi ketma-ketligi, kim bilan ishtirok etish kerak, qanday zaxira rejalari bor, aytganlarimni qog'ozga yozing va harakat qilishni boshlang; agar shunday tuzilgan bo'lsa, albatta ishlamaydi, biz nima va nima uchun birinchi reja tuzishimiz kerak; ertaga 9-ga hamma narsani yozamiz, biz hamma narsani hal qilamiz, Jas, Baxa bilan uchrashish, u bilan shartnoma tuzishga kelishish, rasmlarni berish kabi rasmiy munosabatlardan iborat.* Xususan, B va B2 obyektlarni sotish bilan bog'liq masalalarni muhokama qiladi: *asfalt, zavod, tayanch sifatida belgilangan obyektlar.* Ular asfalt zavodi va uni sotib olishga qiziqqan shaxslar haqida ma'lumot almashishadi. B va B2, asosan, faoliyatning moliyaviy jihatlari haqida suhbat qurishadi. Bunda yuqorida sanalgan obyektlarni sotish, ularning fotosuratlarini taqdim etish, ma'qul narxga kelishish va bu chegaralangan muddatda amalga oshishi kerakligi haqida gaplashishadi (*42 millionga konkretiy qiziqish bor. Biz unga qancha tikuvdik? 45 ga. Haa bo'lishi mumkin, lekin aniqmas lekin qiziqish juda yaxshiligini aytgandi shekilli. Bu uchun ularga nima kerak? Obyektning fotosuratlari. Keyin kopiyalardan hujjatlarni rasmiylashtiradi. Zavodga tez yetkazish kerak. Zavodni olishi aniqmi? Kaneshna uje kankretna aytishdi olamiz deb va boshq.*). Demak, ma'lum obyektlarni sotish, hujjatlashtirish va sotilgandan so'ng pulni noma'lum zavodga olib borib topshirish haqida suhbat bo'lyapti.

3) B va B3 ning o'zaro suhbatini o'rganish davomida, faqat B3 dan B ga jo'natilgan xabarlarining mavjudligi va ularda moliyaviy tanqislik, naqd pulning kerakligi, ishni tezroq hal qilish kabi masalalar haqida gaplashilgan (*Jonik manda ulani olishga yetarli pul yoq, next kerak bo'lyapti. Iloj qil jo'ra va boshqalar*).

4) Matn mavzusi mashina zavodi haqida. Mashina zavodidan turli rusumdagi mashinalarni kelishilgan narxda olish kerak va buning uchun moliyaviy muammolar mavjud. Ularni hal qilish uchun ijrochilarga tegishli obyektlar (asfalt zavodi, uy,

³⁰ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: Rus tili, 1981. – B. 120.

hovli kabilar) sotuvga qo'yilgan. Sotish uchun ma'qul narxga kelishilgan. Hujjatni rasmiylashtirish uchun shu obyektlarning fotosuratlarini kerak bo'lgan. Mashina zavodidagi tanish yollanma shaxs orqali mashinalar arzon narxda sotib olinishi kerak. Bunda yollanma shaxs ham moliyalashtirilishi lozim. Suhbatdoshlar mashina oldi-sotdi masalalari bilan doim shug'ullanuvchi shaxslar deb taxminiy xulosa berish mumkin. Buni ularning nutqidagi noadabiy unsurlarda kuzatish va aniqlash mumkin (1.2. bo'limda izohlangan).

Tahlilning ikkinchi xulosasi

-shaxsiy yozishmaning turi – ijtimoiy tarmoqdagi elektron maktub tarzidagi yozishma;

-shaxsiy yozishmaning tili – oldi-sotdi masalasidagi kelishuv, hamkorlik ruhidadir;

-suhbat yo'nalishi noma'lum zavod bilan shartnoma tuzish xarakterida.

Demak, suhbat mavzusini aniqlashda quyidagilar asos vazifasini bajaradi:

- shaxsiy yozishmaning turi aniqlanadi;
- shaxsiy yozishmaning tili aniqlanadi;
- suhbat yo'nalishi o'rganiladi;
- matnda shubhali, e'tiborni jalb etadigan so'z va birikmalar saralab olinadi;
- saralangan so'zlarning germeneytik mohiyati o'rganiladi;
- saralangan so'zlarning qaysi sohaga taalluqliligi o'rganiladi;
- ishtirokchilarning nutq uslubi aniqlanadi;
- bir so'z yoki so'z birikmasining aynan takrorlanishiga e'tibor qaratiladi;
- shartli qisqartmalar ijrochining ijtimoiy mansublik darajasiga ko'ra o'rganiladi;
- matnda noadabiy unsurlar aniqlanadi;
- noadabiy unsurlar asosida hududiy xosligi o'rganiladi.

Bu turdagi lingvistik ekrpertiza ko'p qirrali germeneytik tadqiqotlar orqali amalga oshiriladi. Ya'ni yuqoridagi elektron maktub shaklidagi yozishma ishtirokchilarning ko'pligi, suhbatning murakkabligi, tipik xarakterga ega so'zlar qamrovining kengligi suhbat mavzusi va yo'nalishini aniqlab olishga qiyinchilik tug'dirishi tabiiy. Semantik bloklash va nutq yo'nalishini aniqlash usullari asosida muammoli xatlarning muallifini topish, suhbat mavzusini aniqlash, suhbat yo'nalishini belgilashda muvaffaqiyatli natijalarni beradi. Sud-huquq idoralarida anonim xatlarning avtorizatsiyasini aniqlash uchun ushbu usullar taklif sifatida beriladi. Bunday serqirra, munozarali matnlar yanada mukammal metodologik tahlillarga muhtoj.

1.2. Shaxsiy yozishmalarda noadabiy leksik unsurlarning qo'llanishi

Tilshunoslikda noadabiy leksik unsur tushunchasi. O'zbek tili ko'p shevalikka asoslangan va me'yor sifatida belgilangan har bir so'z ham o'z ekvivalentiga ega. Nutqiy faoliyatni ixcham, ravon, tez va tushunarliroq ifodalash uchun, albatta, bu variantlardan foydalaniladi. Shunda so'zlovchi o'zi bilmagan holda nutqda adabiy me'yordan chekinish holatlariga duch keladi. Lisoniy birliklarning bunday ko'rinishi tilshunoslikda noadabiy unsurlar (leksik, grammatik,

fonetik) nomi bilan yuritiladi. Jahon tilshunosligida Y.V.Fomenko, L.P.Demidenko, L.I.Skvotsov, S.N.Zeitlin, F.P.Sergeyev, V.A.Grigorev noadabiy unsurlar haqida tadqiqot ishlari olib borganlar³¹. Ular grammatik qoidalarning buzilishini “substandart” deb atashdi³². V.P.Korovushkinning fikriga ko‘ra, “substandart” atamasi XX asr 30-yillarining o‘rtalarida ingliz tilida mustahkamlangan va “adabiy bo‘lmagan til” sifatida qaralgan³³. O‘zbek tilshunosligida gazeta matnlarida leksik me‘yorning buzilishi haqida A.Abdusaidov³⁴, talaba yoshlar nutqida noadabiy unsurlarning voqelanishi haqida N.Azizova³⁵, noadabiy leksik unsurlardan shevalar va uning adabiy me‘yorga mosligi yuzasidan Sh.Shoabdurahmonov va M.Mirzayev, gazeta tilida noadabiy leksik unsurlar masalasida G‘.Karimov, I.Rasulov, N.Qodirova kabi olimlar tadqiqot ishlari olib bordilar³⁶. Shuningdek, noadabiy leksik unsurlar masalasida jahon tilshunosligi lingvistik ekspertiza sohasida qator tadqiqotlar olib borilgan. Nutqda noadabiy stilistik unsurlar masalasida B.I.Viktorovna, insonning shaxsini obro‘sizlantirish, omma oldida haqorat qilish masalalarining lingvistik tadqiqi yuzasidan K.I.Brinev, A.N.Baranov, M.B.Varashova; Facebook, MySpace, Twitter ijtimoiy tarmoqlaridagi yozishmalarning punktuatsiya, imlo va noadabiy unsurlarini lingvistik tahlil qilish yuzasidan K.C.Migell kabi olimlar tadqiqot olib borishgan³⁷. Ushbu tadqiqotlarda

³¹ Фоменко Ю.В. О типологии речевых ошибок // Рус. яз. в школе. № 2 – Новосибирск, 1987. – С. 50-56.; Фоменко Ю.В. Типы речевых ошибок // Учебное пособие. – Новосибирск, 1994.; Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение. // Пособие для учителей. – Москва, 1982. – С 143.; Скворецкая Е.В. Культура речи: (Упражнения и рекомендации). – Новосибирск, 1991. – С 88.; Сергеев Ф.П. Речевые ошибки и их предупреждение. // Пособие для учителя. – Киев, 1988. – С 123.; Скворцов Л.И. Канцеляризмы и штампы // О культуре речи. – Москва, 1981. – С. 27-36.; Скворцов Л.И. Правильно ли мы говорим по-русски?: Справоч. пособие по произношению, ударению и словоупотреблению. –М., 1980. – С 224.; Цейтлин С.Н. Лексические неправильности в детской речи // Рус. яз. в школе. № 4. 1981. – С. 51-54.; Цейтлин С.Н. Нарушение синтаксических норм в речи школьников: (нормативное управление) // Рус. яз. в школе. 1980. № 1. – С. 55-58.; Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение. – Москва, 1982. – С. 143.; Цейтлин С.Н. Типичные морфологические неправильности детской речи: (Материалы исследований) // Речевые приемы и ошибки: типология, деривация и функционирование. – Москва, 1989. – С. 56-65.; Демиденко Л.П. Речевые ошибки. – Минск, 1986. – С. 336.;

³² Александрович З. Д. Особенности перевода отклонений от литературной нормы (на примере романа З. Смит «Белые Зубы»). Выпускная квалификационная работа. – Челябинск, 2017. – С. 14.

³³ Коровушкин В.П. Основы контрастивной социолектологии: дисс. д-ра филол. наук [Текст] / В.П. Коровушкин. – Пятигорск, 2005. – С. 187.

³⁴ Abdusaidov A. O‘qituvchining nutq mahorati. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2013.

³⁵ Azizova N.A. Talabalar nutqining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyati: Magistr ...diss. – Qarshi, 2013. – 14 b.

³⁶ Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek shevalarida leksik moslik va ularning adabiy tilga munosabati. “O‘zbek shevalari leksikasi” to‘plam, – Toshkent. 1966. – B. 5.; Mirzaev M. O‘zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari. – Toshkent., 1969. – 32 b.; Мирзаев М. Советско-интернациональные слова в узбекской периодической прессе(1945-1950): Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1951.; Расулов И. Развитие лексики узбекского языка в период Великой Отечественной войны: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1951.; Каримов Г. Некоторые вопросы развития узбекского литературного языка 1920-1930 гг.: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1972.; Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгара бориши: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1995.

³⁷ Викторовна Б.И. Многоуровневая системность стилистических норм и проблема типологизации речевых отклонений от них: Автореф...дисс. на соискание ученой степени кандидата

inson omili asosida jamiyat uchun manfaatli bo'lgan ilmiy yangiliklar haqida mulohaza yuritiladi.

Noadabiy leksik unsurlar nasrda va nazmda yozuvchi, shoirlar nutqida ham aks etadi. Ba'zan ular tomonidan asarga kiritilgan noadabiy leksik unsur ko'pchilikning ichida ommalashib me'yor sifatida qabul qilinadi va bu o'zbek adabiy tilining boyishiga xizmat qiladi. Ba'zan bu nutqning soxtalashishiga olib keladi. Matndagi til birliklarining omma tomonidan qabul qilinmagan, hamma uchun tushunarli bo'lmagan qismini noadabiy unsur deya baholash mumkin. Noadabiy leksik unsurlar mahalliy dialekt tarkibida emas, balki ijtimoiy dialektga mansubdir. To'g'ri, unda ham mahalliy dialekt qisman aks etadi, ammo ma'lum ijtimoiy qatlamga xos bo'lganligi, muayyan guruhdagi shaxslarning umumxalq tilidagi so'zlarga o'z manfaatlaridan kelib chiqib o'zgacha ma'no kasb etishlari yoki muayyan sohaga oid kasb-hunar leksikasi, terminologiyasidan faqat shu soha kishilarining o'zlarigina foydalanishlari asosida vujudga keladi.

Ma'lumki, nutqda noadabiy leksik unsurlarning uchrashi o'zbek milliy tili uchun xos. O'zbek milliy tili va o'zbek adabiy tili turli tushunchalardir. O'zbek milliy tili kengroq, ya'ni u nutq faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Ammo o'zbek adabiy tili o'zining uslubi, dialekti, kasbiy jargoni kabilarni o'z ichiga oladi. Milliy til turli xil ijtimoiy guruhlarning argo to'plamidir va uning qat'iy me'yorlashgan varianti davlat tuzumining adabiy tili sifatida qaraladi³⁸. O'zbek adabiy tili milliy tilning me'yorlashgan va kodifikatsiyalashgan shaklidir. To'g'ri ma'noda, adabiy til uchun milliy til nutq birliklarining ombori vazifasini bajaradi. Adabiy tilning me'yorlashishi, odatda, ma'lum bir davrda va ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan eng barqaror, an'anaviy tarzda muqaddaslashtirilgan til vositalari va ulardan foydalanish qoidalari majmui sifatida tushuniladi³⁹. Milliy til adabiy til me'yorlarini belgilash uchun asosdir. Shu tarzda til me'yorlarini belgilash, uni nutq vaziyatiga ko'ra baholash, ilmiy adabiyotlarga kiritish va ommaviy axborot vositalarida aks ettirish kodifikatsiya jarayoni deyiladi. O'zbek adabiy tilining kodifikatsiya manbalari lug'atlar, umumiy grammatika va darsliklardir. Har bir ziyoli kishining vazifasi til nuqsonini aniqlash, uni to'g'ri baholash va takomilga yetkazib rivojlantirish, nutqda parazit so'zlar kirib kelishining oldini olish orqali ularning lisoniy immunitetini mustahkamlashdan iborat. Zotan, til madaniyatini yuqori darajada saqlash, adabiy tildan foydalanishda me'yorlarga rioya qilish davlat tili siyosatining eng muhim vazifasidir.

Bir qator tilshunoslar: E.G.Azimova, V.S.Vinogradova, V.G.Gaka, Y.N.Retskera, L.I.Skvortsova adabiy me'yordan chetga chiqishning ikki turini farqlaganlar:

филологических наук. – Краснодар, 2007.; Ворошилова, М. Б. Лингвистическая экспертиза [Текст]: задачник : учеб. пособие. В 2 ч. Ч 1. Экспертиза конфликтного текста / М. Б. Ворошилова; ФГБОУ ВО «Урал. гос. пед. ун-т». – Екатеринбург, 2016. – 220 с; Баранов А.Н. Авторизация текста: пример экспертизы // Цена слова: Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации. – М., 2002. С. 356-363.; Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: Автореф... диссертации на соискание ученой степени доктора филологических наук. – Кемерово, 2010.

³⁸ Елистратов В.С. Арго и культура [Текст]. – М., 1995. – С. 231.

³⁹https://uz.wikipedia.org/wiki/Adabiy_til.

1) adabiy bo‘lmagan, ammo har qanday xususiy normaga mos keladigan birliklar (dialektlar, umumiy nutq, jargon, varvarizm, va boshqalar);

2) umuman olganda, har qanday me‘yorlarga doimiy bo‘ysunmaslik xususiyatiga ega nutq ko‘rinishlari (okkazionalizm, bolalar nutqi, chet ellik shaxs nutqi).

S.I.Vlaxov va S.Florinning tadqiqotlariga ko‘ra, birinchi turi adabiy me‘yordan jamoaviy tarzda chetga chiqish deb ataladi, ya’ni ular jamiyatning turli qatlamlari doirasida ishlatilganligi uchun o‘ziga xos xususiy belgilariga ega va ikkinchi tur nutqi odamlar bilan bog‘liq emas, balki insonlarning umumiy faoliyati, hududiy mansubligiga ko‘ra yuzaga keladi⁴⁰. Shu qatorda, individual normadan chetga chiqish atamasi ishlatiladi⁴¹. O‘zga tilli shaxs boshqa bir milliy tilning me‘yorlaridan, tabiiyki, bexabar bo‘ladi va shunga ko‘ra uning talaffuzida noadabiy unsurlar ko‘p uchraydi. Shuningdek, yosh bolalar nutqida ham bu jarayon kuzatilishi mumkin. Bu ham jamoaviy tarzda emas, balki har bir yosh bola o‘zining intellektual salohiyati, yoshi, jinsiga ko‘ra leksik boylikdan foydalanadi.

Nutqning sofliqiga putur yetkazadigan lisoniy unsurlar, ya’ni noadabiy leksik qatlamlarga dialektizmlar, varvarizmlar (chetdan kirgan so‘zlarni noo‘rin, haddan tashqari ko‘p ishlatish), vulgarizm, kanselyarizm va parazit so‘z kabilar kiradi.

Ushbu leksik qatlamning inson nutqida aks etishi ikki yo‘nalish bo‘yicha tahlil qilinadi:

1. Dialektologiya faniga oid tahlil⁴²;
2. Kriminalistikaga oid tahlil⁴³.

Ammo ushbu ikki sohaning inson nutqiy hosilalariga nisbatan qarashlari bo‘lakchadir. Jadval asosida qiyoslang:

1.2.1. jadval

| Dialektologik tahlil | Lingvistik ekspertiza |
|---|--|
| 1. Noadabiy leksik unsurlarni leksik boylik sifatida o‘rganadi va bu adabiy til lug‘at boyligining oshishiga xizmat qiladi; | 1. Leksik qatlamni o‘rganish pirovardida insoniyatning huquqiy manfaati asosiy o‘rinda turadi; |
| 2. Hududiy chegaralangan birliklarni yig‘ish va tasniflash; | 2. Hududiy xoslangan so‘z va birliklarni o‘rganish; |
| 3. So‘zning va birikmalarning etimologiyasini o‘rganish; | 3. So‘z va birliklarning semantik bloklarini tashkil etish; |
| 4. Adabiy tilga oid birliklarning ekvivalentlarini aniqlash; | 4. So‘zlarning nutq vaziyatiga xosligini o‘rganish; |

⁴⁰ Влахов С. Непереваемое в переводе [Текст] / Влахов С. Флорин С. – М., 2006. – 324 с.

⁴¹ Алексеева И.С. Введение в переводоведение [Текст] / И.С. Алексеева. – СПб., 2004. – 196 с.

⁴² Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.; Rajabov N. O‘zbek tilshunosligining 60 yillik taraqqiyoti tarixidan. – Samarqand, 1982.; Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1997.; Aliyev A.Y. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. – Toshkent: Fan, 1974. – 219 b.; Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979.; Qudratov T. O‘zbek tilining oraliq shevalari (Shahrisabz, Yakkabog‘, Chiroqchi va Qamashi rayonlaridagi oraliq sheva materiallari asosida): Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1968. – 236 b.; Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 196., – b. 25-31.; Murodova N. O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini. – Toshkent: Fan, 2007.; Shermatov A. Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – T., 1972.

⁴³ Ярошук И.А., Жукова Н.А., Долженко Н.И. Лингвистическая экспертиза: Учебное пособие / – Белгород : ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – 16 с.

| | |
|---|--|
| 5. Soʻzlarning tarixiy taraqqiyotini qiyosan oʻrganish. | 5. Birliklarning psixik taʼsir kuchini aniqlash; 6. Soʻz va birliklarning jinsga koʻra mansubligini oʻrganish; 7. Soʻz va birliklarning shaxs-yosh xususiyatlariga koʻra xosligini oʻrganish; 8. Ijtimoiy qatlamga xos soʻzlarni oʻrganish; 9. Soʻz va birliklarning qoʻllanish yoʻnalishini aniqlash: daʼvat, tahdid, tahqirlash, ekstremizm, obroʻsizlantirish, kamsitish kabi munosabatlar. |
| Umumiy jihati | |
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Har bir nutq birligining semantik-sintaktik xususiyatlarini oʻrganish; 2. Adabiy va noadabiy unsurlarni farqlash; 3. Birliklarning hududiy xosligini aniqlash; 4. Lingvistik usullar asosida soʻz va birliklarni oʻrganish va tasniflash. | |

Fanda har ikki sohaning ham oʻrni boʻlak. Dialektologik tahlil soʻzga leksik boylik sifatida qarab, soʻzlardagi turli fonetik xususiyatlarni atroflicha tahlil qiladi. Va bu orqali soʻzlar taraqqiyotining takomiliga katta hissa qoʻshadi. Dialektologiya sohasining yana bir yutugʻi adabiy til lugʻat boyligining oshishiga xizmat qiladi. Lingvistik ekspertiza sohasida esa, asosan, insonning qadr-qimmati, shaʼni, obroʻyi kabi huquqiy manfaatlari yetakchi oʻrinda turadi. Bu soha leksik-grammatik qatlamning semantik ifodasi, psixofiziologik, pragmatik xususiyati, nutq vaziyatiga koʻra taʼsir yoʻnalishi kabilar bilan shugʻullanadi. Shuningdek, inson manfaatini himoya qilishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadi. Quyida bu ikki soha mushtarakligida qator tahlillar berilgan.

Shaxsiy yozishmalarda noadabiy leksik unsurlarning qoʻllanilishi. Nutq oʻzgaruvchan, individual xarakterga ega faoliyat turlaridan biridir. Har bir inson oʻzining imkoniyat darajasi, dunyoqarashi, ilmiy salohiyati, odob-axloqiga koʻra nutqiy faoliyatni amalga oshiradi. Dinamik hodisalarda aniqlik, qatʼiylik boʻlmaganidek, har qanday saviyaga ega insonlar ham xoh yozma, xoh ogʻzaki boʻlsin, nutqiy kamchiliklarga yoʻl qoʻyishadi. Zero, bu jarayon faqat shaxsning intellektual salohiyati bilan belgilanmaydi, balki uning nutqiy vaziyati, pragmatik va psixik holati bilan ham aloqador boʻlishi mumkin.

Fan-texnika har qancha rivojlangani bilan, baribir, inson manfaatlari yuksak oʻrinda turadi. Sud-huquq tizimida yangi yoʻnalish sifatida tilshunoslikdan amaliy foydalanish jinoyatchi va jinoyat izini topishga ancha aniqlik kiritadi. Matnlarning namunaviy variantlari, yozuvning dinamikasi, harflarning hajmi va yoʻnalishini aniqlashdan tashqari, yozishmadagi leksik, grammatik, sintaktik birliklarning lingvistik tahlili matn avtorizatsiyasini aniqlashga katta xizmat qiladi.

Noadabiy leksik unsurlar masalasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan⁴⁴. Noadabiy leksik unsurlarga kiruvchi jargonlar maʼlum guruh doirasidagina qoʻllanilib, shu guruh aʼzolari uchun tushunarli boʻlgan soʻzlardir. Masalan, “oʻrtoq” soʻzining oʻrniga “jigar” (yoshlar va oʻrta yoshlilar nutqida), “mejdunarodniy” (talabalar uchun “3” baho), “pul” oʻrniga “soqqa” (savdogarlar

⁴⁴ Stamatatos E.N., Fakotakis G. Computer-based authorship attribution without lexical measures. Computers and the Humanities, 2001. – 193-214 pp.

nutqida), “darsdan qochdim” o‘rniga “*quyon bo‘ldim*” (talabalar nutqida), “pulni teng taqsimlab olaylik” birikmasining o‘rniga “*arra qilaylik*” (o‘g‘rilar nutqida) kabi. Ba‘zan jargonlar ma‘lum yosh bilan chegaralangan bo‘ladi. Qirq yoshli shaxslar yigirma yoshlilarning ayrim so‘z va birliklarni tushunishmaydi, shunga ko‘ra jargonlar, nisbatan, ma‘lum vaqt doirasida yashab qoladigan til hodisasi hisoblanadi.

Lingvistik ekspertiza – mustaqil sud ekspertizasi, nutq ma‘lumotlari (har qanday moddiy vositada qayd etilgan xabar)ni lingvistik o‘rganish bo‘yicha olib boriladigan tahlil jarayoni⁴⁵. Ushbu faoliyat natijalari jinoiy, fuqarolik yoki arbitraj jarayoni doirasida qat‘iy tartibga solinadi va tilshunos-ekspert (yoki ekspert tilshunoslar komissiyasi) tomonidan yozma xulosa bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu xulosalar tilshunoslikda maxsus bilimlarni qo‘llashni talab qiladigan masalalarni o‘z ichiga oladi. Bu sud jarayonida muammoli shaxsiy yozishmalar tahlilidagi farazlar, taxminlarni aniqlashtiradi va individual baholashning aniq mezonini belgilab beradi.

Lingvistik ekspertizadan maqsad maxsus filologik bilimlar asosida ma‘lum bir sohadagi muammoli matnlardagi faktlar, vaziyatlarni aniqlash. Shu o‘rinda: muammoli matn nima?, – degan o‘rinli savol tug‘iladi. Bahs-munozaraga sababchi bo‘ladigan matnlar sirasiga quyidagilar kiradi:

- a) hujjat;
- b) gazetada e‘lon qilingan maqola;
- c) teleko‘rsatuv;
- d) firma nomi;
- e) tovar belgisi.

Avvalo, ekspert huquqbuzarlikning turiga ko‘ra, matnni tahlil qilishi va ma‘lum xulolasini berishi uchun ikki yondashuv mavjud:

- 1) asosiy faktlar;
- 2) dalillarga asoslangan ma‘lumotlar.

Asosiy fakt – “uning barcha elementlarida jinoyat ishi borligi yoki yo‘qligi”⁴⁶ va dalil bu “boshqa faktlar bilan birgalikda asosiy fakt haqida xulosa chiqarish mumkin bo‘lgan haqiqatdir”. Har qanday jinoyatning obyektiv va subyektiv tomoni bo‘ladi. Jinoyatning obyektiv jihatini yoritishda asosiy va dalillarga asoslangan ma‘lumotlar muhim hisoblanadi. Negaki sud hakami ekspertga mavjud ishda jinoyat bormi, yo‘qmi deb savol bersa, asosiy fakt haqida so‘ragan bo‘ladi. Agar matndagi so‘zlarning semantikasi, grammatikasi, fonetik xususiyatlari haqida so‘rasa, endi ekspert dalillardan kelib chiqib javob beradi. Bu ekspertning tahlil jarayoniga obyektiv aniqlik kiritadi. Masalan, munozarali shaxsiy yozishmada haqoratomuz so‘zlar mavjudligi yoki yo‘qligi asosiy fakt bo‘lsa, ularning kimga qaratilganligi, mazmuniy darajasi, leksik qiymati – bular dalil ma‘lumotlar sanaladi. Bu, albatta, barcha shaxsiy yozishmalar uchun ham taalluqli emas. Masalan, hammaga ma‘lum bo‘lgan axborot haqida yozilgan bo‘lsa, u hamma uchun ma‘lum va u maxfiy ma‘lumot emas. Aynan shaxs yoki yuridik shaxsga tegishli bo‘lgan va shunga

⁴⁵ Ярошук И.А., Жукова Н.А., Долженко Н.И. Лингвистическая экспертиза: Учебное пособие, – Белгород: ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020. – 8 с.

⁴⁶ Белкин Р.С. Собрание, исследование и оценка доказательств. – М., 1966. – С. 19.


o'xshash sirli, shaxsiy ma'lumotlarni ommaga atayin oshkor qilishga qaratilgan yozishmalar lingvistik tahlilbop masalalardan sanaladi.

Jinoyatning subyektiv tomonida esa qonunbuzarning niyati aniqlanadi. Masalan, ma'ruzachi yolg'on gapirmayotgandek ko'rinadi, shunda uning kommunikativ maqsadini aniqlash muhim sanaladi. Yoinki haqiqatni ro'y-rost da'vo qiladi, yo haqiqatni da'vo qilayotgandek o'zini tutadi. Bularning barida so'zlovchining niyati, maqsadini aniqlash lozim. Jinoyatchining niyat, maqsadini aniqlash yoki matnga kiritilmagan faktlarni tahlil qilish, jinoyatning sababini topish – bularning bari ekspertning vakolatiga kirmaydi. Matnning lingvistik ekspertizasini ishlab chiqishda ekspertning vakolatiga matnning ma'nosini, ya'ni undagi so'z va birikmalarning mazmuniy ifodasini aniqlash, ularning inson ma'naviy ongi va salohiyatiga ta'sir kuchini belgilash kabi masalalar kiradi. U muallifning matnda ifodalangan niyat va maqsadini so'zlarning ma'no qirralarini aniqlash orqali tahlil qiladi. Avvalo, dalil sifatida olingan matndagi so'zlovchining niyati sud tomonidan aniqlanadi, tilshunos esa masalaga xususiy yondashib lingvistik asoslarini belgilab beradi. Endilikda ekspert oldida ma'lum vazifalar qo'yiladi. Bu xususda Rossiya davlatining Orlov universiteti tilshunos olimlari L.A.Vlasova va I.V.Popova bahsli matnlarni o'rganish uchun, dastlab, semantik mohiyatni anglash lozimligini ta'kidlashdi⁴⁷. Bu yondashuv semasiologik tahlil yordamida amalga oshiriladi, shuningdek, jarayonda adabiy va noadabiy me'yorga ega grammatik birliklarning umumiy lug'atiga ehtiyoj seziladi. Zero, yozishmaning muallifini aniqlash uchun matndagi birliklarning leksik-grammatik ma'nolarini adabiy me'yorga ko'ra aks ettiruvchi baza zarurdir.

Birinchi bo'limda Rossiyaning Orlov universiteti olimlari I.V.Popova, L.A.Vlasova tomonidan ilgari surilgan shaxsiy yozishmalarning SMS-chat turlariga oid lingvistik ekspertiza bosqichlari haqida ma'lumot berilgan edi⁴⁸. Bu bo'limda lingvistik ekspertiza olimlarning uchinchi bosqich tahliliga ko'ra amalga oshiriladi. Unga ko'ra, matn tarkibidagi barcha shubhali, muammoli so'zlar ajratib olinadi. Ularning mohiyati o'rganiladi va noadabiy unsurlarga xos xususiyatlari aniqlanadi. Noadabiy leksik unsurlar shaxsning yoshiga, jinsiga, ijtimoiy va hududiy mansubligiga ko'ra tahlil qilinadi. Tadqiqotning birinchi va ikkinchi bo'limida tahlil obyekti bitta hisoblanadi. Ammo tahlil yo'nalishi alohidadir. Birinchi bo'limda lingvistik ekspertiza yozishmaning turi, mavzu yo'nalishi haqida bo'lsa, ikkinchi tahlilda matn ijrochilarining qaysi hududga mansubligi lingvistik jihatdan o'rganiladi. Lingvistik tahlil tilshunoslik bilan bir qatorda areal lingvistika, lingvistik geografiya kabi dialektologiya sohalari kesishuvida amalga oshiriladi. Quyidagi tahlil shu xususda boradi:

⁴⁷ Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – Москва: Государственный институт русского языка им. А.С. Пушкина, 2019. – 558 с.

⁴⁸ Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – Москва: Государственный институт русского языка им. А.С. Пушкина, 2019. – 559 с.



Lingvistik ekspertizani amalga oshirish uchun ma'lumotlar tadqim etildi, bunda birinchi bosqich yordamga keladi. Ya'ni shaxsiy yozishmada qaysi mavzuda gap borayotganini aniqlash kerak. Bunda B ismli shaxsga B1, B2, B3 va J ismli shaxslardan Telegram tarmog'i orqali SMS xabar yo'llangan. Bu, haqiqatan ham, muammoli matn deb topildi, chunki unda haqoratomuz so'zlar va tushunarsiz, ma'lum guruhgagina xos bo'lgan jargonlardan foydalanilgan. Shunda, dastlab, ekspert oldiga savol qo'yiladi: yozishmalarda nima haqida gap boryapti? Ekspertga berilgan ma'lumot ma'lum tizimda emas, avvalo, uni maqsadli ravishda tizimga solib olish kerak. Qabul qiluvchi va jo'natuvchining suhbat faktiga ko'ra ma'lumotlar bir tizimga solindi. Yozishmalarda umumiy quyidagi so'zlar qo'llanilgan: *iflos, anka, asfalt, uje, baza, 42 million, konkretны, moskva, tochna, штобы, 45, hal qilish, pul tikkan, qog'ozlarning kopiyasi, rasmlar, kaneshna, chotkiy, anovi zavod, soqqalari, zavodga qancha beramiz, b..., hammasi o'xshasin.*

Matnda *iflos, b...* kabi qo'pol mazmunga ega birliklar qo'llanilgan. Olimlarning ta'kidlashicha, haqoratli va qo'pol so'z birikmalaridan maqsadli foydalanish – bu insonni haqorat qilish hisoblanadi va, albatta, uning semantik darajasiga muvofiq jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortish mumkin. Ammo jamoat oldida birovga nisbatan haqorat qilish maqsadida emas, balki vaziyatning ziddiyatlashuvi natijasida shaxsning ixtiyorsiz ravishda qo'llagan qo'pol, haqoratli, hayosiz so'z birikmalari uchun jinoiy ish qo'zg'atilmaydi⁴⁹. Masalan, sudya sud zalidan chiqayotganida jabrlanuvchi tomonidan unga nisbatan *ahmoq, tentak, ovsar* degan so'zlari haqorat hisoblanmaydi, chunki bu sudyaga emas, balki sud xulosasiga nisbatan ishlatilgan qo'pol iboralar hisoblanadi. Shuningdek, yuqoridagi yozishmada ham *iflos, b...* kabi qo'pol so'zlar so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muammoli vaziyatga nisbatan qo'llanilyapti. Demak, bunday birliklarning lingvistik

⁴⁹ Ворошилова М.Б. Лингвистическая экспертиза [Текст]: задачник: Учеб. пособие. В 2 ч. Ч 1. Экспертиза конфликтного текста / М. Б. Ворошилова; ФГБОУ ВО «Урал. гос. пед. ун-т». — Екатеринбург, 2016. — 62 с.

tahlili sud jarayoni uchun muhim emas, ammo tahlil xulosasi jarayon uchun ahamiyatli sanaladi. Quyida noadabiy leksik unsurning ikki soha yuzasidan tahlili berilgan:

1.2.2. jadval

| Lug‘at tarkibiga oid tahlil | Noadabiy leksik unsur | Lingvistik ekspertiza |
|---|-----------------------|---|
| 1.Qashshoqlik, notavonlik; 2.Kirlangan, isqirt | Iflos | 1.Kirlangan, isqirt; 2.Shaxsga nisbatan omma oldida nutqiy vaziyatga nomuvofiq qo‘llanganda haqorat so‘z sifatida qaraladi. |
| 1.Ashula aytib raqsga tushuvchi; 2.Asli vatani Hindiston bo‘lib, turli davrlarda u yerdan tarqalib, ko‘chmanchi bo‘lib yashovchi xalq. | Lo‘li | 1.Ashula aytib raqsga tushuvchi; 2.Urushqoq, janjalkash, shallaqi ma‘nosida nutqiy vaziyatga ko‘ra ayollarga nisbatan ishlatiladi. |
| Badanda pufakchalar hosil qilib qattiq qichishtiradigan yuqumli teri kasalligi ⁵⁰ . | Qo‘tir | 1. Badanda pufakcha hosil qilib teri kasalligiga yo‘liqmagan insonga nisbatan qo‘llansa, ushbu so‘z haqorat sanaladi. 2. Bu so‘z omma oldida ataylab obro‘sizlantirish, kamsitish maqsadida qo‘llansa, lingvistik-pragmatik jihatdan tahlilga tortiladi. |

Haqoratli so‘zlardan maqsadli ravishda foydalanish deganda ma‘lum shaxsga nisbatan jamoat oldida uning obro‘-e‘tiboriga nomunosib so‘zlarni qo‘llashdir. Masalan, biror xodimga nisbatan: “*Vaqtli kelishning iloji yo‘qmi, ahmoq*”, – tarzida munosabatda bo‘lsa, bu vaziyatga ko‘ra ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik ishini qo‘zg‘atsa bo‘ladi. Buni aniqlash uchun ekspertning oldiga ikki savol qo‘yiladi:

- bu so‘zlar, haqiqatan ham, odobsiz, beadab, haqoratli ma‘noda qo‘llanilganmi?;

- bu so‘zlar etik-estetik jihatidan haqoratlimi?

Lingvistik ekspertizaning vazifasi esa inson, yoki biror tashkilotning qadr-qimmatini, obro‘yiga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan matnlardagi haqorat so‘zlarning lingvistik tahlilini berishdan iboratdir. Haqorat so‘zning, haqiqatan, haqorat mazmunida qo‘llanganligi va maqsadli amalga oshirilganligini bilish uchun tilshunos I.A.Sternin qo‘pol so‘zlarning mazmuniga ko‘ra darajaladi. Bu quyidagi jadvalda aks etgan⁵¹:

1.2.3.-jadval

⁵⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Иккинчи жилд. – Москва: Рус тили, 1981. – Б. 642.

⁵¹ Стернин И.А. Выявление признаков возбуждения расовой и национальной вражды в лингвистической экспертизе текста [Текст]: Метод. пособие / И.А. Стернин; Центр коммуникативных исследований Воронеж. гос. ун-та. — Воронеж: Гарант, 2010. — 16-21 с.

| | | | | | | |
|---|--|--|--|--|---------------------|---|
| Tartibga ko'ra | Adabiy me'yorga muvofiq (har qanday vaziyatda foydalanish - ga ruxsat berilgan) | Adabiy me'yordan chekinish hollari (vaziyatga muvofiq chegaralangan hollarda qo'llaniladi) | | | | |
| Nutq uslubiga ko'ra | Badiiy va so'zlashuv nutqi | Tahqirlash Sleng (tomi ketgan, aravachi, qallob) Jargon (mishka, koptok) Sodda nutq (shippak, og'makor) | Vulgar so'zlar (Badbashara, bezbet, iflos, ahmoq, qorin, laqma) | Uyatli so'zlar (hayvonlar va ularning urg'ochilarini nomi bilan keltirish; | | |
| | | Qo'pol (tajovuzkor) | | | | |
| Jamoat joyida qabul qilinadigan, axloqiy mezonga xos | Odob doirasida (jamoat joylarida ishlatiladi) | | <table border="1"> <tr> <td>Behayo ibora</td> </tr> <tr> <td>Nopok (tabu, jamoat joyida foydalanish butunlay taqiqlangan)</td> </tr> </table> | | Behayo ibora | Nopok (tabu, jamoat joyida foydalanish butunlay taqiqlangan) |
| Behayo ibora | | | | | | |
| Nopok (tabu, jamoat joyida foydalanish butunlay taqiqlangan) | | | | | | |
| | | Madaniyatsiz (noo'rin, jamoa oldida qo'llash uchun tavsiya etilmaydigan birliklar) | | | | |

Bu borada professor B.O'rinboyev ham vulgarizmlarni ma'no ottenkasi va qo'llanish doirasiga ko'ra 3 guruhga bo'ladi:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: *ezma, juvonboz, xumpar, buzuq, mug'ombir, latta* kabi;

b) kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarizmlar: *mechkay, ko'ppak, maymoq, ilonbosh, simyog'och, qovoqbosh, ayronbosh, gumbaz, bordonday, qo'ng'iz, mo'ylov, kal, do'rdoq, qiyshiq, qo'tir* kabi;

v) so'kish, koyish ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: *bachchag'ar, yaramas, ablah, xumpar, nomard, badbaxt, nonko'r, gumroh, qistaloq, ahmoq, sintaloq, xotin-*

*taloq, galvars, kasofat, naxs, ko'ppak, og'moq (telbalanmoq), og'zi katta (kibrhavoli), nazari ilmaydi (mensimaslik) kabilar*⁵².

Haqorat so'zlarning darajalanish xususiyatiga ko'ra matnni tahlil qilish ancha samarali natija beradi. Shu asosda, ekspert uchun haqorat so'zlar lug'ati muhim ahamiyatga ega. Munozarali matn mazmuniga oydinlik kiritishda ham, tekshiruv xulosasini berishda ham asos vazifasini o'taydi. Haqorat va qarg'ish so'zlarning mazmuni va hududiy xususiyatlariga ko'ra indeksi ilovada keltirilgan.

Jargonlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari rus tilshunosligida birmuncha o'rganilgan. Jumladan, V.V.Straten, L.A.Kapanadze, L.T.Loshmanova, L.I.Skvortsov, E.G.Barisova-Lukashanets kabilarning qator tadqiqotlari mavjud⁵³. Matnda *soqqa, 42 million, 45, pul tikkan* kabi birliklarning ishlatilishi suhbatdoshlarning biror oldi-sotdi muammosi borligi haqida xulosa beradi. Ammo *soqqa* noadabiy unsurining qo'llanilishi esa suhbatdoshlar birinchi bor savdo ishi bilan shug'ullanmaganligi, balki savdo-sotiq sohasi ularning kundalik ish-faoliyati bilan bog'liq ekanligidan dalolat beradi. Chunki har to'rttala shaxs uchun ma'lum bo'lgan va doimiy tarzda qo'llanib kelayotgan so'z keltirilgan. Ammo nutq jarayonida aynan *pul tikkan* so'zi ham qo'llanilgan, bu esa muammoning yechimi tahlilning keyingi bosqichlarida ayon bo'lishiga ishoradir.

Noadabiy leksik unsurlarning shunday turi mavjudki, ular nutqning ravonligi va sofligiga yaqqol ta'sir ko'rsatadi. Bu o'zga tilli so'zlarni qo'shib gapirish hisoblanadi. Yuqoridagi matnda *uje, karoche, tochna, chotkiy* kabi so'zlar ishtirok etgan. Bu so'zlovchining shaxsiy intellektini namoyon etuvchi, hatto jamiyatdagi o'rnini aniqlashga yordam beruvchi noadabiy unsurlardir. Zero, varvarizmning asosiy belgisi uning ajnabiy so'zligi va o'z tiliga tamoman yotligidir⁵⁴. Ushbu tahlil tilshunos ekspertlar L.A.Vlasova va I.V.Popovaning lingvistik tahlil usulidagi uchinchi bosqich hisoblanadi. Bu matndagi birliklarning lingvistik tahlili edi. Bu o'zbek tilidagi matnlarda jinoiy ishlarni fosh etishda yaxshi taklif bo'la oladi. Birinchi bo'limda olimlarning birinchi va ikkinchi usullari asosidagi lingvistik tahlil berilgan edi.

Noadabiy leksik unsurlar o'z grammatik qurilishi va asosiy lug'at fondiga ega emas. Ular buni milliy tildan oladi. Jargonlar keng jamoatga emas, balki tor doiradagi kishilarga xizmat qilishi bilan xarakterlanadi. Vulgarlar esa keng ommaga tegishli bo'lib, har ikkala qatlamning ham leksik omborni tuzish, lug'at tarkibini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Zero, jadal taraqqiyot davrida bu ko'pgina muammolarning yechimiga sabab bo'ladi. Masalan, anonim yozishmalar muallifining tili, ijtimoiy qatlami, intellektual salohiyati va saviyasini aniqlashda ancha qo'l keladi. Bundan tashqari, noadabiy leksik unsurlar shaxsning millatini aniqlashda ham yordam beradi. Lingvistik ekspertizada noadabiy leksik

⁵² Sherboyeva G. Badiiy matnda sotsial chegaralangan so'zlar. – Andijon, 2017. – b. 32.

⁵³ Стратен В.В. Арго и арготизм. – В сб.: “Труди комиссии по русскому языку”. – Л., 1931.; Скворцов Л.И. Об оценках языка молодёжи. “Вопросы культуры речи” Вип. 5. – Москва, 1964. – С. 67.; Лошманова Л.Т. Жаргонизированная лексика в бытовой речи молодёжи 50-60-х годов. АКД. – Л., 1975.; Кapanadze Л.А. Жаргон и “модные слова”. “Наша речь”. – Москва, 1965.; Борисова-Лукашенец Е.Г. Английские элементы в русском молодежном жаргоне. АКД., – Москва, 1964.

⁵⁴ Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний тахлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 35.

unsurlarning indeksi muammoni har tomonlama o'rganish uchun ahamiyatli. Sud jarayonlarida ham aynan hududiy jihatdan kategoriyalashtirilgan noadabiy leksik unsurlarning lug'ati matni lingvistik ekspertiza qilish uchun asos bo'ladi.

Demak, konfliktli yozishmada noadabiy leksik unurni rus olimlari taklif etgan lingvistik tahlil bosqichi orqali aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ya'ni matn tarkibidagi noadabiy leksik unsur aniqlanib, uning matndan tashqari lug'aviy ma'nosi izohlanadi. So'ng kontekstual semantik mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, noadabiy leksik unurning vulgar turkumiga kiruvchi haqorat so'zlar semantik jihatdan darajalanadi. Shu asosda inson yoki yuridik shaxs qadr-qimmati, nufuzi, obro'yiga ijobiy yoki salbiy ta'siri asoslanadi. Ushbu jarayonlar sud-huquq tizimidagi yozishmalar bilan bog'liq muammoli vaziyatlarga lingvistik jihatdan oydinlik kiritadi.

1.3. Shaxsiy yozishmalarda qo'llangan noadabiy leksik unsurlarning hududiy xususiyatlari

Noadabiy leksik unsurlarning hududiy xosligi. O'zbek shevalari leksik qatlamini o'rganishning yo'nalishini belgilashda S.Ibrohimov, S.Rahimov, T.Yo'ldoshev kabi olimlarning tadqiqotlari yetakchi rol o'ynaydi⁵⁵. O'zbek tili leksik qatlamining dialektal o'ziga xosligiga qadimgi urug' va qabilalarning alohida hududlarda yashaganliklari muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, ijtimoiy hayot tarzi, hududiy mustaqilligi, kasb-hunari, etnografik xususiyatlari ularning tilida aks etmay qolmas edi. Natijada bu jarayon umumiy o'zbek tilini saqlab qolgan holda ma'lum hududlarga xos shevalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyo va Qozog'iston hududida mavjud bo'lgan qipchoq, o'g'uz, qarluq-chigil, uyg'ur xalqlarining til birligi o'zbek tilida ham shunga muvofiq sheva va lahjalarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Demak, o'zbek milliy tili uchta lahjaga ega: qipchoq (janubiy-g'arbiy guruh), o'g'uz (shimoliy-g'arbiy guruh) va qarluq (janubiy-sharqiy guruh) lahjalari bo'lib, ular ma'lum hududlargagina xosdir⁵⁶.

O'zbek dialektologiyasida sheva va lahjalar o'ziga xosligi yuzasidan ko'pgina tadqiqot ishlari olib borilgan. Hududiy dialektlar masalasida professorlar Q.Muhammadjonov shimoliy o'zbek shevalarini, A.Aliyev Namangan guruh shevalarini, X.Doniyorov Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi o'zbek shevalarini, B.Jo'rayev va A.Shermatov Yuqori Qashqadaryo hamda Quyi Qashqadaryo o'zbek shevalarini, N.Murodova Navoiy viloyati shevalarini, T.Qudratov Qashqadaryo

⁵⁵ Иброхимов С. Фарғона шевалярининг касб-хунар лексикаси. Кулоллик, тандирчилик ва шувокчиликка оид. АДД.Т., 1956. Иброгимов С. Профессиональная лексика узбекского языка (на материалах Ферганских говоров). – Тошкент, 1961; Ибрахимов С.И. Ўзбек тилининг Андижон шеvasи. – Тошкент, 1967; Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari. (Fonetika, leksika). – Toshkent: Fan, 1985; Yo'ldoshev T. Tojikistondagi o'zbek shevalari morfologiyasi. – Toshkent: Fan, 1986.

⁵⁶ Hamroyev M., Muhammedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona Tili: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2017. – b. 5.

viloyatidagi o‘zbek shevalarining oraliq guruhini tadqiq etishgan⁵⁷. Bu tadqiqotlar o‘zbek tili shevalarining o‘ziga xosligini asoslab beradi.

Professor V.V.Reshetovning tasnifiga ko‘ra, o‘zbek tili shevalari uch guruhga ajratiladi:

1) shimoli-g‘arbiy guruh – bu qipchoq lahjasidagi shevalardan iborat va unga qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq tillarining ta‘siri sezilib turadi;

2) janubi-g‘arbiy guruh – bu o‘g‘uz lahjasiga taalluqli bo‘lib, unga chegaradosh hudud tili, ya‘ni turkman tilining ta‘siri bor;

3) janubi-sharqiy guruh – bu qarluq lahjasiga xos bo‘lib, unga tojik tilining aralashuvini kuzatish mumkin⁵⁸.

Olimning tasnifi O‘zbekiston viloyatlari tilining o‘ziga xosligini belgilash uchun asos bo‘ladi. Garchi barcha viloyatlar uchun umumiy so‘zlashuv tili o‘zbekcha bo‘lsa ham, viloyatlararo leksik qatlam o‘ziga xos leksik-semantik, fonetik, grammatik, sintaktik jihatdan farqlanadi. Bu masalada ham V.V.Reshetovning tasnifi muhim ahamiyatga ega. Ba‘zi so‘zlar semantik bir xillik, ayni bir tushunchani ifodalasa-da, shevalarda turli so‘zlar bilan berilishi mumkin: *og‘iz (ad.) –qag‘anaq (Surx.), –falla (Sam.), –og‘iz (Qash.), –uvuz (Qip.sh); chaqaloq (ad.) –nini (Bux.), –bebek (Sur.), –bovak (qip.), –chaqalag‘ (Qash.), –chaqalo (Tosh.), –buvek (Farg‘.), –bala (shim.o‘zb.sh.)*.

Shuningdek, ayni bir so‘z shevalarda boshqa bir mazmuni yuzaga keltirishi mumkin: *buvi* – Toshkentda ota-onaning onasi, Farg‘onada esa ona ma‘nosida; *aka* – Samarqand, Buxoroda ukadan katta yaqin qarindosh, Xorazmda esa dada ma‘nosida; *pashsha* – Toshkentda chaqmaydigan hasharot, Farg‘ona va shimoliy o‘zbek shevalari, Qashqadaryo, Buxoroning ayrim hududlarida chaqadigan hasharot. Bundan tashqari, narsa va predmetning nimadan yasalganiga ko‘ra ham so‘zlar hududlararo o‘ziga xoslikni yuzaga keltiradi: *nonpar* – Samarqand, Buxoro hududlarida qush va parranda patidan yasaladigan oshxona buyumi, *chekich* – Toshkent va uning ayrim viloyatlarida yog‘och simdan yasaladigan va yassilash, urish degan ma‘nolarda ishlatiladi. Aynan shu oshxona buyumi shimoliy o‘zbek shevalarida *duki* – duk-duk taqlidiy so‘zdan olingan nom bilan ataladi.

O‘zbek xalq shevalari so‘z boyligida o‘zbek adabiy tilidagi so‘zlar bilan shaklan o‘xshash, ammo ma‘noda bir-biridan farq qiladigan leksik-semantik birliklar uchrab turadi. Masalan, “uzangi” shevada “narvon”, adabiy tilda esa “otga minish va egarda oyoqlarni tirab turish uchun mo‘ljallangan metaldan yasalgan ot abzali”; “qalin” – “gilam”, adabiy tilda esa “nikoh to‘yida qiz uchun kuyov tomonidan beriladigan pul”; “nervan” Xorazmda “qayrag‘och”, adabiy tilda “ikki

⁵⁷ Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.; Rajabov N. O‘zbek tilshunosligining 60 yillik taraqqiyoti tarixidan. – Samarqand, 1982; Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1997; Aliyev A.Y. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. – Toshkent: Fan, 1974. 219; Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979; Qudratov T. O‘zbek tilining oraliq shevalari (Shahrisabz, Yakkabog‘, Chiroqchi va Qamashi rayonlaridagi oraliq sheva materiallari asosida): Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1968. – 236 b.; Jo‘rayev B. Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1969. – 25-31 b.; Murodova N. O‘zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini. – Toshkent: Fan, 2007; Shermatov A. Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari. – Toshkent, 1972.

⁵⁸ Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013. – 36 b.

yoni yog‘och va unga mustahkamlangan pog‘onalardan iborat, yuqoriga chiqish va tushish uchun mo‘ljallangan asbob”⁵⁹.

Adabiy til va hududiy shevalarning leksik-semantik farqini kuzatish davomida, bu borada Xorazm leksikasida o‘ziga xoslikka egaligi ma’lum bo‘ladi. Bu shevaga o‘g‘uz lahjasining ta’siri kuchli bo‘lgan ozarbayjon, turk, turkman tillariga xos leksik birliklar ko‘p uchraydi. Masalan: *gunash – quyosh, cho‘x – juda, yig‘layman – yig‘laram, senikidur – saningdur, unda – anda, yo‘rg‘an – ko‘rpa, dal – emas (inkor shakl), xo‘ja – katta* kabilar⁶⁰. Buxoro va Qashqadaryo shevalarida *quyosh – oftob, bola – bachcha, qiz – duxtar, o‘rta yoshli erkak – mardakcha, tovuq – murg‘, ilon – mor, chumoli – mo‘richa, xushmuomala – shirinzabon, yigit – pisar* tarzida uchraydi. Ma’lum bo‘ladiki, janubi-sharqiy hududlardagi viloyatlarda tojik tilining ta’siri kuchli va bu ham o‘sha hudud leksik qatlamining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Arab tilining ta’sirida leksemalarni buzib talaffuz qilish hodisasi uchraydi. Masalan, *muborak bo‘lsin – morak bo‘sin, oilali – oyilali, muallim – ma:lim, maorif – mo:rif* tarzida talaffuz etiladi. Ushbu fonetik xususiyatlarni yuzaga kelishiga o‘zbek tilida qator unlilarning mavjud emasligidir⁶¹. Bu esa talaffuzda qiyinchilik tug‘dirishi bilan izohlanadi. Shu sababli ham arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar yuqoridagidek talaffuz etiladi.

O‘zbek tili boshqa tillardan ajralib mustaqil taraqqiy eta boshlagan davrdan boshlab, unga turkiy va eroniy tillarning kuchli ta’siri bo‘lgan. Jumladan, Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalariga qoraqalpoq va qozoq tillarining, Toshhovuz o‘zbek shevalariga (Xorazm shevalariga) turkman tilining, shimoliy o‘zbek shevalariga qozoq tilining, Qirg‘izistondagi o‘zbek shevalariga qirg‘iz tilining, Samarqand, Buxoro, Namangan, Sariosiyo va Tojikistondagi o‘zbek shevalariga tojik tilining ta’siri kuchlidir. Shu tufayli ham bu shevalar boshqa shevalardan farqlanib qolmoqda va o‘ziga xoslikni vujudga keltirmoqda⁶². Bu borada tadqiqotchi A.Allaberdiyev Buxoro o‘g‘uz shevalariga tojik tilining ta’sirini quyidagicha tasnif qiladi:

1. Qadimgi yozma yodgorliklar uchun xos bo‘lgan, Buxoro o‘g‘uz shevasida turli darajada saqlangan, biroq o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lmagan leksik birliklar: *aja – kaft, turkm. a:ya – kaft* kabilar.

2. Ma’nosida o‘zgarishlar ro‘y bergan asl turkiy so‘zlar⁶³.

Tadqiqotchining birinchi tasnifiga ko‘ra, Buxoro o‘g‘uz shevalarining leksik-semantik xususiyatlari, aynan Xorazm, Toshhovuz va Qoraqalpog‘istondagi ayni shunday til hodisalari bilan o‘xshashdir. Aslida bu jarayon deyarli barcha hudud shevalarida uchrashi mumkin. Ammo olimning ikkinchi tasnifida Buxorodagi tojikzabon xalq bilan o‘zbek tilining qo‘shiluvi va natijada yangidan-yangi gibrid leksik birliklarning yuzaga kelishini kuzatish mumkin. Masalan, *yuzma-yuz*

⁵⁹ Allaberdiyev. A.A. Buxoro o‘g‘uz shevalari leksikasi: Filol. fan. d-ri. ...diss. – Toshkent, 2018. – B. 88.

⁶⁰ Xudayberganova D.Q. Xorazm xalq dostonlari leksikasida nafaol qatlam: Filol. fanlari d-ri. ...diss. – Urganch, 2017. – 39 b.

⁶¹ Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B. 82.

⁶² Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013. – 7 b.

⁶³ O‘sha asar. – 61 b.

ma'nosida qo'llangan *ro'yoch* so'zi, forsha *ro'y-yuz*, o'zbekcha *ochmoq* fe'lining birikuvidir. Shunda *ro'yoch* shevada *qilmoq* fe'li bilan birikib, "gaplashib olmoq, orani ochiq qilmoq" ma'nosini bildiradi. Shuningdek, leksik qatlamning tojik tili bilan gibridlashuvi, nafaqat, Buxoro, balki Samarqand, Toshkent viloyati, Sirdaryo, Namangan va Qashqadaryoning ayrim hududlari uchun xos.

Demak, leksik qatlamning hududiy o'ziga xosligini o'sha yerda yashovchi xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy holati, turmush-tarzi, urf-odati va, qolaversa, geografik joylashuvi ham belgilab beradi. Bu esa o'z-o'zidan tilda aks etadi va hududiy o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Hududiy o'ziga xos bo'lgan nutqiy birliklar lingvistik ekspertizaning o'rganish obyekti sanaladi. Ya'ni muammoli matnning nutqiy birliklarida hududiy xoslangan elementlarning aks etishi va lingvistik tahlilga ko'ra ushbu birliklarning qaysi viloyat yoki tumanga tegishli ekanligining aniqlanishi gumonlanuvchi haqidagi xulosalarga ancha oydinlik kiritadi.

Shaxsiy yozishmalarda noadabiy leksik unsurlarning hududiy o'ziga xosligi lingvistik tahlili. O'zbek tilidagi shevalarga xos so'zlarni noadabiy leksik unsurlardan: jargon, argo, vulgar, varvar, parazit so'zlardan farqlash lozim. Ya'ni dialektlar barcha sheva vakillari uchun tushunarli bo'ladi. Noadabiy leksik unsurlar esa dialektal xarakterga ega bo'lmaydi, balki ma'lum ijtimoiy guruh yoki muayyan bir toifa kishilari uchungina tushunarli bo'ladi, xolos. Jargonlarning muhim xususiyati u so'z va so'z birikmasidan iborat bo'ladi va asl leksik-semantik paradigmasidan uzoqlashadi⁶⁴. Masalan, talabalar nutqida oxirgi kurs vakillari – *dembl*, 1-kurs talabalari – *akademik*, qo'llab-quvvatlovchi shaxs – *tog' yoki tanka*. Aslida, *akademik* – yuksak ilmiy unvon, *tog'* – yer relyefining bir shakli, *tank* – harbiylar uchun maxsus mashina turi kabi semalarga ega.

Qayd etish kerakki, jargon so'zlarni shakllantirishda so'z va birikmalarning sememasi bilan aloqadorlik mavjud bo'ladi, ammo aynan o'sha leksik ma'noda emas. Bunda ma'no zanjiri saqlangan holda boshqa harakat-holatga ishora beriladi. Bunda so'zlovchi va tinglovchining yoshi, jinsi, ijtimoiy mansubligi, saviyasi kabilar inobatga olinadi. Shuningdek, jargon so'zlar ko'proq yoshlar nutqida rivoj topgan. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, qirq yosh atrofidagi insonlar yigirma yoshlilar nutqini to'la tushunmaydilar. Bu ham o'ziga xos yoshlar tili mavjudligidan dalolat beradi. Ammo jargon va argolar tilda uzoq yashamaydi. Chunki bu leksik qatlam, yuqorida aytilganidek, insonning yoshi, tabaqaviy mansubligi va faoliyatiga bog'liq. Bu jarayonlar turg'un bo'lmaganidek, jargon va argolar ham o'zgaruvchandir. Jargon va argo bitta umumiy ijtimoiy dialekt tushunchasida birlashadi, ammo o'ziga yarasha farqli xususiyatlariga ega. Argo yuqorida aytilganidek, ma'lum guruhlarga xos bo'lgan yashirin til. Uni qo'llashda ma'lum maqsad ko'zlanadi. Masalan, Toshkent viloyati Piskent tumanida talabalar nutqida pora oladigan ustozga nisbatan *cho'mich*, shu hududga tegishli bangilar nutqida qoradori giyohvand moddasi – *ko'kat* so'zlari bilan nomlanadi. Bundan maqsad esa o'ziga aloqador shaxslarga fikrini ayon qilish va o'zgalarning tushunmasligi,

⁶⁴ Попова Е.П., Бондаренко О.В., Кострулева И.В. Русский язык и культура речи: Учебное пособие, – Ставрополь, 2017. – С. 18.

sirining fosh bo'lmashligiga erishishdir. Jargonda esa yashirin tushuncha saqlangan holda, tinglovchini yoki o'zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatlarini bo'rttirib baholash ottenkalari ham mavjud bo'ladi. Masalan, talabalar nutqida: *dum* – topshirilmagan imtihon, qarz; jonli so'zlashuvda *yo'rg'a* – yengil tabiatli, buzuq va b.lar. Bu noadabiy leksik unsurlar hududiy o'ziga xosliklarga ham ega. Jargon va argolarning hududiy o'ziga xosligi 1-jadvalda aks etgan:

Jargon va argo so'zlar 1.3.1-jadval

| O'zbekistonning viloyat va tumanlari | Jargon so'zlar | Argo so'zlar |
|--|--|--|
| Toshkent vil. Piskent tum. | Shapka – pora | Zormanda – ichuvchilar nutqida aroq |
| Toshkent vil. Piskent tum. | Quyvon bo'ldim – qochdim | Toza – o'g'rilar tilidan hech kim yo'q |
| Toshkent vil. Piskent tum. | Cho'mich – pora oladigan ustoz | Ko'kat – nasha (giyohvand modda) |
| Toshkent vil. Piskent tum. | O'lja – korrupsionerlar tilidan pul beruvchi | Kalkala – dollar |
| Toshkent vil. Piskent tum. | Pitak – taksi haydovchilar tilidan | Svoy – billiard o'ynida g'olib bo'luvchi |
| Toshkent vil. Piskent tum. | Bodring – YPX xodimlari | Sheff – boshliq so'zlashuv uslubida |
| Toshkent vil. Piskent tum. | Archa – radar haydovchilar tilidan | Bag'dodda hamayoq tinch – o'g'rilar nutqida hammayoq tinch degan ma'noni anglatadi |
| Toshkent vil. Piskent tum. | | Baniyati shifo dori – ichuvchilar nutqida aroq |
| Toshkent vil. Piskent tum. | Pistalet – tikuvchilar tilida munchoqni yopishtirish uchun mo'ljallangan asbob | |
| Toshkent vil. Qibray tum. | Qog'oz – dollar pul birligi | G'ishtakan – xunuk yuzlilarga qaratilgan, yoshlar o'rtasida |
| Toshkent vil. Qibray tum. | Bodring – militsiya, yoshlar o'rtasida | |
| Andijon | Uchoyoq – radar, haydovchilar orasida | Mol – qoradorichilar nutqida |
| Andijon | Pitak – mashinalar turish joyi, haydovchilar orasida | |
| Andijon | Go'sht kelyapti – pul beruvchi inson, korrupsionerlar nutqida | |
| Andijon | Toza – yo'lda tinchlik (haydovchilar nutqida) | |
| Andijon | Kal – AQSh dollari (qishloq muhitida) | |
| Andijon vil. Ulug'nor tum. "To'rtol" MFY | Yashil – militsiya xodimi | Zangining buluti – tamaki (chekuvchilar nutqida) |
| Andijon vil. Ulug'nor tum. "To'rtol" MFY | Paxtachi – tilyog'lamalik qiladigan odam (talabalar, yoshlar) | |
| Samarqand viloyati Ishtixon tumani | Ko'kat – dollar Limon – dollar | |

| | | |
|---|---|--|
| Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani | Katta shapka – yuqori hokimiyat | Teatr – qamoqxona (mahbuslar nutqida) |
| Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani | | Ahmoq – qurol (bosqinchilar nutqida) |
| Qashqadaryo viloyati Kitob tumani | Akalar – YPX xodimlari (haydovchilar nutqida) | Oq choy (spirtli ichimlik) piyonistalar nutqida; |
| Qashqadaryo viloyati Kitob tumani | Mol – yuk (biznesmenlar nutqida) | Jazman – klient (dallollar) |
| Qashqadaryo viloyati Kitob tumani | Lagan – biror narsa xarid qilmay, shunchaki ko'rib ketadigan mijozlar (savdogarlar nutqida) | |
| Qashqadaryo viloyati Kitob tumani | Ko'k, ko'kat – AQSh dollari (bozorchilar nutqida) | |
| Buxoro viloyati Vobkent tumani | Lagancha – biror ishni bitirish uchun tilyog'lamalik qiladigan shaxs(talabalar nutqida) | |
| Buxoro viloyati Vobkent tumani | Qurug'i – pul (savdogarlar nutqi) | |
| Buxoro viloyati Vobkent tumani | VTP – vatanparvar (har kuni darsga keladigan talabalar) | |
| Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani | Bodring – yo'l harakati inspektorlari (haydovchilar nutqi) | |
| Qashqadaryo viloyati Qamashi tum. | Kal – dollar Qurug'i – pul | |
| Samarqand viloyati Paxtachi tum. | Mulla jiring, ko'kat – pul ma'nosida | Dori – qora dori ma'nosida (bangilar nutqida) |
| Samarqand viloyati Paxtachi tum. | Kalla tashlamoq – imtihondan yiqilmoq (talabalar nutqida) | Sirpanamiz – qochamiz (o'g'rilar nutqida) |
| Samarqand viloyati Paxtachi tum. | Quyong bo'lamiz – darsdan qochamiz (talabalar nutqida) | Tutun bo'lamiz – qochmoq (o'g'rilar nutqida) |
| Samarqand viloyati Paxtachi tum. | Dolya – pul (savdogarlar nutqida) | |
| Navoiy viloyati Uchqo'rg'on tum. | | Dori – spirtli ichimlik (aroq ichuvchilar nutqida) |
| Namangan shahri | Qog'oz – dollar pul birligi | |
| Namangan viloyati Chust tum. “Olmos” MFY | Vatan – har doim darsga keladigan, formada yuradigan talabaga nisbatan qo'llaniladi | |
| Namangan viloyati Chust tum. “Olmos” MFY | Ko'kat – dollar Soqqa – pul ma'nosida | |

Biz O'zbekistonning viloyatlararo leksik qatlamidagi o'ziga xosliklarni bilish uchun Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kursning 7 ta guruh talabalari yordamidan foydalandik. Talabalarga o'z

yashaydigan hududlarida xalq ogʻzaki ijodidan noadabiy leksik unsurlarning har biriga 30 tadan misol va shevaga oid matnlarni yozib olish vazifasi topshirildi. Jami 5000 dan ortiq baza toʻplandi. Oʻn ikkita viloyatga xos nutqiy birliklar jamlandi, ammo leksik qatlamning oʻziga xos xususiyatlariga koʻra sakkizta viloyatga tegishli birliklar saralab olindi va qiyosiy tahlil qilindi. Baza asosida lugʻat tuzildi. (Ilovada berilgan)

Yuqoridagi jadvalda hududiy oʻziga xos noadabiy leksik unsurlarning oʻxshash va farqli jihatlari aks etgan. Bu lingvistik ekspertizada gumonlanuvchining yashash hududini aniqlashga, nutqiy hosilalarining aynan qaysi hududga mansub leksik qatlam ekanligini izohlashga yordam beradi.

Turli hududlardan yigʻilgan manba asosida hududiy leksik qatlam oʻzaro qiyosiy tarzda oʻrganildi. Tajriba sinovidan shu ayon boʻldiki, nutqda jargon va argo soʻzlarni qoʻllash hududlararo oʻziga xos xarakterga ega. Masalan, Toshkent vil. Piskent tumanida dollar valyutasi *kalkala*, Qibray tumanida *qogʻoz*, Samarqand viloyati Ishtixon tumanida *koʻkat*, *limon*, Namangan viloyati Chust tumanida “Olmos” MFY va Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida *koʻk*, *koʻkat* nomi bilan, Samarqand viloyati Paxtachi tumanida *dolya*, Andijon viloyatida esa *kal* deb yuritiladi. Ammo *koʻkat* tushunchasi Toshkent viloyati Piskent tumanida *giyohvand modda* maʼnosini ifodalaydi. *Giyohvand modda* Andijon shevasida *mol* nomi bilan yuritiladi. Bu leksik-semantik jihatdan bir xil soʻzning turli hududlarda alohida nom va nomlashda ham oʻzgacha yondashuvni taqozo etyapti. Bundan ayon boʻladiki, ayni bir tushuncha bir hududga tegishli tumanlarda alohida nom bilan atalishi, yoinki bir nechta hududlarda bir xil nom bilan yuritilishi mumkin ekan. Yoxud *dori* Navoiy viloyati Uchqoʻrgʻon tumanida *arog spirtli ichimligi* maʼnosida qoʻllansa, Samarqand vil. Paxtachi tumanida *giyohvand modda* mazmunida qoʻllaniladi. Ichuvchilar nutqida aroqning nomlanishida ham farqlar mavjud: Qashqadaryo vil. Kitob tumanida *oq choy*, Toshkent vil. Piskent tumanida *baniyati shifo*, *zormanda* nomlari bilan yuritiladi. Ayon boʻladiki, bir sema bir hududda ikki xil nomlanishga ega, bu esa hududiy xoslangan leksik unurni aniqlash lingvistik ekspertizasida biroz chigallikni yuzaga keltiradi. Qashqadaryoning Kitob tumanida savdogarlar *lagan* leksemasidan foydalanishadi, bu soʻz *hamma narsani koʻrib, ammo hech narsa xarid qilmay ketadigan xaridorga* nisbatan ishlatiladi. Biroq bu atama Buxoro viloyati Vobkent tumanida talabalarning nutqida *lagancha*, yaʼni *birovga ishini bitirish uchun tilyogʻlamalik qiladigan shaxs* mazmunida ishlatiladi. Shuningdek, Vobkent tumanining Qoʻngʻirot qishlogʻida *lagan* soʻzi *togʻora* maʼnosida qoʻllaniladi. Koʻrinadiki, jargon va argo soʻzlarni nutqda qoʻllash hududlararo oʻziga xos xarakterga ega.

Bundan tashqari, shunday vulgar soʻzlar borki, ayrim hududda haqorat soʻzi sifatida qoʻllansa, ayrim hududlarda ijobiy maʼnoda ishlatiladi. Shunda ikki hudud vakilining suhbat jarayonida aynan shu tipdagi soʻzlardan foydalansa, tushunmovchilik, magʻziga yetib bora olmaslik oqibatida ikki oʻrtada nizo tugʻilishi mumkin. Shunday vaziyatlarda vulgar soʻzning lingvistik ekspertizasi muhim sanaladi. Ammo tilshunos-ekspert uchun ham vulgar, jargon soʻzlar, shuningdek, noadabiy grammatik va fonetik unsurlar indeksi zarur boʻladi. Nafaqat, indeks, balki noadabiy unsurlarning milliy korpusini yaratish katta ijobiy natijalarga xizmat

qilishi mumkin. Bu borada o‘zbek tilshunosligida hech qanday manba yaratilmagan va sud-huquq tizimi bunday yangiliklarga muhtoj.

Ma’lumki, yozma nutq insonning shaxsiy intellektual, psixologik faoliyatining natijasidir. Shuningdek, shaxsiy yozishmalar yozma nutqning bir shakli bo‘lib, unda ma’lum me’yor yoki chegara qat’iy belgilanmagan. Ular samimiylikka asoslangan, insonning erkin faoliyati bilan bog‘liq jarayon mahsulidir. Shunday ekan, shaxsiy yozishmalarda aks etadigan leksik, grammatik birliklar insonning intellektual salohiyatini, ijtimoiy mansubligini belgilovchi omillardan biridir. Zero, insonning dunyoqarashi, odob-axloqi, did-farosati yozishmalarida aks etadi.



Yuqorida biz Telegram ijtimoiy tarmog‘idagi M1, M2, M3, M4 va M5 (shartli ravishda shunday nom berildi) ning suhbat jarayonidan parcha keltirdik. Yozishmalar qo‘lyozma emas, balki bosma shaklda berilgan. Shuning uchun, dastavval, suhbat mavzusiga to‘xtalishimiz kerak, ikkinchi bosqich suhbat yo‘nalishini aniqlashimiz darkor va so‘ngida muloqot vositalarining lingvistik tahlilini olib borishimiz kerak. Mavzu nuqtayi nazaridan biz uchinchi bosqichga ko‘ra lingvistik birliklarning hududiy xosligini aniqlashni joiz deb topdik. Suhbat jarayonini, avvalo, tizimlashtirib olamiz va mualliflarning ism-familiyasi sir saqlanadi.

Birinchi rasmda M1 va M2 ning suhbat berilgan. M1 ning yozishmalarida quyidagi noadabiy unsurlar ishtirok etgan: *bogan, kinocha, qur, karochchi, maqturadiye, bo ‘midi, bizzi, qizla, hayla, takoy, kerede, og ‘ayin, chal bob, uje, qizzi, gaplashib berimi, vapshe maladies, anundagi, soriydiye, chotaa, tembole*. M2 ning javob tarzidagi yozishmasida quyidagicha so‘zlar qo‘llangan: *ashi, kinoye, jonga teyib*; ikkinchi rasmda M1 va M3 yozishmasi berilgan. M3 nutqida quyidagi so‘zlar qo‘llangan: *anuvi* (shevaga oid), *vashe, kurtoy* (parazit so‘zlarga oid), *chumo‘* (vulgar so‘zlarga oid). Uchinchi rasmda M1 va M4 suhbat berilgan. M4 ning nutqida quyidagi hududiy xususiyatga ega so‘zlar qo‘llanilgan: *qarindashim, jayingda, barbiii, ati, o ‘sho ‘l, chirayluv, jashimam, jigirma uchge, kirib qaldida, atam, menen, apam, qilaviz, deytda, estuvbii* (shevaga oid birliklar). To‘rtinchi rasmda M1 va M5 ning suhbat jarayoni berilgan. M5 ning nutqida quyidagi birliklar

ishlatilgan: *ova, garak, atishimiz, novvisini, nichik, ongsat, mavzuqu, dm qiyin, adi, novvi, yazishni, bilmin, akan, maslahat baring* (shevaga oid soʻzlar).

Maʼlumki, har bir ishtirokchi alohida leksik boylikdan foydalanishgan. Nisbatan, oʻxshash soʻzlar koʻp boʻlsa-da, biz alohida xususiyatga ega birliklarni saralab olishga harakat qilishimiz kerak. Yozishmalarda aynan bir soʻzning turlicha aytilganligini ham guvohi boʻlamiz: *anundagi(M1), ashi(M2), anuvi(M3)*. Shuningdek, 4 aʼzo bilan suhbat olib borayotgan M1 ning nutqini lingvistik tahlil qilib, qaysi hududga mansub ekanligini aniqlashni oldimizga maqsad qilib qoʻydik.

M1 ning nutqiga *bizzi, qizzi, boʻmidi, aytimi, qilimi, kerede, gapiruradi, maqturadi* singari soʻzlar alohida xususiyat kasb etyapti. Chunki bu sheva vakilining sof oʻz hududiy dialektida emas, balki boshqa lahjaning taʼsiri borligi sezilib turadi. Bu soʻzlar koʻproq Toshkent va uning atrofidagi hududlarga xos shevalarga oid. Bu ekspertizada sal mujmallikni keltirib chiqarishi mumkin. Shunda ham ekspert eng koʻp qoʻllangan va asosiy mavzuning qaysi shevaga mansubligiga qarab aniqlasa boʻladi. Masalan, M1 nutqida *soriydiye, maqturadiye* soʻzlaridan foydalanilgan. Yuqoridagi talabalardan olingan tahlilga koʻra soʻzlarga *-e, -ye* qoʻshimchalarini qoʻshib gapirish Andijon, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy hududlarida uchraydi. Shuningdek, M1 nutqida *kinocha* birligidan foydalangan. Soʻzlarga *-cha* qoʻshib gapirish usulidan Qashqadaryo, Navoiy va Buxoro hududlari vakillari foydalanar ekan. Qoʻshimchalarning bunday ifodasi yozishmalarda hududiy xoslangan birliklarni ajratib olishga ancha qoʻl keladi.

Endilikda soʻzlarning adabiy va noadabiy turlarini ajratamiz. Ayonki, M1 nutqidagi adabiy tilga doir soʻzlarni misol tariqasida olmadim, shuning uchun noadabiy unsurlarga toʻxtalish kerak. Shevaga oid soʻzlar: *qur, bogan, hayla, ogʻayin, chal bob, anundagi* kabi. Noadabiy leksik unsurlardan: *karochochi, takoy, uje, vapshe, malades, chotaa, tembole* parazit soʻzlar qoʻllanilgan. Shevaga oid *qur* soʻzini olsak, Surxondaryoning ayrim hududlarida *davra* maʼnosini anglatsa, Namanganda *marta* mazmunini ifodalaydi: *Bir qur oʻqidim*. Qashqadaryoning Kitob tumani, Samarqandning Bulungʻur tumanida, Navoiyning Xatirchi tumanlarida bu soʻz *faqat* maʼnosida ishlatiladi. Yozishma mazmunidan ayon boʻladiki, bu soʻz yozishmada leksik maʼnoga ega mustaqil soʻz sifatida qoʻllanilmayapti. Aynan *qur* soʻzi *davra* maʼnosida emas, balki yuklama mazmunida qoʻllanilgan. Bundan tashqari *hayla* soʻzi Qashqadaryo, Buxoro shevalarida *haylo* soʻzi uzoqdagi narsani koʻrsatish mazmunida ishlatiladi. Aynan *hayla* talaffuzi bilan Navoiyning Xatirchi tumanida, *heyla* yoki *hayla* shaklida Samarqandning Bulungʻur tumanida qoʻllaniladi. *Anundagi* soʻzi Namangan viloyatining Pop tumani, Navoiy va uning atroflarida *ana u joydagi* mazmunida ishlatiladi. *Ogʻayin* soʻzi Qashqadaryo, Navoiy, Buxoroda qadrdon shaxsga nisbatan aytiladi. Samarqandda bu soʻz qarindoshga nisbatan ishlatiladi.

Yuqoridagi tahlildan ayon boʻladiki, M1 Oʻzbekistonning janubiy hududlariga tegishli sheva vakilidir. Toʻgʻri, tahlil jarayonida Andijon, Namangan, Surxondaryo hududlarining oʻziga xos shevaga oid soʻzlarini uchratish mumkin, ammo *qur* soʻzi misolida bu oʻzaro farqli xarakterni keltirib chiqaradi. Zero, bu hududlarda *qur* davra (Surxondaryo), *marta* (Namangan) maʼnosida ishlatiladi. Shuningdek, *-cha* affiksini qoʻshib gapirish, *ogʻayin* soʻzining mazmuniy ifodasi, *qur* soʻzining yordamchi soʻz

turkumi, ya'ni ayiruv-chegaralov yuklamasi sifatida qo'llanilishi – bularning bari so'zlovchining Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy hududiga mansub shaxs ekanligi haqida taxminiy xulosa beradi. Bu, albatta, lingvistik ekspertizaning uchinchi bosqichi orqali yuzaga chiqyapti. Birinchi va ikkinchi tahlil natijalarini birlashtirsa, muammoga nisbatan oydinlik kiritiladi. Shunda ham 80-90 foizli taxminiy xulosa beriladi. Bunday xulosalar sud jarayonida matn avtorizatsiyasi masalasiga aniqlik kiritish uchun, albatta, zarurdir. Zotan, ko'pgina noma'lumligicha qolgan muammoli maktublar, shaxsiy yozishmalar bunday tahlilga muhtoj va bunday jinoiy dalillar yillar davomida yechimini kutmoqda. Shu orqali tilshunoslar inson manfaatlarini uchun yana bir mustahkam qadam tashlagan bo'ladilar.

Birinchi bob yuzasidan qisqa xulosalar

1. Shaxsiy yozishmalar qo'lyozma, elektron, audio va video yozishma turlariga ega bo'lib, ularning har biri lingvistik ekspertizaning o'rganish obyekti bo'la oladi.

2. Lingvistik ekspertizada shaxsiy yozishmalarning mavzuviy tilini o'rganish jo'natuvchi va qabul qiluvchining maqsadini aniqlashga yordam beradi.

3. Shaxsiy yozishmalarda nutqiy birliklarning ijobiy yoki salbiy psixik ta'sir kuchi ularning semantik-pragmatik darajasiga ko'ra belgilanadi.

4. Shaxsiy yozishmalarni tili va turini aniqlashda 3 ta bosqich taklif qilinadi:

1) semantik jihatdan bloklash;

2) suhbat yo'nalishini aniqlash;

3) nutq birliklarini lingvistik jihatdan o'rganish.

5. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy leksik unsurlarni aniqlashda nutq birliklarini semantik-pragmatik jihatdan o'rganish taklif sifatida berildi. Lingvistik ekspertizada noadabiy leksik unsurlarning indeksi muammoni har tomonlama o'rganish uchun ahamiyatli. Sud jarayonlarida ham aynan hududiy jihatdan kategoriyalashtirilgan noadabiy leksik unsurlarning lug'ati matnni lingvistik ekspertiza qilish uchun asos bo'ladi.

6. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy leksik unsurlarning hududiy xosligini aniqlashda so'zlarni semantik, pragmatik va kontekstual jihatdan o'rganish lozim. Chunki har bir so'z ma'lum hudud doirasida o'ziga xos ifoda xususiyatiga ega.

7. Shaxsiy yozishmalardagi noadabiy leksik unsurlarning ma'lum hudud doirasida qo'llanilishini aniqlash lingvistik ekspertizada gumonlanuvchi haqidagi ma'lumotlarga ancha oydinlik kiritadi. Gumonlanuvchining yashash hududini aniqlashga yordam beradi. Bu sud-huquq tizimining psixologik, tibbiy kabi boshqa ekspertiza tarmoqlarining xulosalari bilan umumlashtiriladi. Yetarli asosga ega bo'lgandagina gumonlanuvchi haqida umumiy xulosa beriladi.

IKKINCHI BOB

SHAXSIY YOZISHMALARDA NOADABIY GRAMMATIK UNSURLARNING HUDUDIIY XOSLANISHI

2.1 Shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik unsurlar tasnifi va turlari

Nutqning to'g'riligi, sofligi, tiniqligi, ravonligini ta'minlab turuvchi va unga joziba baxsh etuvchi omil adabiy me'yorlar sanaladi. Inson qanchalik til me'yorlariga amal qilgan holda gapirsa, jamiyatda shunchalik o'z o'rniga ega bo'lib boradi. Ammo har doim ham insonlar to'g'ri va ravon so'zlashmaydilar. Chunki inson faoliyatdagi, o'zining yashash muhiti, dunyoqarashiga ko'ra o'ziga xos bo'ladi. Shuningdek, bu beqarorlik uning nutqiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Og'zaki nutqdan farqli o'laroq, nutqning yozma shakli, dastlab, fikrlash, keyin qayta o'ylanib tahrirlash xarakteriga ega⁶⁵. Yozma nutq shakli uchun quyidagilar xos: grafika tizimi; imlo va punktuatsiya; adabiy me'yorlarga qat'iy rioya qilish; so'z birikmalari va frazemalarni maxsus tanlash; murakkab jumladan foydalanish; so'z tartibi; monologik shaklning alohida o'rni kabilar⁶⁶. Qayd etilgan til an'analaridan, so'z birikmalaridan, grammatik qoida va tavsiyalarga nomuvofiq yondashuv adabiy me'orning buzilishiga olib keladi. Bu esa nutq madaniyatiga ega bo'lmaslik belgisi sifatida qaraladi.

Tadqiqotchi olim S.N.Zeitlin "Nutqiy xatolar va ularning oldini olish" mavzusidagi tadqiqotida nutqiy-me'yoriy buzilishlarni quyidagicha farqlaydi:

a) so'z shakllanishi – so'zlashuv jarayonida tasodifiy, inson bilmagan holda noadabiy shakllangan so'zlarni qo'llashdan iborat;

b) morfologik – so'z tarkibining g'ayritabiiy shakllanishi va nutq qismlarini ishlatishdan iborat;

c) sintaktik – so'z birikmalarini, oddiy va murakkab jumladan noto'g'ri tuzishdan iborat;

d) leksik – noadabiy leksik unsurlar, kanselyarizm, parazit so'zlardan iborat;

e) frazeologik – frazeologik birliklarni noadabiy me'yorda qo'llashdan iborat;

g) uslubiy – so'zlashuv uslublariga rioya qilmaslikdan iborat⁶⁷.

Inson so'zlayotganda leksik qatlam qatori grammatik shakllarni qo'llashda adabiy me'yordan chetga chiqishi mumkin. Bunday noadabiy grammatik unsurlar O'zbekistonning har bir hududida alohida variantlariga ega⁶⁸. So'zlashuv jarayonida inson fikrni ixcham ifodalash, tinglovchiga tezroq yetkazish maqsadida so'zlar va birikmalarni turli variantlarda ifodalaydi. Ya'ni birliklar fonetik hodisalarga


⁶⁵ Белова А.В. Лингвопрагматическая характеристика обратимой эпистолярной коммуникации: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005.

⁶⁶ Lewandowski T. Linguistisches Wörterbuch (in 3 Bänden). [Текст] / Th. Lewandowski // 6.Auflage. Heidelberg-Wiesbaden: Quelle&Meyer, 1994.

⁶⁷ Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителей. – Москва: Просвещение, 1982, – 21 с.

⁶⁸ Sheraliyev Sh.E. O'zbek tili sharqiy Xo'jand shevalarining grammatik kategoriyalari: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2001. – 148 b.

uchraydi va bu jarayon, albatta, shaxsiy yozishmalarning barcha turida, shuningdek, maktub va elektron xabar turlarida uchrashi mumkin.



Ushbu yozishmada noadabiy soʻzlar quyidagilar: *diszmi, ozi, xama, ovosiz, omagan, nimeyiz, qorqmen, berin, qliyla, bosiy la, disla, bita, kelip, bosasla*.

Noadabiy unsurlarni yuzaga keltiruvchi xatolarni farqlaganda, avvalo, uni kategoriyalarga ajratish kerak, yaʼni texnik xato, grammatik xato, leksik xato, sintaktik xato, imloviy xato, uslubiy xato, punktuatsion xato kabilar⁶⁹. Muammoli yozishmalarda xabar beruvchi tomonidan oʻzi anglamagan holda matndan qaysidir tovushning tushirilib qoldirilishi, oʻ, gʻ harflarining maxsus belgilarini ifodalamasligi kabi texnik kamchiliklari yuzaga kelishi mumkin. Bunda xabar beruvchi texnik xatolarga unchalik ahamiyat bermaydi va bu odatiy holga aylanib qoladi. Grammatik xatoliklarda esa xabar beruvchining hududiga xos xususiyatlari namoyon boʻlishi mumkin. Masalan, kelishiklar, egaliklar va zamon shakllarining aralash tarzda ifodalanishi grammatik xatoliklar sirasiga kiradi. Bu yozishma muallifining hududiy xususiyatlarini aniqlashda qoʻl keladi. Yoki grammatik shakllar maxsus belgilar asosida ifodalanishi mumkin: *-dan* qoʻshimchasi “^” shaklida. Shunday belgilar xabar beruvchining hududiy mansublik darajasini emas, balki individual xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ammo yuqoridagilar grammatik xatoliklar sirasiga kiradi.

Leksik xatoliklar bevosita noadabiy unsurlar: vulgar, jargon va shevaga oid birliklar bilan ifodalanishi mumkin. Bunda adabiy meʼyorlardan chekingan soʻzlar hisobga olinadi va yozishma muallifining leksikonini oʻrganish, individual va hududiy xususiyatlarini farqlashni osonlashtiradi. Imloviy xatoliklar esa soʻzlarning bosh harf emas, kichik harflar bilan ifodalanishi, oʻxshash harflarni farqlamasdan yozish orqali yuzaga keladi. Har bir tahlilbop matn oʻrganilar ekan, shunday xato turlarini tasniflash muammoga yanada aniqlik kiritadi. Masalan:

2.1.1-jadval


| Texnik xato | Grammatik xato | Leksik xato | Imloviy xato |
|---------------------|----------------------|--------------------|----------------------|
| Ozi (oʻzi) | Ovosiz (olyapsiz) | Dszmi (deysizmi) | Xama (hamma) |
| Min (ming) | Kelip (kelib) | Omagan (olmagan) | Tuzu joy (tuz-u joy) |
| Qorqmen (qoʻrqmang) | Nimeyiz (nimangiz) | Qliyla (qilinglar) | Bita (bitta) |
| Berin (bering) | Bosasla (bosasizlar) | Disla (deysizlar) | |
| | Bosiy la (bosinglar) | | |

Tasnifdan ayon boʻladiki, *nimeyiz* soʻzida *-yiz* shakli II shaxs koʻplikdagi egalik shakli sanaladi. Bu shakl shaxsiy yozishmalarda *-iz* tarzida ham qoʻllaniladi. *Kelip* soʻzida *-ib* ravishdosh shakli jarangsizlanish hodisasiga uchrab, *-ip* tarzida yozuvda aks etgan. *Bosasla, bosiy la* soʻzlarida II shaxs birlik va koʻplik buyruq-istak maylining noadabiy qoʻllanishi berilgan. *Bosasla* soʻzida tovush tushish hodisasi yuz bersa, *bosiy la* soʻzida *-ing* shakli *-iy* tarzida berilib tovush almashinishi

⁶⁹ Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages, 2019. – 2 p.

va *-lar* shakli *-la* tarzida ifodalanib tovush tushishi jarayonlari mavjud. II shaxs buyruq-istak maylini hosil qiluvchi noadabiy grammatik shakllar: *-ing*, *-ingiz*, *-inguz*, *-iz*; *-g*, *-ngiz*, *-n+g* 'iz tarzida ifodalanadi. Agar bu shakllar ko'plik mazmunini ifoda etmoqchi bo'lsa, *-ingizlar*, *-ngizlar* tarzida *-lar* shaklini qo'shish bilan hosil bo'ladi⁷⁰.

Shuningdek, shaxsiy yozishmalarda, ko'pincha, texnik xatolar ham uchraydi. Bu yozuvchining o'zini anglamagan holda sodir bo'ladi. Texnik xatolar noma'lum xabarda muallifni aniqlash uchun kam miqdorda ahamiyatlidir⁷¹. Shuning uchun ham texnik xatolarni tahlilga tortmay, shunchaki kodlashtirib dalil korpusiga kiritisa bo'ladi⁷². Bu kam miqdorda bo'lsa ham, yozishma muallifini aniqlashda qo'l kelishi mumkin.



Yuqoridagi Instagram ijtimoiy tarmog'idagi yozishmada *korb*, *yiglavordim*, *tuzalb*, *bolla*, *bosin*, *uzo*, *yursinla* kabi so'zlarda fonetik jarayonlar kuzatiladi. Olima V.Milomning ta'kidlashicha, nutqdagi adabiy me'yorga zid shakllarni aniqlash uchun, dastlab, har bir so'zning ma'nosi kontekstual tahlil qilish, keyin esa har bir so'z matndan ajratib olingan holda, turli lingvistik jihatlarini nazarga tutgan holda tahlil qilinishi kerak⁷³. Yozishmada *bolla*, *yursinla* so'zlari adabiy me'yoriga ko'ra *bolalar*, *yursinlar* bo'lib, *-lar* otning son kategoriyasini tarkibiy qismi *-la* tarzida qo'llangan. Qo'shimcha oxirida *r* harfi tushib qolgan va bu talaffuz va yozuvda birdek aks etyapti. Bu shakl har bir hududda o'ziga xos talaffuzi va noadabiy yozilish xususiyatiga ega: *-la*, *-nar*, *-na*, *-tar*, *-dar* kabi⁷⁴. Bu ko'plik kategoriyasi *-le* tarzida Toshkent shahar va Xorazm shevalarida faol qo'llaniladi: *uyle* (*uylar*), *qoyiyle* (*qo'yinglar*), *gulle* (*gullar*), *gunle* (*kunlar*). Shuningdek, Xorazmning ayrim hudud shevalarida *-la* tarzida ham uchraydi: *qizla* (*qizlar*), *ula* (*ular*). Bu shakl *-na* tarzida Namangan shevasida qayd etiladi: *uyina* (*uyinglar*), *qoyiyna* (*qo'yinglar*). Bundan tashqari, shahar va shahar tipiga oid shevalarda *-a*, *-ar* tarzida uchraydi: *biza* (*bizlar*), *bizar* (*bizlar*). Bundan tashqari, *-lar* ko'plik shakli uslubiy vazifada, ya'ni hurmat mazmunini ham ifoda etishi mumkin. Masalan, Toshkent va uning atrofidagi hududiy shevalarda *-lug* tarzida ifodalanib, ko'plik mazmuni emas, balki hurmat tushunchasini anglatadi: *o'zligi* (*o'zlari*), *uylugi* (*uylari*). Qolgan barcha hududlarda *-lar* ko'plik shakli hurmat mazmunida deyarli o'zgarishsiz talaffuz etiladi.

Kelishik kategoriyasi gapda so'zlarning grammatik bog'lanishini ta'minlab beradi, shuningdek, bu shakllar so'zlarning gapdagi vazifasini ham belgilashga

⁷⁰ O'sha asar

⁷¹ Shuy R. DARE's Role in Linguistic Profiling. Dictionary of American Regional English, 2001. – p. 4.

⁷² Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages. 2019. – 53 p.

⁷³ Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages. – USA, 2019. – 45 p.

⁷⁴ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013. – b 21.

xizmat qiladi. Bu xususiyat o‘zbek adabiy tili va shevalari uchun ham birdek umumiy xarakter kasb etadi. O‘zbek tilida oltita kelishik va beshta grammatik ko‘rsatkich bor. Bosh kelishik qo‘shimchasi mavjud emas. O‘zbek tili shevalarida kelishik kategoriyasining soni va shaklida tafovut bo‘lib, bu shakllar turli lahja va hududlarga ko‘ra xoslangandir. Bu quyidagi shaxsiy yozishma misolida beriladi:



Ummiy Ummun

Bitta ozbek awullasini qoyip yurtimizni bowinda kotaradigan bosen oia mamfakat bomiy doq qiliwini wuncha musulmonlar chi ayollarni siltalawinchi sani yurtinda bizani halq artistlarimizni hizmat korsatgan artistlarimizni awulasi yangramasa yangramas bu bn Yurtimiz sinmiydi Yurdbowimiz omon bosala halqimiz in shaa Allah buyogigayam tinchlikda yawiydi Alloh lanati bosin sandaka yahudiylaga bergan nonin tuzini minnat qiladigan

144. Нравится. Ответить.

Elektron xabar shaklidagi yozishmadagi *yurtimizni*, *siltashinchi*, *nonin* kabi so‘zlarda *-ni* tushum kelishigi *-zi* shaklida uchraydi. Bu *-miz* egalik shaklining sirg‘aluvchi undosh bilan tugagan va *n* portlovchi undoshni o‘ziga moslashtiryapti. Chunki nutq faoliyati paytida *-miz+ni* shaklida aytish biroz noqulaylikni yuzaga keltiradi va *-ni* shakli *-zi* shaklida assimilyatsiya hodisasi natijasida talaffuz etiladi. Ayonki, so‘zlovchi talaffuziga ko‘ra birliklarni ayni o‘zidek yozuvda ham aks ettiryapti. Matndagi *siltashinchi* so‘zi adabiy me‘yorga ko‘ra *siltashini-chi* tarzida bo‘lishi kerak. Ammo bu o‘rinda noadabiy me‘yor emas, balki *-ni* tushum kelishigining qisqargan shaklda qo‘llanilishi kuzatiladi. Shuningdek, *nonin* so‘zida ham *-n* tarzida qaratqich kelishigining qisqargan shakli ifodalanyapti. Adabiy me‘yorga ko‘ra *nonining* tarzida ifodalanishi kerak. Tushum va qaratqich kelishigining qisqarish hodisalari noadabiy me‘yor sanalmaydi, ammo matn muallifi va uning yashash hududini aniqlashga katta yordam beradi. Tushum kelishigi ayrim hududlarda *-di*, *-ti* tarzida ham ifodalanadi: *qushti*, *qizdi* (*Andijon*), *itti qoppas*, *otti teppas dib bo‘maydi* (*Qarshi*), *tog‘di o‘t bosiptu* (*Urgut*) kabi. Tushum kelishigida assimilyatsiya hodisasi yuz bergan holda *-zi*, *-mi*, *-li*, *-shi*, *-pi*, *-chi* shakllarida qo‘llaniladi: *kitoppi ber*, *uyizsi sotasmi?*⁷⁵. Asosan, bu tushum kelishigining assimilyatsiya hodisasi natijasida yuz beradi. Ushbu yozishmada ham tushum kelishigi *-mi* shaklida qo‘llangan: *borimmi*, *jonimmi*. Bunda assimilyatsiyaning progressiv hodisasi yuz bergan bo‘lib, *n* til oldi tovushi *m* lab tovushiga moslashyapti:




...й дэб жонимми боримми бэриб булса хам оиламдан узоклашмай дэп бир иш бошлаш максадида махалламизда буш каровсиз ётган ерни сурадим бэрмади хокимиятка бордим

Ayrim hududlarda ham qaratqich kelishigi o‘rnida tushum kelishigi ishlatiladi, ammo *-di*, *-mi*, *-i* shaklida ifodalanadi: *uydi poli*, *ayamdi sumkalari* (*Farg‘ona vil.*

⁷⁵ O‘sha asar. – 149 b.

Uchko‘prik tum.), *kitobdi varag‘i, uyimdi tomi, xolammi uyi, do‘stimmi xati (Qashqadaryo), derazani oynasi, maktabdi xonasi (Samarqand vil. Bulung‘ur tum.), sabrri mevasi, maytappi oshxonasi (Toshkent shahar), daraxtti bargi, moshinni oynasi (Navoiy vil. Xatirchi tum.)* kabi. Qaratqich va tushum kelishiklarining o‘rin almashgan holda qo‘llanilishi o‘g‘uz lahjasida ham qisman mavjud. Ayrim hollardagina farqlanishi kuzatiladi. Bu qisman qipchoq lahjasida ham kuzatilishi mumkin. Bu lahjaga oid ayrim hudud shevalari uchun xos.

Chiqish kelishigi qo‘shimchasi o‘zak va negizlarga qo‘shilib kelish jihatidan adabiy me‘yordan farq qilmaydi. Ammo so‘zning jarangli va jarangsiz undosh tovush bilan tugashiga ko‘ra *-tən, -lən* tarzida qo‘llaniladi: *ottən baland (Buxoro); gəptən qolmaydi (Andijon); maktaptan kel (Samarqand); oshattan opkelmedi (Marg‘ilon); toshtən qattiq (Urgut)* kabi. Quyidagi yozishmada ham bu aks etgan:



Shaxsiy yozishmada *ishtan* so‘zi, asli o‘zakning *sh* jarangsiz undoshi bilan tugaganligi sababli ham o‘zidan keyingi *-dan* kelishigidagi *d* jarangli undoshni o‘ziga moslashtiryapti. Bu ham assimilyatsiya fonetik hodisasining mahsulidir. Bundan tashqari, chiqish kelishigi turli fonetik hodisalarga uchrab, *-nan, -nəy, -nən, -lən, -dəm, -təm* kabi shakllarda ham aks etadi: *oshtem bir oshəm oldım (Andijon); gullən dasta qildim (Urgut); onamnan ollim, magazinnan kelli (Buxoro); nonnan ol (Navoiy)* kabi. Bu shakllar qarluq lahjasiga oid bo‘lib, shevashunos olimlarning ma‘lumotiga ko‘ra, sonor (*m, n, ng*) tovushlaridan va egalik shakllaridan so‘ng *-nan* shaklida qo‘llaniladi. Qipchoq va o‘g‘uz lahjasida esa chiqish kelishigining ifodalanishida o‘zak va negizlarning qattiq yoki yumshoqligi asosiy o‘rinda turadi. Ushbu kelishik shakli turli variantlarda ifodalansa ham, harakatning boshlanish payti, o‘rni, sababi, biror joy va narsaning uzoqlashishini o‘zida ifodalab keladi.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, noadabiy grammatik shakllarning yuzaga kelish sabablari talaffuz jarayonidagi fonetik hodisalarga bog‘liq. Nutq jarayonida yuzaga kelgan fonetik hodisaga uchragan grammatik shakllar talaffuz bilan bir qatorda shaxsiy yozishmalarda ham aks etadi. Bunda, asosan, tovush almashinishining assimilyatsiya turi salmoqli o‘rinni egallaydi. Bu kelishik, egalik, fe‘lning ravishdosh shakli kabilarda yuzaga kelyapti. Chunki bu hodisa o‘zak va qo‘shimchaning talaffuzi qulayligini ta‘minlaydi. Tovush tushishi jarayoni ko‘plik shakli, kelishik shakllari, buyruq-istak mayli kabi shakllarda sodir bo‘lyapti.

Shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning lingvistik tahlili. Har bir insonning nutqi ichki olamining oynasi hisoblanadi. Ammo nutqiy faoliyat uchun tashqi ta’sirlarning o‘rni ham nihoyatda katta. Hudud, ijtimoiy mansublik, hatto iqlimning ham o‘rni bo‘lak. Hammasining mushtarakligi natijasi o‘laroq, tilimizda noadabiy unsurlar yuzaga keladi. Bu filologiya sohasida o‘zbek tilidagi leksik va

grammatik qatlamning boyishi uchun xizmat qilsa, sud-huquq tizimida ayrim jinoyatchining individual portretini yaratishda zamin vazifasini bajaradi. Zero, inson nutqi, xatti-harakati orqali atrofidagi boshqa insonlarga ma’lum bir tasavvur uyg‘otadi. Shuningdek, pirovardida inson omili yotgan amaliy tilshunoslik va sud ekspertiza jarayoni uchun bu jamiyat a’zosining hayot-mamot masalasini hal qilishi mumkin.

Amerikalik olim V.L.Milom sakkizta til misolida milliy tilni aniqlash haqida tadqiqot olib borgan. Unda yozishmalardagi lingvistik belgilar ajratilgan, o‘zaro qiyoslangan va o‘ziga xos jihatlari farqlangan. Bu o‘zga tilli shaxslarning jinoiy ishlarini fosh qilishga ancha yordam beradi. Olima V.L.Milomning tahliliga suyangan holda o‘zbek tilidagi to‘rtta hududga xos shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik unsurlar aniqlandi⁷⁶. Bunda 4-5 ta gapdan iborat SMS yozishma misol tariqasida olindi, hududiy jihatdan farqlandi va yozishmalardagi noadabiy grammatik kategoriyalar tasniflandi. Ma’lumotlar miqdori, sifati deyarli bir xil tarzda ifodalandi. Tahlil quyidagi jadvalda aks etadi:

2.1.2-jadval

| Shaxsiy yozishmalarga asoslangan misollar | Noadabiy grammatik shakllar | So‘z yasovchi | Sintaktik shakl yasovchi sh. | Lug‘aviy shakl yasovchi sh. | Hududiy mansubligi |
|---|--|---------------|------------------------------|-----------------------------|--------------------|
| 1 -Assalomu alekum, apa yaxshimisiz, bachalar iz yaxshimi? -Ha, zo‘rman. Yaznam qanday yaxshim ila , nim ala qilopsiz la ? -O‘zlaring nima qilops ila ? -Manam shu. Kuyov iz ketgan la Samarqandga. Man bachala bilan uygaman. Biza tomon laga qachon kelasiz bir aylanib. | -iz (-ngiz egalik sh.), -la (-lar hurmat ma’nosidagi sh.), -op (-yap hozirgi zamon sh.), -a (-lar ko‘plik sh.), -la (umumlashtirish ma’nosidagi sh.), -siz (-siz shaxs-son sh.) | - | 3 | 3 | Navoiy |
| 2 Unda rosa topish iptida -a? - Nima bo‘sayam o‘zimiz i qishlag‘imiz i to‘ylari boshqachaya. Mazza qivorasan. - Madini kuzat yatkan da ayasi yomon yig‘lavordiya, o‘zimi zo ‘rg‘a tut tim . | -ip (-ib ravishdosh sh.), -i (-ni kelishik sh.), -yatkan (-yotgan sifatdosh sh.), -ti (-di zamon sh.), -ta (-dan kelishik sh.) | - | 3 | 2 | Andijon |

⁷⁶ Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages. 2019. – 48 p.

| | | | | | |
|--|---|---|----|---|----------|
| Haqqat <u>ta</u> tan olish kere. | | | | | |
| 3 Qiz <u>la</u> iftor <u>liga</u> sinf <u>doshla</u> yig`ilish <u>votgan</u> akan. Qatgadir bor <u>li</u> uchchalamiz. Bilmadim, mani rasa borgim ke <u>votti</u> . Kell <u>arine</u> ... Uje hamma o`zgar <u>ip</u> ketgan <u>de</u> o`rto. Hilolapam <u>mi</u> opke. | <i>-la</i> (-lar ko`plik sh.), <i>-votgan</i> (-yotgan sifatdosh sh.), <i>-ili</i> (-aylik mayl sh.), <i>-votti</i> (-yapti zamon sh.), <i>-ip</i> (-ib ravishdosh sh.), <i>-in</i> (-ing shaxs-son sh.), <i>-de</i> (-da yuklama sh.), <i>-mi</i> (-ni kelishik sh.) | - | 4 | 4 | Toshkent |
| 4 Bir gun o`rmondo getib adik, yo`limiz <u>don</u> biryoni yenchilib getgan arik qoqil <u>ori</u> chiqdi. Og`om bilan indam <u>ine</u> yo`limiz <u>do</u> dovom atavardik. Uya oppor <u>gonimizdo</u> hazzatib murobbo attirib yir adik dab o`y <u>lodik</u> . | <i>-don</i> (-dan kelishik sh.), <i>-lori</i> (-lari egalik sh.), <i>-mine</i> (-mayin bo`lishsizlik sh.), <i>-do</i> (-da kelishik sh.), <i>-lo</i> (-la fe`l yasovchi sh.) | 1 | 3 | 1 | Xorazm |
| Jami | | 1 | 13 | 9 | |

Tahlil natijasiga ko`ra, O`zbekistonning to`rtta hududi bo`ylab shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik unsurlarning 56 foizi sintaktik shakl yasovchi qo`shimchalarda, 39 foizi lug`aviy shakl yasovchi qo`shimchalarda va 4 foizi so`z yasovchi qo`shimchalar doirasida yuz bergan.

Tilshunos-ekspert tomonidan har bir shaxsiy yozishma o`rganilar ekan, noadabiy grammatik shakllarning soni va kategorial mansubligi muhim ahamiyatga ega. Bu psixolingvistika sohasi bilan ham bog`liq va shaxsiy yozishmalarning morfologik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, matn muallifining nutqiy o`ziga xosligini o`rganish va shu orqali uning yashash hududini aniqlashga katta xizmat qiladi. Psixolingvistika sohasida harakatning predmetlashganligi koeffitsienti metodi mavjud bo`lib, unda shaxs nutqida so`z turkumlarining qo`llanilish darajasiga ko`ra shaxs xarakter-xususiyati tahlil qilinadi⁷⁷. Tahlil natijasiga ko`ra, o`z nutqida, asosan, "ot" turkumiga mansub so`zlardan foydalangan holda tuzishga intilayotgan odam o`zi so`z yuritayotgan obyekt to`g`risida aniq bir fikrni, ushbu obyekt funksiyalarini, ya`ni uning o`zi aslida

⁷⁷ To`rayeva D.A. Nutqda shaxs ruhiy holatining namoyon bo`lishi: Mag. ...diss. – Toshkent, 2017. – 52 b.

nimaligini, u qanday vazifa bajarishi mumkinligini anglay olmagan odam nutqidir. Fe'l va sifat so'z turkumidagi so'zlardan yetarlicha foydalangan inson, nisbatan, harakat-xususiyati aniq bo'lgan shaxslardir. Shuningdek, ot va fe'lga xos noadabiy grammatik kategoriyalarning ifodasi ham shaxsning harakati xususiyatini aniqlashga yordam beradi.

Buni sifat va miqdor deb atash mumkin. Bu usul shaxsiy yozishmalarni lingvistik tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Anonim xat muallifini aniqlash uchun gumonlanuvchilarning har biridan kamida o'ntadan yozishma namunasi olinadi. Shu to'plangan matnning tashkil etuvchi birliklari kategoriyalashtiriladi. Bunda har bir kategoriyaga oid birlikning soni, turi, me'yoriy ifodalanishi kabi xususiyatlari tahlil qilinadi. Shu asosda anonim xat muallifining nutqiy o'ziga xos tomonlarini farqlash mumkin. Demak, yuqoridagi tahlilda Xorazmda noadabiy grammatik shakllar kam uchraydi. Bu hudud shevalarida noadabiy leksik unsurlar ko'pchilikni tashkil etishi mumkin (bu keyingi hududiy tahlil misolida beriladi). Toshkent va uning atrofidagi hududlarda esa noadabiy leksik unsurlar sakkiztani tashkil etadi. Navoiy va Andijon hududlarida bu shakllar o'rta me'yorda qo'llaniladi. Tahlil xulosasiga ko'ra, nisbatan Toshkent va uning atrofida noadabiy grammatik shakllar shaxsiy yozishmalarda faol qo'llaniladi. Xorazm va uning atrofida esa noadabiy grammatik shakllar, nisbatan, kam ishlatiladi. Ushbu tahlil gumonlanuvchi shaxsning noadabiy grammatik shakllarining miqdori va sifatini alohida korpus sifatida shakllantirish uchun asos vazifasini bajaradi. Bu tahlil asosida noma'lum shaxsning yozma nutqiga xos xususiyatlarini aniqlash va uning umumiy portretini gavdalantirish mumkin. Bu keyinchalik istiqbolli natijalarga sabab bo'ladi.

2.2. Shaxsiy yozishmalardagi noadabiy lug'aviy shakllarning hududiy xoslanishi

Noadabiy lug'aviy shakllarning hududiy ifodasini aniqlash mezonlari. Tilshunoslikda leksik, fonetik, grammatik, sintaktik birliklarning hududiy xoslanishi masalasi bilan dialektologiya fanining areal lingvistika sohasi shug'ullanadi. Areologiyaning maxsus tadqiq usullaridan biri lisoniy-jug'rofiy metodi bo'lib, bu A.Jo'rayev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov, N.Murodova, I.Darveshov kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan⁷⁸. Ushbu metodga ko'ra, nutqda aks etadigan birliklarning adabiy tildan chetga chiqish holatlari ilmiy-amaliy tahlil qilinadi. Areologiya, huquq va tilshunoslik sohalarining integratsiyalashuvi natijasida sud-huquq tizimida qator muammoli vaziyatlarga yechim topish mumkin.

⁷⁸ Джурраев А. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент, 1991. – С. 218.; Мухаммеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дисс...д-ра филол. наук. – Ташкент, 1988. – С. 44.; Иброҳимов Й. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2000. – В. 366.; Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини. – Тошкент, 2006. – В. 309.; Дарवेशов И. Жануби-ғарбий Наманган шевалари фонетик-фонологик хусусиятларининг ареал тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – В. 54.; Sheraliyev Sh.E. O'zbek tili sharqiy Xo'jand shevalarining grammatik kategoriyalari: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 200., – В. 148.

Bunda anonim yozishmalar muallifini hududiy nuqtayi nazaridan aniqlash imkonini beruvchi metodlar shakllandi.

Lingvistik ekspertiza AQShda har tomonlama taraqqiy etgan. Anonim xatlar muallifini hududiy xususiyatiga ko‘ra aniqlash masalasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ularda institut talabalaridan tezkor insho olingan va matndagi xatolarni hududlar bo‘yicha tipiklashtirib maxsus korpus yaratilgan⁷⁹. Bu sud lingvistik ekspertiza sohasidagi muammoli masalalarning yechimiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, anonim xat muallifini aniqlash uchun umumiy va xususiy korpus zarur. Avvalo, yozishmadagi noadabiy unsurlar guruhlanadi va kodlashtirilib noma‘lum muallifning nutqiy xatolari asosida korpus yaratiladi. So‘ng butun respublika bo‘ylab hududlararo noadabiy unsurlar tipiklashtirilgan korpusi asosida anonim yozishma individual korpusi bilan o‘zaro qiyoslanadi. Shundan keyingina taxminiy xulosaga kelinadi.

Shuningdek, amerikalik olim V.Milom o‘zining tadqiqotida 10 ta til misolida har bir til egasi ingliz tilini qay darajada qo‘llay olishini lingvistik tahlil qilgan. Bunda o‘zaro bir oilaga mansub tillarni misol tariqasida olgan. Til egalarining ingliz tilida gapirish davomidagi nutqiy o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlagan. Ushbu nutqiy xatoliklarni kodlashtirib korpus yaratgan. U har bir tilning 12 ta xususiyatini ajratgan. Ikki til o‘rtasidagi ma‘lumotni yetkaza bilish katalogini tashkil etgan va ramzlar katalogi tuzib shu orqali muallifni aniqlashning qator usullarini taklif etgan. Tadqiqotchi V.Milom sifat va miqdor usulidan foydalangan va bunda ko‘proq sifatga, mazmun nisbiyligiga urg‘u bergan. Uning fikricha, miqdor unchalik ham ahamiyatli emas. Olimaning ushbu tadqiqotidan maqsad noma‘lum muallifning ijtimoiy kelib chiqishini aniqlashdir. Shunda ispan, nemis, arab va fransuzlar kabi til egalari ingliz tilida qay darajada gaplashishlari va bunda qanday xatolarga yo‘l qo‘yishlarini aniqlagan. Buning uchun quyidagi xatolarni ajratish usulidan foydalangan:

⁷⁹ Perkins R. Linguistic Identifiers of L1 Persian speakers writing in English. NLID for Authorship Analysis. Unpublished doctoral dissertation. Aston University, Birmingham, U.K, 2012.; MacDonald P. “We All Make Mistakes!”. Analysing an Error-coded Corpus of Spanish University Students’ Written English, in *Complutense Journal of English Studies*, № 24, 2016. – pp. 103-129.; Koppel M., Schler J., & Zigdon K. Determining an author’s native language by mining a text for errors. In *Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining - KDD ’05*. 2005. – 624-628 pp. – New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947; Malmasi S. and Dras M. Multilingual native language identification. *Natural Language Engineering*, 23(2), 2015. – 163-215 pp. doi:10.1017/S1351324915000406; Malmasi S., Tetreault J., & Dras M. Oracle and Human Baselines for Native Language Identification. *Proceedings of the Tenth Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications*, 2015. – 172-178 pp. doi:10.3115/v1/w15-0620; Shatz I. Native Language Influence During Second Language Acquisition: A LargeScale Learner Corpus Analysis. *Proceedings of the Pacific Second Language Research Forum*, 2016. – 175-180 pp.



Yuqoridagi klassifikatsiya anonim yozishmaning mukammal lingvistik tahlili uchun asos vazifasini bajaradi. Avvalo, anonim yozishmaning tarkibiy til birliklari jadvaldagidek guruhlanadi, har bir noadabiy unsur kodlanib, soʻng maxsus korpus yaratiladi.

Shuningdek, xat muallifining xatoliklari, odatda, ularning qanday tilda ekanligiga qarab klassifikatsiya qilinadi. Masalan, soʻz tanlashdagi xatolik, jargon soʻzlardan foydalanish, soʻzni ortiqcha koʻp qoʻllash, soʻzni noadabiy unsur sifatida qoʻllash kabilarga tayanib sinflarga ajratiladi⁸⁰. Shunga koʻra, ushbu olimlar nutqiy xatoliklarni 8 ta guruhga boʻladi:

1. Tartibi.
2. Tanlovi.
3. Munosabati.
4. Ifodalanishi.
5. Miqdori.
6. Taʼsiri.
7. Rozilik alomati.
8. Egalik.

⁸⁰ Kochmar E. Identification of a writer's native language by error analysis. (Master's thesis). University of Cambridge, UK, 2011.; Light R., Warshawsky D. Preliminary Error Analysis: Russians Using English. Unpublished. 1974.; Malmasi S., Dras M. Arabic Native Language Identification. In Proceedings of the EMNLP 2014. Workshop on Arabic Natural Language Processing (ANLP). Association for Computational Linguistics. – Qatar, 2014. – 180-186 p.; Murad T. M., Khalil M. H. Analysis of Errors in English Writings Committed by Arab First-year College Students of EFL in Israel. In Journal of Language Teaching and Research, 6(3), 2015. – 475-481 p.

Bunda, avvalo, yozishma tashqi tomondan tahlil qilinadi. Ushbu fakt haqiqatan ham gumonlanuvchiga tegishlimi yoki birov tomonidan yozdirilganmi, ushbu maktubda da'vat, murojaat kabi psixologik ta'sirlar aks etganmi yoki yo'qmi, yozuvchining yozayotgan fikriga munosabati kabi tomonlari tahlil qilinadi. So'ng yozishmadagi birliklarning to'g'ri yoki noto'g'ri tanlanganligi, miqdori, ifoda xususiyati kabilar sinchikovlik bilan o'rganiladi.

O'zbekiston hududi bo'ylab 12 ta viloyatga oid sheva mavjud va bu o'z navbatida, tarkibiy shevalarga ham bo'linadi. Sheva vakillarining nutqi bir hudud doirasida ham farqlanishi mumkin. Shuning uchun ham tilshunoslikda gapdan tortib tovushgacha lingvistik jihatdan qilingan tahlil matnshunoslik, psixologiya kabi sohalar qatori huquq tizimiga ham birdek aloqador. O'zbek tilshunosligida so'zlarning qo'shimcha ma'no va mazmun ifoda etishida lug'aviy shakllarning o'rni va ahamiyati katta. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar, garchi asosga yangi ma'no kasb etmasa ham, ular so'z va gaplarga qo'shimcha modal ma'no berib turadi. Masalan, *o'qidingmi? Sen-a!* (-mi va -a so'roq taajjub mazmuni), *qizg'ish, kattaroq (belgining miqdori), yuztacha, minglab (narsa-predmetning son-sanog'i), bolalar, uydagi (ko'plik va o'rin-joy ma'nosi)*ni ifodalaydi. Leksemalararo adabiy me'yordan chekinish jarayoni bo'lgani singari grammatik shakllarda ham noadabiy unsurlar mavjud. Bu, asosan, chegaralangan leksemalarga xos bo'lib, ular o'zaro o'xshash va farqli jihatlariga ega. Uning lingvistik tahlili sud-huquq tizimi uchun juda zarur. Morfologik jihatdan ot, sifat, son, ravish, fe'l o'ziga xos noadabiy lug'aviy unsurlarga ega. Yordamchi so'z turkumlaridan esa faqat affiks yuklamalargina lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar sirasiga kiradi. Anonim shaxsiy yozishmalarning butun va qism tarzidagi lingvistik tahlilida matnning umumiy mazmunidan tortib, tinish belgisigacha inobatga olinadi. Zero, har bir kichik element ham dalil vazifasini bajarishi mumkin. Keyingi qismda hududlararo noadabiy lug'aviy shakllarning lingvistik tahlili berilgan.

O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy lug'aviy shakllarning lingvistik tahlili. Har bir hududiy sheva o'zining morfologik, semantik, sintaktik jihatdan o'ziga xos xususiyatlariga ega⁸¹. Mustaqil so'z turkumlaridan ot tarkibida yettita lug'aviy shakl bo'lib, yuqoridagi bobda otning son kategoriyasi va uning noadabiy shaklda qo'llanishi haqida fikr-mulohaza yuritilgan. Otning kichraytirish-erkalash shakli *-cha, -choq, -loq, -chiq, -ka* qo'shimchalari hisoblanadi. Deyarli, barcha hudud shevalarida *-cha* shakli adabiy me'yorga ko'ra qo'llaniladi. Buxoro, Navoiy hududlarida *-cha* shakli kichraytirish mazmunini saqlamagan holda barcha narsa-predmet va shaxsga qo'shib aytish odat tusiga kirgan: *o'g'ilcham, ko'ylakcha, mushukcha*. Bu hududlarning ayrim tumanlarida ham *-chig', -chog', -log'* tarzida ifodalanadi. Namangan viloyatida *-cho, -chov, -log', -chig'* shakllarida ifodalanadi: *qo'zicho, toychov, qopchig', bo'talog'*. Andijon, Toshkent kabi hududlarda bu shakllar adabiy me'yorga yaqin talaffuz etiladi. Bundan tashqari ot so'z turkumidagi *-dek, -day* o'xshatish shakllari Qashqadaryo hududida *-tek, -de*, Namangan viloyatida *-dey, -da(y)*, Xorazmning Gurlan tumanida *-doy* tarzida qo'llaniladi:

⁸¹ Нурмонов А., Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – Б. 94.; Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 234;

oytek, gultek, aqllide, oydey, gulda(y), oydoy. Qolgan hududlarda deyarli farq sezilmaydi.

Tahlil obyekti sifatida urf-odati, an'analari, yashash muhiti va shevasiga ko'ra bir-biriga yaqin uchta hudud asos qilib olindi: Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo. Noadabiy lug'aviy shakllarning lingvistik tahlili uchun Navoiy va Qashqadaryo viloyatlari asos qilib olindi, qolgan viloyatlarning tahlili ilovada taqdim etildi. Noadabiy sintaktik shakllar va fonetik hodisalar tahlili qolgan hududlar misolida taqdim etildi. Ushbu hududlarda yashovchi o'rta ma'lumotli shaxslardan 5 ta mavzuda 170 so'z atrofida insho yozdirib olindi. Ushbu jarayonda sheva egalariga mavzu berilib, erkin ijod qilish topshirildi. Bunda tashqi ta'sirlar, ko'chirmachilik kabi holatlar qat'iy man etildi. Tahlil tadqiqotchi V.Milomning 10 ta til egalarining nutqini o'rganish va milliy til egasini aniqlash metodi asosida olib borildi⁸². Bunda noadabiy unsurlar va belgilar katalogi tuziladi. Bu O'zbekistonning har bir viloyatida, shuningdek, viloyat tarkibidagi shevalar asosida ham katalog tashkil etilsa, anonim xatdagi xatoliklarni korpus qidiruviga berish asosida muallifni aniqlashga katta imkon beradi. Shuningdek, politexnika instituti olimi P. Makdonald ham ispan tili misolida xatolar katalogini yaratgan. Korpusda kodlangan xatolarning eng ko'p uchraydigan turlariga grammatik xatolar kirib va bunda o'quvchilarning lingvistik salohiyati ancha past degan xulosaga kelgan⁸³. Anonim shaxsiy yozishmalarda noadabiy lug'aviy unsurlar tahlili Navoiy viloyati Xatirchi tumani misolida beriladi:

2.2.2-jadval

| Navoiy viloyati Xatirchi tumani shevasiga oid noadabiy lug'aviy shakllarga xos xususiyatlar katalogi | | | | |
|---|-------------------|---------------------------|---|--|
| | Xususiyat | Xato turi | Xato turining tavsifi | Misollar |
| 1. | Fe'l so'z turkumi | Fonetik | Reduksiya: <i>-ish</i> harakat nomi shaklida <i>i</i> tovushi qisqargan | <i>...bizani boqsh uchun...</i> |
| 2. | Fe'l so'z turkumi | Fonetik | Reduksiya: <i>-ish</i> harakat nomi shaklida <i>i</i> tovushi qisqargan | <i>...borshni plan qiganman...</i> |
| 3. | Ot so'z turkumi | Fonetik | <i>-lar</i> ko'plik shaklida <i>r</i> tovushi tushishi | <i>usherlada aylanish orzularimdan biri.</i> |
| 4. | Texnik | Qo'shimchani qisqartirish | <i>-gan</i> shaklini ifodalash uchun <i>></i> belgisi qo'llangan | <i>...eng yaxshi kur> dugonam...</i> |
| 5. | Ot so'z turkumi | Fonetik | <i>-lar</i> ko'plik shaklida <i>r</i> tovushi tushishi | <i>...odam tuyg'ulani qalbida...</i> |
| 6. | Morfologiyaga oid | Fonetik, tanlov | <i>-ay</i> shakli <i>-i</i> shakliga almashgan; <i>o'yla</i> so'zi <i>uyla</i> tarzida yozilgan | <i>...har kun uyliman...</i> |
| 7. | Fe'l so'z turkumi | Fonetik | <i>-di</i> tovush tushishi va <i>db</i> so'zida reduksiya hodisasi | <i>...amalga oshami db...</i> |
| 8. | Fe'l so'z turkumi | Fonetik | Reduksiya: <i>-ish</i> harakat nomi shaklida <i>i</i> tovushi qisqargan | <i>...qaytarsh...</i> |

⁸² Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages. 2019. – 26 p.

⁸³MacDonald P. We All Make Mistakes!?. Analysing an Error-coded Corpus of Spanish University Students' Written English, in Complutense Journal of English Studies, № 24. 2016. – 103-129 p.

| | | | | |
|----|--------------------|-----------------|---|--|
| 9. | Morfologiya ga oid | Fonetik, tanlov | <i>-lar</i> ko‘plik shaklida <i>r</i> , o‘zakda <i>l</i> tovushi tushishi; <i>o‘</i> tovushi <i>u</i> tarzida ifodalangan | ...yoshlikda <u>buganlani</u> ... |
| 10 | Fe‘l so‘z turkumi | Fonetik | Reduksiya va <i>-di</i> zamoni assimilyatsiyaga uchrab <i>-ti</i> shaklida ifodalangan | ... telefon qilganingni <u>eshttim</u> ... |
| 11 | Morfologiya ga oid | Fonetik va imlo | <i>-ay</i> ravishdoshi <i>-i</i> tarzida ifodalangan va <i>h</i> va <i>x</i> almashinuvi yuz bergan | ... <u>hohlamiman</u> ... |
| 12 | Yozuvda | Fonetik va imlo | <i>-ay</i> ravishdoshi <i>-i</i> tarzida va <i>h</i> va <i>x</i> imlodagi; reduksiya va eliziya hodisasi | Xch qeqqa <u>bormiman</u> ... |
| 13 | Morfologiya ga oid | Fonetik | Reduksiya: <i>-ish</i> harakat nomi va <i>-im</i> egalik shaklida <i>i</i> tovushi qisqargan. | ...yaxshi <u>kurshmni</u> ... |
| 14 | Fe‘l so‘z turkumi | Fonetik va imlo | <i>-ay</i> ravishdoshi <i>-i</i> tarzida almashinuvi | ...sovg‘a <u>tanlamiman</u> ... |
| 15 | Morfologiya ga oid | Fonetik | Reduksiya: <i>-ish</i> harakat nomi va <i>-im</i> egalik shaklida <i>i</i> tovushi qisqargan. | ...oyoqqa <u>turshmga</u> ... |
| 16 | Morfologiya ga oid | Tanlov | Reduksiya: <i>-tir</i> nisbatida <i>i</i> tovushi qisqargan va <i>-ni</i> kelishik o‘rniga <i>-ga</i> qo‘llangan | ...sizga dunyoni <u>aylantraman</u> ... |
| 17 | Fe‘l so‘z turkumi | Tanlov | <i>-gan</i> zamoni <i>-u</i> tarzida ifodalangan | ...vaqtli <u>uxludim</u> ... |
| 18 | Ot so‘z turkumi | Fonetik | <i>-lar</i> ko‘plik shaklida <i>r</i> tovushi tushishi | ... <u>kitoblani judayam</u> ... |
| 19 | Morfologiya ga oid | Fonetik va imlo | <i>-ay</i> ravishdoshi <i>-i</i> tarzida almashinuvi yuz bergan | ... <u>aytomiman</u> ... |

Jarayon avvalida xatlardagi noadabiy unsurlar farqlanadi va ular xosligiga ko‘ra guruhlanadi. Birinchi ustunda lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar qaysi turkumga oidligiga ko‘ra farqlandi. Agar ikki yoki uch turkumga mansub bo‘lsa, morfologiyaga oid umumiy nom berildi. Ikkinchi ustunda xatoning turi tavsiflandi. Uchinchi ustunda yanada xususiylashtirildi, ya‘ni aynan qanday xatolik yuz bergani haqida bayon qilindi. To‘rtinchi ustunda esa olingan 5 ta mavzudagi matnlarda uchragan noadabiy grammatik unsurlarga doir birikmalar misol tariqasida berildi.

Dastavval, noadabiy grammatik shakllarning lingvistik ekspertizasida quyidagi savollarga diqqat qilish kerak:

1. Umumiy xatoliklardan qaysi biri ko‘p uchraydi?
2. Asosiy xatolar tarkibida yana qanday xususiylashtirish uchraydi?
3. Tez-tez uchraydigan xatoliklarning o‘ziga xos xususiylashtirish qanday?
4. Har xil darajada yuzaga kelgan xatoliklar farqlandimi?
5. Xatoliklarning adabiy me‘yorga yaqinligi qay darajada aks etgan⁸⁴?

Ushbu savollar tilshunos-ekspert tomonidan amalga oshirilgan tahlilning mukammalligini ta‘minlaydi. Navoiy viloyati shevasi bo‘yicha olib borilgan tahlilda umumiy xatoliklardan noadabiy lug‘aviy shakllar tanlab olindi. Ikkinchi bosqich

⁸⁴ MacDonald P. We All Make Mistakes!?. Analysing an Error-coded Corpus of Spanish University Students’ Written English, in Complutense Journal of English Studies, №24. 2016. – 103-129 p.

vazifasiga ko‘ra umumiy xatoliklar tarkibiga kiruvchi asosiy xatoliklar turi aniqlanishi kerak edi. Shunga ko‘ra, noadabiy lug‘aviy shakllarda yuz bergan xatoliklar uchinchi bosqich vazifasiga ko‘ra darajalandi: 7 ta birikmada reduksiya, 5 ta birikmada tovush almashinishi va 5 ta birikmada tovush tushishi hodisalari nisbatan faol qo‘llangan. Shundan reduksiya Navoiy hududi shevalariga doir matnda ko‘p uchrar ekan. Lug‘aviy shakllarda ikki undosh orasida *i* tovushining qisqa talaffuz etilishi va bu yozuvda aks etish jarayoni reduksiya fonetik hodisasi deb yuritiladi. Shunda bu jarayon, asosan, nisbat shakllarida (*-tir orttirma nisbati -tr tarzida ifodalanadi*) va harakat nomi shakllarida (*-ish shakli undosh tovush bilan tugagan o‘zakdan keyin -sh shaklida qo‘llaniladi*) kuzatiladi. Zero, fe‘lning harakat nomi shakllari ma‘lum o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Navoiy viloyatida harakat nomining *-(i)sh* qo‘shimchasi keng tarqalgan va, asosan, bu shakldan ko‘p foydalanishadi: *ishlash, borish kabi*⁸⁵. Shuningdek, qipchoq lahjasiga oid shevalarda *-(u)v* shakli keng qo‘llaniladi: *uning boquvi zo‘r*. Nisbatan, bu shakl O‘zbekistonning boshqa hududlarida kam qo‘llaniladi⁸⁶. Ko‘pincha, o‘zakda ham reduksiya hodisasi yuz beradi (*uzm, szga kabi*). Tovush almashinish jarayoni fe‘l so‘z turkumining ravishdosh shaklida (*-ay shakli -i, iy tarzida*), zamon shaklida (*-di o‘tgan zamon shakli -ti tarzida*), shaxs-son shaklida (*-man shakli -pan tarzida*) kuzatiladi. Tovush almashinish jarayoni o‘zak tarkibida ham yuz bergan (*oshami, uzm kabi*). Shuningdek, lug‘aviy shakllarda tovush tushishi jarayoni otning ko‘plik shaklida (*-lar shakli -la tarzida ifodalangan: buganlani, usherlada kabi*). Tovush tushish jarayoni o‘zakda ham yuz bergan (*bugan, qisala kabi*). Demak, tahlil natijasiga ko‘ra, ot va fe‘l so‘z turkumlariga oid lug‘aviy shakllarda turli xato xususiyatlariga ega tarzda adabiy me‘yordan chetga chiqish hollari kuzatiladi. Bu, albatta, individual xarakterdagi tahlil. Bu butun Navoiy viloyati bo‘yicha umumiy tahlillarni olib borish uchun taklif sifatida beriladi.

2.2.3-jadval

| Qashqadaryo viloyati shevasida noadabiy lug‘aviy shakllarga xos xususiyatlar katalogi | | | |
|--|------------------|--|--|
| Xususiyat | Xato turi | Xato turining tavsifi | Misollar |
| 1.Ot so‘z turkumi | Yozuv | -lar ko‘plik shaklida r tovushi tushishi | ...bu <u>sovg‘alani</u> oilam... |
| 2.Punktuatsiya, morfologik | Texnik, fonetik | So‘roq, o‘ o‘rnida u, i o‘rnida u qo‘llangan; -ib ravishdoshi -up tarzida qo‘llangan | ... <u>uqib yurupsanmi</u> ... |
| 3.Punktuatsiya, morfologik | Texnik, tanlov | Vergul, qo‘shimchada r tovushi tushgan | ... <u>keling onajon dadamla bilan</u> ... |
| 4.Ot so‘z turkumi | Fonetik | -lar ko‘plik shaklida r tovushi tushishi | ... <u>aytmaysizam yangiliklardan</u> ... |
| 5.Morfemika | Tanlov | Ko‘plik shakli ortiqcha qo‘llangan | ... <u>aholilar maskalardan</u> ... |
| 6.Ot so‘z turkumi | Fonetik | -lar ko‘plik shaklida r tovushi tushishi | ... <u>bunaqa sovg‘ala yoqsa kerak</u> ... |

⁸⁵ Раҳмонов Н.С. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ...дисс. – Самарқанд, 2019. – Б.16.

⁸⁶ Мелиев К. Ҳозирги туркий тилларда ҳаракат номлари. – Тошкент, 1969. – Б. 65.

Qashqadaryo hududiga xos shevada ot soʻz tukumiga oid lugʻaviy shakllarda adabiy meʼyordan chekinish hollari kuzatiladi. Otning son kategoriyasi *-lar* koʻplik shakli *-la* tarzida *r* tovush tushishi xususiyati bilan ifodalanishiga koʻra Navoiy viloyati bilan umumiylik kasb etadi. Bundan tashqari, *-ib* ravishdosh shakli *-ub* tarzida yozilishiga singarmonizm hodisasi kuzatiladi. Oʻzak tarkibidagi u qoʻshimchadagi *i* tovushini oʻziga moslashtiryapti: *yurubsanmi kabi*. Qashqadaryo shevasiga oid tahlilda punktuatsiyaga oid xatolar koʻpchilikni tashkil etdi. Vergul, soʻroq belgilarining ishlatilishi, noʻrin vaziyatlarda bosh harf bilan yozish kabi texnik xatolar kuzatildi.

Ushbu tahlillar, asosan, ikki hudud vakiliga tegishli boʻlgan 170 soʻzdan iborat 5 ta matn misolida olindi. Tahlildan maqsad nutqiy belgilarga individual yondashuvni amalga oshirish va shu orqali maʼlum hudud, ijtimoiy qatlamga oid umumiy nutqiy belgilarni aniqlashdir. Bu xususiyatlar katalogini har bir hudud shevasi boʻyicha rivojlantirish kerak. Bu anonim xatlar tahlilida muvaffaqiyatli natijalarga sabab boʻladi. Mukammal bilimga ega tilshunos-mutaxassislar tahlili kodlashtirilib korpus yaratilgach, turli vaziyatlarda ham tilshunosning tajribasiga ehtiyoj sezilavermaydi, shuningdek, bu muammoning tez va oson yechim topishiga sabab boʻladi.

Oʻylaymizki, oʻzbek tilidagi anonim xat muallifini aniqlash uchun, avvalo, Oʻzbekistonning har bir hududi boʻylab noadabiy unsurlarning turlariga koʻra prototiplarining dalil korpusi yaratilishi kerak. Keyingi bosqichda esa gumonlanuvchining yozishmalarida kuzatilgan xususiyatlarning statistik chastotalari prototip kataloglariga koʻra taxmin qilinganlariga nisbatan taqqoslanadi. Lingvistik ekspertizada yozishmalar muallifini aniqlash uchun yuqoridagi tahlillar taklif sifatida beriladi. Ushbu tahlillar asosidagi dalil korpusi gumonlanuvchining hududiy xosligini aniqlashda samarali natija berishi mumkin. Bunda faqat lingvist ekspertning emas, balki psixolog, nutq portretini chizuvchi rassom, tibbiy ekspertiza kabi xulosalar oxirida umumlashtiriladi.

2.3. Shaxsiy yozishmalarda qoʻllangan noadabiy sintaktik shakllarning hududiy xususiyatlari

Shaxsiy yozishmalarda noadabiy sintaktik shakllarning lingvistik tahlil usullari. Oʻzbek shevalarining morfologiyasi mustaqil, yordamchi va oraliqdagi soʻz turkumlariga boʻlib oʻrganiladi. Maʼlumki, soʻz turkumlarni aniqlashda morfologik-leksik va sintaktik belgilar asos qilib olinadi hamda bu soʻz turkumlari ham turli kategoriyalarga, guruhlariga ajratiladi. Soʻz turkumlarini tasnif qilish, turli noaniqliklarni bartaraf etish masalasida Y.D.Polivanov, X.Komilova, U.Tursunov, V.V.Reshetov, A.Gʻulomov, Sh.Shoabdurahmonov kabi olimlarning xizmatlari katta. Soʻz turkumlari tasnifida sheva materiallarida oʻzaro umumiyliklar qatorida oʻziga xos jihatlari ham koʻzga tashlanib turadi. Buni ot soʻz turkumida egalik, kelishik, feʼl soʻz turkumida zamon, mayl, shaxs-son kategoriyalarini oʻrganish kabi sohalarda aniq tasavvur etish mumkin.

Tabiiyki, soʻz va qoʻshimchalarning talaffuzi va yozilishida ayrim adabiy meʼyordan chekinish hollari uchraydi. Nutq xatolarining eng keng tarqalgan turlari

strukturaviy va nutq zonalariga yoki til darajalariga qarab farqlanadi. Shunday qilib, leksik darajada, o‘z navbatida, leksik xatolar yoki so‘z ishlatishdagi xatolar, morfologik darajada grammatik shakllarni o‘zgartirish va ishlatishdagi xatolar birgalikda morfologik deb ataladi. Sintaktik darajada jumlar va jumalarning sintaktik qurilishida xatolar kabi turlari farqlanadi. Talaffuzda orfoepik va aksentologik xatolar ajratiladi, ammo bu ba‘zan yozuvda aks etishi mumkin. Frazologik birliklarni ishlatish bilan bog‘liq frazeologik xatolar, so‘z shakllanishi sohasida o‘zak va qo‘shimcha birikuviga oid xatolar farqlanadi. Tabiiyki, ushbu turlarning har birida turli xil subtipalar mavjud bo‘lib, ular qaysi me‘yorlar buzilganiga qarab belgilanadi⁸⁷.

Grammatik vositalar morfologik birlik hisoblanib, shaxs-son, zamon, mayl shakllari, egalik, kelishik, ismni kesimga xoslovchi shakllar sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar sirasiga kiradi⁸⁸. Jumladan, fe‘lning uchinchi shaxs ko‘pligi hurmat ma‘nosida kelishi *Farg‘ona*, *Andijon* va *Qo‘qon* shevalarida uchraydi. Masalan, *buvm kelishti (Farg‘ona)*; *ozleri eyttirer (Andijon)*; *emekim bog‘den uy olishipti, ekelerin kelishtime (Qo‘qon)* kabi. Bu so‘zshakllar *Farg‘ona* guruh shevalarida boshqa variantda qo‘llaniladi, ya‘ni uchinchi shaxs ko‘pligi uchinchi shaxs birlik shaklida qo‘llaniladi. Masalan, *hojimetler keldi (Andijon)*; *bular joy meqomga ketti (Marg‘ilon)*⁸⁹. Bu hududlararo leksik o‘ziga xoslikni ifodalaydi. Ushbu misollar dialektologiyaning areologiya sohasiga taalluqli hisoblanadi. Integratsiyalashuv jarayoni kuchaygan sari tilshunoslikning amaliy sohalari ham ko‘paymoqda. Areologiyaning ma‘lumotlariga tayangan holda lingvistik ekspertiza tarmog‘i rivojlanmoqda. Bu esa areologiyaga oid ma‘lumotlarning sud-huquq tizimidagi ahamiyatini oshiradi.

Anonim shaxsiy yozishmalarda lingvistik ekspertiza olib borishda, dastlab, jarayon yuzasidan yozishma dalillari olinadi, so‘ng har bir muammoli xat uchun alohida dalil sifatida olingan yozishmalarga asoslangan korpus yaratiladi⁹⁰. Anonim shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik unsurlarni aniqlash masalasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan⁹¹. Ularning ayrimlarida noadabiy grammatik shakllarni avtomatik tarzda aniqlash masalasi ilgari surilsa, ayrimlarida matndagi grammatik shakllarning chastotasiga ko‘ra tahlil qilish usullari haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

⁸⁷ Береля И.В. Многоуровневая системность стилистических норм и проблема типологизации речевых отклонений от них: Кандидат филологические наук дис. – Краснодар, 2007. – С. 68.

⁸⁸ Sheraliyev Sh.E. O‘zbek tili sharqiy Xo‘jand shevalarining grammatik kategoriyalari: Filol. fan. nom. ...diss. – Toshkent, 2001. – С. 148.

⁸⁹ Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги: Пед. ин-тларининг ўзбек тили ва адабиёти, ун-тларининг филология фак-лари талабаларн учун дарслик. — Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 304.

⁹⁰ Malmasi S., Tetreault J., & Dras M. Oracle and Human Baselines for Native Language Identification. Proceedings of the Tenth Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications, 2015. – 172-178 pp.;

⁹¹ Chodorow M., Leacock C. An unsupervised method for detecting grammatical errors, Proceedings of 1st Meeting of N. American Chapter of Assoc. for Computational Linguistics. 2000. – 140-147 p.; Baayen H., Halteren H., Tweedie F., Outside the cave of shadows: Using syntactic annotation to enhance authorship attribution. In Literary and Linguistic Computing, № 11, 1996.; Peng F., Schuurmans D., Wang S. Augmenting Naive Bayes Classifiers with Statistical Language Models. Inf. Retr. 2004. 7(3-4): – 317-345 p.

Tadqiqotlarga ko'ra, muallifi noma'lum shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasida matndagi xatolarning turlari quyidagicha tasnif qilinadi⁹²:


1. Orfografik xatolar: qo'sh undoshlardan birining tushirib qoldirilishi (hamma-hama); harflarning o'zaro o'rin almashinuvi (shoh-shox) kabi.

2. Sintaktik xatolar: noadabiy gap bo'laklari; so'zlarning noo'rin takrori; sintaktik shakllardan noo'rin foydalanish; sintaktik shakllarning o'rnini almashtirgan holda qo'llash kabi.

Ma'lumki, namunaviy nutqqa qo'yiladigan asosiy talab uning grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishidir. Bunda gap tuzish qoidalarini yaxshi bilish va ulardan foydalanish, gapda so'z va qo'shimchalar o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri bo'lishi, ega-kesim mosligi hamda ikkinchi darajali bo'laklarning bog'lanishiga e'tibor berish, gapda so'zlar tartibiga, ya'ni gap bo'laklarining me'yoriy joylashuvi va inversiya qoidalariga rioya qilish muhimdir. Ammo nutqda har doim ham sintaktik normalarga amal qilinmayapti⁹³. Gazeta tilida ham sintaktik normaning buzilish hollarini kuzatish mumkin. Gazeta tilida sintaktik me'yor buzilishlari quyidagi hollarda yuz bergan:

1. Gapdagi mantiqiy bog'lanishning buzilishi.
2. Jumla tuzishda so'zlarni tegishli shaklda ishlata olmaslik.
3. Jumalarni ortiqcha cho'zib yuborish va gaplarning bog'lanishidagi mazmuniy uzilishning sodir bo'lishi.
4. Sodda gaplarni sun'iy ravishda qo'shma gap tarkibiga birlashtirish.
5. Gapda so'z tartibiga – normal holat va inversiya qoidalariga rioya qilmaslik.
6. Jumla tuzishda faqat badiiy uslubga xos elementlardan foydalanish, fikrning aniq ifodalanishiga putur yetkazish.

Demak, sintaktik xatolar tor ma'noda sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar doirasida yuz bersa, keng ma'noda so'zlarning birikuvi, gap bo'laklari va gaplarning o'zaro aloqasi, so'z va qo'shimchalardagi sintagmatik munosabatlar, bog'lovchi va ko'makchilarning so'z bilan birikuvi kabi munosabatlarda yuzaga kelishi mumkin.



⁹² Koppel M., Schler J., Zigdon K. Determining an author's native language by mining a text for errors. In Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining - KDD '05. 2005. – 624-628 pp. – New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947;

⁹³ Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. 1985. – 39 б.

Anonim xatning qo‘lyozma tariqasidagi ifodasida ham o‘ziga xos jihatlarini aniqlash bosqichma-bosqich amalga oshadi. Avvalo, matnning umumiy mazmuni, shakliy xususiyati, yozishma turi aniqlanadi. Lingvistik tahlilda esa ikkinchi bosqichga ko‘ra, tovush, qo‘shimcha, so‘z, birikma va gaplarga xos xususiyatlar farqlanadi. Ushbu anonim xatda punktuatsiya masalasida me‘yor mavjud, demak, boshqa sathlararo tahlilni davom ettiramiz:

- olmosh so‘z turkumiga oid so‘z: *man (men)*;
- fe‘l so‘z turkumiga oid so‘z: *yurimman, yuribti, qolli, omang, boryotudi, aytyotudila, tugabti, tuxtagan, qomoqchidim, uzgarib qolli, keluvir, diyoptila*;
- ot so‘z turkumiga oid so‘z: *yaqinga tugabti, uygaman*;
- ravish so‘z turkumiga oid so‘z: *xozi*.

Demak, noadabiy unsurlar ajratib olindi. Shundan noadabiy sintaktik shakllarni topish uchun tarkiban shakllangan so‘zlarga murojaat etiladi: *yurimman, yuribti, qolli, omang, boryotudi, aytyotudila, tugabti, tuxtagan, qomoqchidim, uzgarib qolli, keluvir, diyoptila; yaqinga tugabti, uygaman*. Fe‘l so‘z turkumiga oid ravishdosh shakli *-im* tarzida ifodalangan: *yurimman* kabi. *Yuribti* misoli asosida ko‘rish mumkinki, ravishdosh *-ib* shaklining turli variantda qo‘llanilishi undan keyin birikib keluvchi qo‘shimchaga bog‘liq ekan. Ya‘ni *-man* shaxs-son shakli regressiv assimilyatsiyani hosil qilyapti. Shuningdek, *-di* zamon shakli *-li, -ti* tarzida progressiv assimilyatsiyani yuzaga keltirgan. *-yap* hozirgi zamon shakli *-yop* tarzida ikkinchi urg‘uli bo‘g‘inda *a* tovushi *o* tarzida qo‘llangan: *diyoptilar* kabi. Shaxs-son III shaxs ko‘plik qo‘shimchasi *-tila* tarzida aks etgan: *diyoptila* kabi. Ot so‘z turkumidagi kelishik shakllarida *-da* o‘rin-payt shaklining o‘rniga *-ga* jo‘nalish kelishigi qo‘llangan. Anonim xatda, bundan tashqari, so‘z o‘zaklarida ham fonetik hodisalar kuzatiladi. Bu tahlil bitta yozishma asosida olib borildi. Dalil sifatida olingan bir nechta yozishmalar o‘rganiladi va tahlilga tortiladi. Yuqoridagidek noadabiy sintaktik shakllar aynan takrorlangan bo‘lsa, yozishma bitta muallif tomonidan yozilgan bo‘ladi, shuningdek, ijrochining yashash hududi ham shu asosida taxmin qilinadi. Muallifning hududini aniqlash uchun quyidagi uch viloyatga mansub shaxslardan yozdirib olingan matn tahlili asos bo‘lishi mumkin.

O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy sintaktik shakllarning hududlararo lingvistik tahlili. Anonim shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik shakllarni aniqlash masalasida tilshunoslikda qator tadqiqotlar amalga oshirilgan⁹⁴. Ushbu ilmiy ma‘lumotlarda noadabiy grammatik shakllarning hududiy xususiyatlari chastotasi keng yoritib berilgan. Noadabiy grammatik unsur mavjud bo‘lgan hujjatlar soniga ko‘ra hududlar farqlangan.

Quyida o‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy sintaktik shakllarni aniqlash va korpus yaratish uchun manba sifatida tahlillar berildi. Bunda amerikalik olim V.Milomning ingliz tilida gaplashadigan turli millat vakillari ichidan milliy

⁹⁴ Burrows J.F. Computers and the Study of Literature. In: C.S. Butler (Ed.), Computers and Written Texts. Oxford: Blackwell. 1992. – pp. 167-204.; Burrows J.F. Tiptoeing into the infinite: testing for evidence of national differences in the language of English narrative. In: S. Hockey and N. Ide (Eds.), Research in Humanities Comput. 1993; Holmes D.I. Authorship Attribution. Computers and the Humanities 28(2). 1994. – 87-106 pp.; Holmes D.I., Forsyth R.S. The Federalist Revisited: New Directions in Authorship Attribution. Literary and Linguistic Computing 10(2). 1995. – 111-127 pp.

til egasini aniqlash uchun olib borgan tadqiqot ishida foydalanildi. Qashqadaryo, Buxoro va Navoiy hududi bo'ylab noadabiy sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarni aniqlash uchun dalil sifatida 5 ta mavzuda 170 so'z atrofidagi bayon yozdirib olindi. Tajriba qatnashchilarining yoshi qariyb bir-biriga yaqin. Turli tashqi ta'sirlar, diktant tarzida bayon etish kabi holatlar chegaralandi. Qashqadaryo hududi bo'ylab noadabiy sintaktik shakllar tahlili quyidagi jadvalda berildi.

2.3.1-jadval

| <i>Qashqadaryo viloyati shevasidagi noadabiy sintaktik shakllarga xos xususiyatlar katalogi</i> | | | | |
|--|-------------------------------|-------------------------|--|---|
| 1. | Xususiyat | Xato turi | Xato turining tavsifi | Misollar |
| 2. | Ot so'z turkumi | Tanlov | -ning qaratqich kelishigi o'rnida -ni qo'llangan. | <i>Dadamni ishlari...</i> |
| 3. | Ot so'z turkumi | Tanlov | -dan chiqish kelishigi o'rnida -da qo'llangan. | <i>...bo'sh kelmasda dars qilishni...</i> |
| 4. | Ot so'z turkumi | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida; ingiz -uz tarzida qo'llangan. | <i>...o'g'liz sizlarni yuzuzni...</i> |
| 5. | Ot so'z turkumi | Tanlov | -ning qaratqich kelishigi o'rnida -ni tushum kelishigi qo'llangan. | <i>...Xolamni qizini...</i> |
| 6. | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -sizlar II shaxs-son shakli -sila tarzida qo'llangan. | <i>...berayotgan ekansila...</i> |
| 7. | Ot so'z turkumi | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida; -ga jo'nalish kelishigi o'rnida -da o'rin-payt kelishigi qo'llangan. | <i>O'ziz shaharda kelmaysizmi</i> |
| 8. | Ot so'z turkumi | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida; o' tovushi u ga almashgan va I tovushi tushgan. | <i>...o'zizni uylasaviz bo'maydimi...</i> |
| 9. | Ot so'z turkumi | Tanlov | -ning qaratqich kelishigi o'rnida -ni tushum kelishigi qo'llangan. | <i>Singlimni o'qishlari...</i> |
| 10. | Ot so'z turkumi, punktuatsiya | Tanlov, fonetik, texnik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida qo'llangan; vergul qo'yilishida xato mavjud. | <i>...o'ziz_dadam...</i> |
| 11. | Ot so'z turkumi | Tanlov | -ni tushum kelishigi tushirib qoldirilgan. | <i>...har qanday sovg'a yoqtiradi...</i> |
| 12. | Morfologiya | Tanlov | -da o'rin-payt kelishigi qo'llanmagan. | <i>Chetlar o'qib kelish...</i> |
| 13. | Ot so'z turkumi | Qo'shimcha qo'llash | -ga jo'nalish kelishigi o'rnida -da o'rin-payt kelishigi qo'llangan. | <i>...kelsang birga tog'da chiqardik...</i> |
| 14. | Fe'l so'z turkumi | Fonetik | -sizlar II shaxs-son shaklida r tovushi tushgan. | <i>...to'y boshlab qo'yibsila...</i> |
| 15. | Ot so'z turkumi | Tanlov | -ning qaratqich kelishigi o'rnida -ni qo'llangan. | <i>...o'zimni kallektivim...</i> |
| 16. | Ot so'z turkumi | Tanlov | -da va -ga kelishiklari o'rin almashgan holda ifodalangan. | <i>...yaqinga tugapti...</i> |

| | | | | |
|-----|-------------------|--------|--|-----------------------------|
| 17. | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -ti, -b ravishdoshi -p tarzida ifodalangan. | ...yaqinga tugapti... |
| 18. | Ot so'z turkumi | Tanlov | -da va -ga kelishiklari o'rin almashgan holda ifodalangan. | ...hozi uygaman... |
| 19. | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -yap zamon shakli -op tarzida ifodalangan. | Onamam keluvir deyoptila... |
| 20. | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -dilar shaxs-son shakli -tila tarzida ifodalangan. | Onamam keluvir deyoptila... |

2.3.2-jadval

| Navoiy viloyati shevasidagi noadabiy sintaktik shakllarga xos xususiyatlar katalogi | | | | |
|--|-------------------------------|------------------|---|---|
| | Xususiyat | Xato turi | Xato turining tavsifi | Misollar |
| 1. | Ot so'z turkumi, punktuatsiya | Tanlov, fonetik | -ingiz II shaxs egalik -iz tarzida ifodalangan. | ... <u>maqтанishiz</u> kerak... |
| 2. | Fe'l so'z turkumi | Tanlov, fonetik | -di o'tgan zamon shakli assimilyatsiya hodisasiga uchrab -ti tarzida ifodalangan. | ... telefon qilganingni <u>eshtim</u> ... |
| 3. | Fe'l so'z turkumi | Fonetik | -di zamon assimilyatsiyaga uchrab -ti shaklida ifodalangan. | ... <u>uyg'otting</u> ... |
| 4. | Fe'l so'z turkumi | Fonetik | -salar shart mayli shakli -sala tarzida qo'llangan. | ... <u>qilsala</u> yoqadi... |
| 5. | Fe'l so'z turkumi | Fonetik | -man shaxs-son -pan shaklida qo'llangan assimilyatsiya jarayoni yuz bergan. | ... <u>harakat qilyappan</u> ... |

2.3.3-jadval

| Buxoro viloyati shevasidagi noadabiy sintaktik shakllarga xos xususiyatlar katalogi | | | | |
|--|-------------------|------------------|--|--|
| | Xususiyat | Xato turi | Xato turining tavsifi | Misollar |
| 1 | Ot so'z turkumi | Tanlov | O'rin-payt kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigi qo'llangan. | ... <u>qoshimga</u> bo'sala... |
| 2 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -li tarzida qo'llangan. | Kam <u>qolli</u> mangayam... |
| 3 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -dilar zamon shakli -la tarzida qo'llangan. | Dadam <u>aytala</u> ... |
| 4 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -dilar shaxs-son shakli -tila tarzida; -yap zamon shakli -op tarzida qo'llangan. | ... <u>apamni o'qitoptila</u> ... |
| 5 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -sinlar mayl shakli -sinla tarzida qo'llangan. | ... <u>kesinla</u> yana o'ylab ko'ramiz... |

| | | | | |
|----|----------------------------------|-----------------|--|---|
| 6 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -dilar shaxs-son shakli -la tarzida qo'llangan. | ... <i>dollir <u>uzotalla</u>...</i> |
| 7 | Ot so'z turkumi, so'z qo'llashda | Fonetik, tanlov | Reduksiya: -im shakli -m tarzida; o'zlashma so'z noto'g'ri qo'llangan. | ... <i>velik <u>olishm kerag</u>...</i> |
| 8 | Ot so'z turkumi | Fonetik | Reduksiya: -im shakli -m tarzida qo'llangan. | ... <i>tug'ilgan <u>kunmga</u>...</i> |
| 9 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -sinlar mayl shakli -sinla tarzida qo'llangan. | ... <i>kesinlada <u>enni</u>...</i> |
| 10 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -ti tarzida qo'llangan. | ... <i>mani bugungi kunim yahshi <u>o'tti</u>...</i> |
| 11 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -li tarzida qo'llangan. | ... <i>yahshi avqot pishirib bersa <u>bo'lli</u>...</i> |
| 12 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -li tarzida qo'llangan. | ... <i>abet <u>qillim</u>...</i> |
| 13 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -ar zamon shakli -or tarzida qo'llangan. | <i>Bzani aylanishga <u>chiqordi</u>.</i> |
| 14 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -di zamon shakli -ni tarzida qo'llangan. | ... <i>aylannim <u>lekn</u>...</i> |
| 15 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -ingiz II shaxsdagi shaxs-son shakli -yiz tarzida qo'llangan. | <i><u>Kesayiz sizga</u>...</i> |
| 16 | Fe'l so'z turkumi | Tanlov | -ar sifatdoshi -ay tarzida; r tovush tushishi yuz bergan. | ... <i>maraka <u>qilaykanla</u>...</i> |
| 17 | Morfologiya | Tanlov, fonetik | -ib ravishdoshi -ip tarzida; -dilar III shaxs shaxs-son shakli -tila tarzida; o'zlashma so'z noto'g'ri qo'llangan. | <i>Tilifon <u>qlip ayttila</u>...</i> |

Matnning lingvistik xususiyatlari kategoriyalashtirildi, xato turi, misoli va xususiyatiga ko'ra tahlil qilindi. Ushbu tahlillardan maqsad Navoiy, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarining, nisbatan, tor ko'lamdagi milliy korpusi uchun asos yaratishdir. Bu O'zbekistonning boshqa viloyatlari misolida tahlil qilinishi uchun taklif sifatida beriladi.

Qashqadaryo shevasiga oid tahlilda 15 ta birikma, Navoiy viloyatida 1 ta va Buxoro viloyatida 3 ta birikmada ot so'z turkumiga oid noadabiy sintaktik shakllar uchraydi. Ulardan ko'pchiligida qaratqich va tushum kelishiklarining o'zaro o'rin almashinuvi kuzatiladi: *dadamni ishlari, sizlarni yuzuzni* kabi. Aslida hokim bo'lak tarkibida egalik shakli borki, u tobe bo'lakda qaratqich kelishigini taqozo etadi. Ammo o'zbek tilida ushbu qoidadan mustasno variantlar ham mavjud. Masalan, o'qish kitobi, Toshkent shahri misollarida tobe bo'lakda qaratqich kelishigi qo'llanilmaydi, chunki bunday birliklar izohlovchili birikmalardir. Ushbu birikmalardagi sintaktik aloqa qarashlilik-tegishlilik munosabatini emas, balki umumdan ajratilganlik, xoslik tushunchalarini ifoda etadi.

Qashqadaryo va Buxoro hududida o'rin-payt va jo'nalish kelishiklarining ham o'rin almashinuvi kuzatiladi: *yaqinga kellim, uygaman* kabi. Shuningdek, o'rin-payt kelishiklarining noo'rin qo'llanilishi jarayoni ham kuzatiladi: *tog'da chiqardik; shaharda kelmaysizmi* kabi.

Tilshunos olim A.Abdusaidov matnlarda noadabiy grammatik unsurlarning ifodalanishini quyidagicha farqlagan:

1. Kelishik shakllarini to‘g‘ri ishlata olmaslik. Ularni farqlamaslik, belgili va belgisiz holatlaridan noto‘g‘ri foydalanish, kelishiklarning o‘zaro sinonimiyasidan to‘g‘ri foydalanmaslik, kelishiklarni qo‘llashda shevaning ta‘siri.

2. So‘z yasovchi qo‘shimchalarni noto‘g‘ri qo‘llash.

3. Fe‘l nisbatlarini farqlamaslik.

4. Affiksial pleonazm kabi⁹⁵.

Yuqoridagi tasnifning to‘rtinchi turi tavnologiyaning qo‘shimchalar orasida yuzaga kelishidir. Masalan, *ko‘kimtir, singlisi* kabi misollarda bir guruhga mansub shakllarning takror holda kelishini kuzatish mumkin.

Ushbu tasnif asosida yuqoridagi jadvallardagi hududlararo tahlilda noadabiy sintaktik shakllarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Bu quyidagi jadvalda aks etgan⁹⁶:

2.3.4-jadval

| | Noadabiy sintaktik shakl | Buxoro | Qashqadaryo | Navoiy |
|-------------------------|---------------------------------|---------------|--------------------|---------------|
| Egalik shakli | -yiz (-ingiz) | + | | |
| | -iz (-ingiz) | + | + | + |
| | -uz (-ingiz) | | + | |
| Kelishik shakli | -da o‘rniga –ga | + | + | |
| | Ning o‘rniga –ni | + | + | |
| | -dan o‘rniga –da | | + | |
| | -da belgisiz kelishi | | + | |
| Zamon shakli | -ti (-di) | + | + | + |
| | -li (-di) | + | + | |
| | -op (-yap) | + | + | |
| | -yom (yap) | + | | |
| | -ni (-di) | + | | |
| | -or (-ar) | + | | |
| | -ay (-ar) | + | | |
| Shaxs-son shakli | -la (-dilar) | + | | |
| | -tila (-dilar) | + | + | |
| | -pan (-man) | | | + |
| | -sila (-sizlar) | + | + | |
| Mayl shakli | -sinla (-sinlar) | + | | |
| | -sala (-salar) | | | + |

Tahlildan ayonki, nisbatan, Navoiy viloyatida noadabiy sintaktik shakllar kam qo‘llanilar ekan. Bu masalada Navoiy viloyatida noadabiy lug‘aviy shakllar ustunlikni egallagan (ikkinchi bo‘limda yoritilgan). Navoiy viloyatida fe‘l so‘z turkumiga oid noadabiy sintaktik shakllar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ot so‘z

⁹⁵ Abdusaidov A. O‘qituvchining nutq mahorati: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2013. – 106 b.

⁹⁶ Koppel M., Schler J., Zigdon K. Determining an author’s native language by mining a text for errors. In Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining - KDD ’05. – New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947, 2005. – 624-628 pp.;

turkumiga oid noadabiy egalik shakllari yuzasidan Qashqadaryo va Buxoro viloyati shevasi Navoiy hududi shevasi bilan umumiylikka ega. Qashqadaryo hududi shevasida ot soʻz turkumiga xos egalik shakllarida ayrim xatoliklar kuzatiladi. Masalan, *oʻziz, ishiz, oʻgʻliz, oʻzlariz* kabi soʻzlarda II shaxs koʻplikdagi *-ingiz* egalik shakli *-iz, -lariz* shaklida talaffuz etiladi va bu yozuvda aks etgan. Masalan, Navoiy hududida ham *maqтанishiz kerak* birikmasida harakat nomi shaklidan keyin II shaxs egalik qoʻshimchasi *-iz* tarzida qoʻllaniladi. Shuningdek, Qashqadaryo hududida kelishik shakllarining noʻrin tarzda belgisiz qoʻllanishi ham kuzatiladi: *chetlar oʻqib kelish; har qanday sovgʻa yoqtiradi* kabi. Aslida, *chetalarda oʻqish* va *har qanday sovgʻani yoqtiradi* tarzida qoʻllanilishi adabiy meʼyor sanaladi. Bu soʻzlarning sintaktik aloqasiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazadi, yaʼni hokim va tobelik munosabati yoʻqoladi. Bu esa gap qurilishiga taʼsir qiladi. Shuningdek, kelishik shakllarining oʻzaro oʻrin almashinuvi Qashqadaryo va Buxoro shevasida koʻp uchrashiga guvoh boʻlish mumkin.

Qashqadaryo viloyatida feʼl soʻz turkumiga mansub noadabiy sintaktik shakllardan II shaxsdagi shaxs-son qoʻshimchasi nibatan faoldir. *-sizlar* shakli *-sila* tarzida talaffuzda ham, yozuvda ham aks etyapti, yaʼni qoʻshimcha oxirida *r* tovush tushish hodisasi kuzatilyapti. Navoiy viloyatida esa feʼl soʻz turkumiga oid noadabiy sintaktik shakl yasovchi qoʻshimchalar, nisbatan, koʻp uchraydi. Bu feʼlning oʻtgan zamoni *-di* shakli *-ti* tarzida ifodalanadi: *uygʻotting, telefon qilganingni eshttim*. Bundan tashqari Navoiy hududida feʼl soʻz turkumiga xos I shaxs shaxs-son shaklining ham noadabiy qoʻllanilishi kuzatiladi: *qilyappan*. Ushbu soʻzda assimilyatsiya hodisasi yuz bergan boʻlib, bu yozuvda ham aks etyapti. Toʻgʻri, assimilyatsiya hodisasi yozuvda aks etib fonetik tamoyillarni hosil qilishi mumkin, ammo *tussiz, ottan* kabi soʻzlarda bu jarayonning yozuvda ifodalanishi adabiy meʼyorga zid sanaladi. Bu Navoiyning oʻziga xosligini bildiradi, chunki qolgan ikki viloyatda bunday shakl mavjud emas. Ammo shuni aytish kerakki, viloyat tarkibidagi Navoiy hududi chegarasiga yaqin kichik hududlarga xos shevalar oʻxshash boʻlishi mumkin. Bu xulosa 5 ta matn misolida chegaralangandir. Qolgan viloyatlardagi noadabiy unsurlarning hududiy xususiyatlari tahlil talabdir.

Noadabiy egalik shakllari Qashqadaryo, Navoiy va Buxoro hududlarida deyarli muvofiq qoʻllaniladi. Noadabiy kelishik, shaxs-son va zamon shakllarining yozuvda ifodalanishiga koʻra, Qashqadaryo va Buxoro umumiylik kasb etadi. Oʻtgan zamon shakli *-di* assimilyatsiya hosilasi sifatida *-ti* tarzida talaffuz etilishi va yozuvda aks etishi jihatidan har uchala hudud oʻxshashdir. Matn tahlilidan maʼlum boʻladiki, Navoiy hududiga doir feʼl soʻz turkumlarining oʻzak qismida fonetik hodisalar yuz beradi, qoʻshimchalar esa adabiy meʼyorga yaqin talaffuz etiladi.

Ikkinchi bob yuzasidan qisqa xulosalar

1. Oʻzbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik unsurlarning xato turiga muvofiq tasniflash usulidan foydalanildi. Ushbu usul noadabiy grammatik shaklning oʻziga xos jihatlarini asoslashga yordam beradi.

2. Noadabiy lugʻaviy va sintaktik shakllarning xato turiga muvofiq tasniflanishi qoʻshimchalarning hududiy tipik xarakterini aniqlashga xizmat qiladi.

3. Lingvistik ekspertiza jarayonida noadabiy grammatik shakllarning xususiyat katalogi asosida gumonlanuvchining hududiy mansublik darajasini aniqlash mumkin.

4. Noadabiy grammatik shakllarning xususiyat katalogi asosidagi lingvistik tahlil 2 usulda amalga oshishi mumkin:

a) gumonlanuvchining shaxsiy yozishmalari asosidagi noadabiy grammatik shakllarning xususiyat katalogini tashkil etish;

b) hududiy xoslangan noadabiy grammatik unsurlarning xususiyat katalogini tashkil etish.

Shu ikki usul asosidagi xususiyat kataloglari kodlashtirilib, prototipi hosil qilinib, dalil korpus yaratish mumkin. Gumonlanuvchining yozishmalari asosida xususiy dalil korpusi yaratiladi va u hududiy dalil korpusi bilan qiyosan tahlil qilinadi. Bu lingvistik ekspertizaning aniqligi va shaffofligini ta'minlab beradi.

5. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik shakllarni aniqlashda 4 ta viloyat shevasiga oid matnlar misol tariqasida olindi. Tahlil xulosasiga ko'ra Toshkent va uning atrofidagi hududlarga xos shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik shakllar faol qo'llaniladi. Xorazm va uning atrofida esa noadabiy grammatik shakllar, nisbatan, kam qo'llaniladi. Shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik shakllarning tahlilida sifat va miqdor usuli taklif sifatida berildi.

6. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy sintaktik shakllarni aniqlashda qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Uchta hudud misolida har bir hududning noadabiy sintaktik shakllardan tashkil topgan dalil korpusi yaratilishi taklif sifatida berildi.

UCHINCHI BOB

SHAXSIY YOZISHMALARDA NOADABIY FONETIK UNSURLARNING HUDUDIIY XOSLANISHI

3.1. Shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik hodisalar tasnifi va turlari

Taraqqiyot natijasida tilshunoslik tarmoqlari kengaya bordi. Endilikda esa fanlar integratsiyasi yuzaga keldiki, bu ham turli sohalarda o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi. Shuningdek, areal tilshunoslik va huquq tizimi mutanosibligida bugungi kunda ko'pgina jinoyat turlarini aniqlash mumkin. Areal tilshunoslik – adabiy tilga oid birliklarning leksik, semantik, grammatik va sintaktik jihatdan hududiy xususiyatlarini o'rganuvchi sohadir. Zotan, sud-huquq tizimida shunday muammoli yozishmalar mavjudki, ularning tahlili bevosita areal tilshunoslik jihatidan aniqlansa, ziddiyatli holatga ancha yechim topiladi.

Nutqda so'z, frazema, gaplar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Ular unli va undosh tovushlarsiz yuzaga chiqa olmaydi. Tovushlar esa turli fonetik jarayonlarga uchrab, o'zining hududiy xarakterini shakllantiradi. So'zlar va birikmalarni nutqda ixcham, qulay aks ettirish maqsadida tovushlararo moslashish hodisasi yuzaga keladi. Ushbu fonetik jarayonlar har bir insonning nutqida aks etadi va bu yozishmalarda ham o'z ifodasini topishi mumkin. Demak, fonetik jarayonlar nutqning ixchamligi, aniq va ravonligini ta'minlab turuvchi bir vositadir. Shaxsiy yozishmalardagi noadabiy unsurlar yozuvchining individual xususiyatlarini aniqlashda ancha qo'l keladi. Bu borada jahon tilshunosligida noadabiy unsurlar tahlili asosida anonim yozishmalar muallifini aniqlashga qaratilgan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan⁹⁷. Bu esa lingvistik ekspertizada qator masalalarning yechimiga sabab bo'lishi mumkin. O'zbek tilshunosligida bu yangi soha bo'lib, ko'pgina muammoli masalalar o'z yechimini kutmoqda. Noadabiy fonetik hodisalar misolida shaxsning intellektual salohiyati, ijtimoiy va hududiy mansubligi, mentaliteti kabi xarakterli jihatlarini aniqlab olsa bo'ladi.

Fonetik hodisalar – og'zaki va yozma nutqda uchraydigan turli tovush o'zgarishlaridir. So'zlar tarkibida tovush ortishi, tushishi va tovushlarning o'zaro o'rin almashinuvi, o'zaro muvofiqlashuvi kabi hodisalardir⁹⁸. Jumladan, “yiroq” so'zi “j” lovchi shevalarda “jiroq” tarzida talaffuz etiladi. Bunda y va j tovushlari almashinuvi yuz bergan. Yoki boshqa sheva variantida “iroq” tarzida aks etsa, so'z boshida tovush tushish hodisasi yuz beradi.

⁹⁷ Koppel M., Schler J., Zigdon K. Determining an author's native language by mining a text for errors. In Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining - KDD '05. – New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947, 2005. – 624-628 pp.; Malmasi S., Dras M. Multilingual native language identification. Natural Language Engineering, 23(2), doi:10.1017/S1351324915000406, 2015. – 163-215 pp.; Malmasi S., Tetreault J., Dras M. Oracle and Human Baselines for Native Language Identification. Proceedings of the Tenth Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications, 2015. – 172-178 pp. doi:10.3115/v1/w15-0620; Shatz I. Native Language Influence During Second Language Acquisition: A LargeScale Learner Corpus Analysis. Proceedings of the Pacific Second Language Research Forum, 2016. – 175-180 pp.

⁹⁸ Barnoyeva Z.S. XVII-XIX asr nazmida fonetik hodisalar va fonetik qonuniyatlar: Mag. ...diss. – Buxoro, 2016. – 33 b.

Nutqdagi fonetik hodisalarning o‘ziga xos tomoni shundaki, ayrim fonetik jarayonga uchragan so‘zlar yozuvda aks etishi va me‘yor darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Bu jarayon imloviy tamoyillar (fonetik, morfologik, shakliy va tarixiy-differensial) ning yuzaga kelishiga zamin hozirlagan⁹⁹. Masalan, *sanoq, yasha, o‘yna* kabi. Garchi *sanoq va yasha* so‘zlarida tovush almashinishi yuz bersa-da, yozuvda aytilganiga muvofiq aks etadi. *O‘yla* so‘zida esa o‘zakda tovush tushish hodisasi bilan birgalikda yozma nutqda namoyon bo‘ladi. Ammo shunday so‘zlar qatori borki, ularda fonetik hodisalar kuzatilsa ham, yozuvda adabiy me‘yorga muvofiq tarzda aks etadi. Ya’ni bunday birliklar doimo imlo qoidalariga amal qilgan holda yoziladi. Masalan, *ketti-ketdi, tussiz-tuzsiz, o‘shxaydi-o‘xshaydi* kabi. Demak, bunday birliklar nutqning ikki shaklida ham adabiy til me‘yorlaridan chetga chiqqan, ya’ni noadabiy fonetik unsurlar sifatida namoyon bo‘ladi. Albatta, bu borada ilmiy, publitsistik va rasmiy-idoraviy uslubdagi matnlar emas, balki so‘zlashuv uslubiga xos og‘zaki va yozma nutq ko‘rinishlarida ahamiyatlidir.

3.1.1-jadval

| <i>Navoiy shevasiga oid noadabiy fonetik unsurlarning xususiyatlar katalogi</i> | | | | |
|---|--------------------|------------------|--|--|
| | Xususiyat | Xato turi | Xato turining tavsifi | Misollar |
| 1 | O‘zakda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan | ... <i>qilaman db</i> ,... |
| 23 | O‘zakda | Yozuv, imlo | R tovushi tushishi; h o‘rnida x farqlanmagan | <i>Hoz</i> i eng <i>mu</i> ximi... |
| 4 | O‘zakda | Yozuv | L tovushining tushishi | <i>ba</i> l olish... |
| 5 | O‘zakda | Yozuv | L tovushining tushishi; o‘ tovushi u ga almashgan | ... <i>nasib busa</i> ... |
| 6 | O‘zakda | Tanlov, imlo | Sinkopa; x va h tovushlari farqlanmagan | <i>Xali</i> <i>te</i> lvizrdan... |
| 7 | O‘zakda | Yozuv | A tovush ortishi; reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan | ... <i>bizani boqsh</i> uchun... |
| 8 | O‘zakda va shaklda | Yozuv | Tovush ikkilanishi; eliziya hodisasi; o‘ tovushi u ga almashgan | ... <i>kuppala pul bervolay</i> ... |
| 9 | O‘zakda va shaklda | Tanlov | Apakopa so‘z oxirida a tovushining tushishi va eliziya; a tovushi o ga almashgan | ... <i>moshin oberolay</i> ... |
| 10 | O‘zakda va shaklda | Yozuv va tanlov | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan va l tovushi tushgan; ruscha so‘z qo‘shib yozilgan | ... <i>borshni plan qiganman</i> ... |
| 11 | O‘zak va shaklda | Yozuv | Eliziya hodisasi; o‘ tovushi u ga almashgan | ... <i>usherda olingan</i> ... |
| 12 | O‘zak va shaklda | Yozuv | Eliziya hodisasi; r tovush tushishi; o‘ tovushi u ga almashgan | ... <i>usherlada</i> aylanish <i>orzularimdan biri</i> . |

⁹⁹ Otamirzayeva S., Yusupova M. O‘zbek tili: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2004. – 103 b.

| | | | | |
|----|------------------|-------|--|--|
| 13 | O'zakda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan; l tovushining tushishi; o' tovushi u ga almashgan | ... <u>hs bumagan</u> ... |
| 14 | Shaklda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan; o' tovushi u ga almashgan | ... <u>lekin uzmdamasdim</u> ... |
| 15 | O'zakda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan; l tovushi tushgan | ... <u>hs qimaganman</u> . |
| 16 | O'zakda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan | <u>Hozr hammamiz</u> ... |
| 17 | O'zakda | Yozuv | L tovush tushishi; x va h farqlanishi; o' tovushi u ga almashgan | ... <u>hafa buganman</u> ... |
| 18 | O'zakda | Yozuv | Assimilyatsiya jarayoni yuz bergan | <u>Enni hamma</u> ... |
| 19 | O'zakda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan | ... <u>hayotimga krishingni</u> |
| 20 | O'zakda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan; o' tovushi u ga almashgan | ... <u>asabmga uynab</u> ... |
| 21 | O'zakda | Yozuv | L tovush tushishi; x va h farqlanishi; o' tovushi u ga almashgan | ... <u>shunaqa busa kerak</u> ... |
| 22 | O'zakda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan; olmosh so'zlashuv uslubida qo'llangan | ... <u>mani qizim db</u> ... |
| 23 | O'zakda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan | ... <u>xch qachon</u> ... |
| 24 | O'zakda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan | ... <u>hozr 19 yoshdaman</u> ... |
| 25 | Shaklda | Yozuv | Eliziya hodisasi; r tovush tushgan | ... <u>odam tuyg'ulani qalbida</u> ... |
| 26 | Shaklda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan | ... <u>qaytarsh</u> ... |
| 27 | O'zakda | Yozuv | L tovushi tushgan | <u>kemadi</u> . |
| 28 | O'zakda | Yozuv | L tovushining tushishi; eliziya jarayoni yuzaga kelgan | ... <u>aytomasamam kerak</u> ... |
| 29 | O'zakda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa talaffuz etilgan | ... <u>szga</u> ... |
| 30 | O'zak va shaklda | Yozuv | L tovushining tushishi; qo'shimchada r tovush tushishi; o' tovushi u tovushi bilan o'rin almashgan | ... <u>yoshlikda buganlani</u> ... |

| | | | | |
|----|--------------------------|---------------|--|--|
| 31 | O'zakda | Yozuv | Tovush almashinishi: e va i tovushlari almashgan | ... <i>darsim boridi</i> ... |
| 32 | Shaklda | Yozuv | Tovush almashinishi: -ay ravishdosh shakli i tarzida ifodalangan | ... <i>hohlamiman</i> ... |
| 33 | Shaklda | Yozuv | Tovush almashinishi: -ay ravishdosh shakli i tarzida ifodalangan | ... <i>har kun uyliman</i> ... |
| 34 | Shaklda | Yozuv | Tovush almashinishi: -ay ravishdosh shakli i tarzida ifodalangan; eliziya hodisasi yuz bergan | <i>Xchqeqqa bormiman</i> ... |
| 35 | O'zak va shaklda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa ifodalangan | ... <i>yaxshi kurshmni</i> ... |
| 36 | Shaklda | Yozuv | Tovush almashinishi: -ay ravishdosh shakli i tarzida ifodalangan | ... <i>sovg'a tanlamiman</i> ... |
| 37 | O'zakda | Yozuv | L tovushi tushgan | ... <i>sovg'a qisalayam</i> |
| | O'zak va shaklda | Yozuv | Reduksiya: i tovushi qisqa ifodalangan | ... <i>oyoqqa turshmga</i> ... |
| 38 | Shaklda, so'z qo'llashda | Yozuv, tanlov | Reduksiya: i tovushining qisqa ifodalanishi; aylantiraman noo'rin qo'llangan | ... <i>sizga dunyoni aylantraman</i> ... |
| 39 | Shaklda | Tanlov | Tovush almashinishi: -gan zamon shakli -u tarzida ifodalangan | ... <i>vaqtli uxladim</i> ... |
| 40 | Shaklda | Yozuv | R tovushi tushgan | ... <i>kitoblani judayam</i> ... |
| 41 | Shaklda | Yozuv | Tovush almashinishi: -ay ravishdosh shakli i tarzida ifodalangan; l tovushi tushgan; eliziya hodisasi yuz bergan | ... <i>aytomiman</i> ... |

Tahlilda amerikalik tadqiqotchi V.Milomning tillararo milliy tilni farqlash metodidan foydalanildi¹⁰⁰. Ushbu metodga ko'ra, olima V.Milom ingliz tilini biluvchi sakkizta millat vakillari orasidan sof milliy til egasini aniqlab olishni maqsad qiladi. Buning uchun har bir millat vakilidan yozishmalar olinadi va ular asosida yuqoridagidek xususiyat katalogi tashkil etiladi. So'ng o'sha vakilning hududiga xos so'zlar yig'iladi va ular asosida ham umumiy xususiyat katalogi tashkil etiladi. Yozishmalarning xususiyy va umumiy xususiyat kataloglari kodlashtirilib dalil korpusi yaratiladi. Milliy til egasini shu dalil korpusi orqali aniqlash tez va oson amalga oshadi. Ushbu metodni viloyatlararo noadabiy unsurlarni aniqlash maqsadida amalga oshirsa bo'ladi. O'zbekiston hududidagi shevalar misolida tahlilni keltirishdan oldin, bitta hududning shevasida aks etadigan noadabiy fonetik hodisalar chastotasini aniqlash maqsad qilib olindi. Bunda Navoiy


¹⁰⁰ Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages. 2019. – 36 p.

viloyati Xatirchi tumanida yashovchi shaxsdan 5 ta ijodiy bayon olindi va matndagi noadabiy fonetik unsurlar saralandi. Maqsad gumonlanuvchi har qanday shaxsning yozishmalarida noadabiy unsurlarning chastotasini aniqlash shaxs haqidagi ma'lumotlarga nisbatan oydinlik kiritadi. Bunda, albatta, darajalanish mavjud. Ya'ni noadabiy tovushdan tortib gaplargacha lingvistik tahlil qilib chastotasi aniqlansa, o'sha shaxs yozishmalarining korpusini yaratilishiga asos bo'ladi. Keyingi bosqichda shu korpus barcha ijtimoiy muassasalarga tarqatiladi, bunda, albatta, yuridik hamkorlik yo'lga qo'yiladi. Shundan so'ng shaxs murojaat qilgan muassasa kompyuteridagi korpus asosida shaxs haqidagi ma'lumotlar solishtiriladi. Bu jinoyat ishining ochilishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Tahlil natijasini koeffitsiyentlarda hisoblash metodi shaxsning individual xususiyatlarini matematik ko'rsatkichlarda berilishini ta'minlaydi. P.Makdonaldning CEFR xalqaro sertifikat talabgorlarining til korpusini yaratish uchun ishlab chiqqan foiz ulushli klassifikatsiyasidan foydalanildi¹⁰¹. Natija quyidagi jadvalda aks etgan:

3.1.2-jadval

| | Fonetik hodisalardagi xato tiplari | Xatolar soni toifa bo'yicha | Asosiy 9 ta xatoning foiz ulushi | Umumiy foiz ulushi |
|----------------------------|--|------------------------------------|---|---------------------------|
| Tovush tushishi | Umumiy tovush tushishi | 17 | 27,2 % | 65,6 % |
| | Reduksiya | 16 | 25,6 % | |
| | Eliziya | 6 | 9,6 % | |
| | Apakopa | 1 | 1,6 % | |
| | Sinkopa | 1 | 1,6 % | |
| Tovush almashinishi | Tovush almashinishi | 17 | 27,2 % | 28,8 % |
| | Assimilyatsiya | 1 | 1,6 % | |
| Tovush ortishi | Tovush ortishi | 1 | 1,6 % | 3,2 % |
| | Tovush ikkilanishi | 1 | 1,6 % | |
| | Eng asosiy 9 turga oid xatolarning jami | 61 | 100% | |

¹⁰¹ MacDonal P. "We All Make Mistakes!". Analysing an Error-coded Corpus of Spanish University Students' Written English, in Complutense Journal of English Studies, 24. 2016. 103-129.



Navoiy viloyatida aynan bitta shaxsga tegishli 5 ta matn misolidagi tahlilga ko‘ra, ushbu shaxs nutqida eng ko‘p tovush tushish fonetik hodisasi yuz beradi. Ya’ni bu matematik ko‘rsatkichda 65,6 % ni tashkil etadi. Tovush almashinish hodisasi 28,8 % da bo‘lib, eng kam ko‘rsatkich tovush ortish fonetik hodisasida kuzatiladi. Noadabiy tovush ortish fonetik hodisasi esa 3,2 % ni tashkil etadi. Tahlilda diqqatni tortadigan holat shuki, so‘z o‘rtasida *l* va *r* tovushlarining so‘z tarkibidan tushib qolish jarayoni ko‘p kuzatiladi. Bu shartli ravishda umumiy tovush tushish hodisasi deb belgilandi. Tahlilda umumiy so‘z boshi, o‘rtasi va oxirida tovush tushishlar ko‘rsatkichi 27,2 % ni tashkil etdi. Bu, asosan, so‘zning o‘zak qismida sodir bo‘ladi. Bu sonor tovushlar tilning uchida hosil bo‘ladi va til oldi tovush hisoblanadi. *L* va *r* tovushi so‘z ortasida tushib qolish hodisasi, asosan, qarluq, ba’zan qipchoq lahjasida ko‘p uchraydi: *kelgan – kegan, qilgan – qigan, keltir – ketir, kel – ke* kabi¹⁰². Shuningdek, matnlarda tovush tushishining reduksiya varianti ham salmoqli o‘rinni egalladi. Bu 25,6 foizni tashkil etdi. Navoiy hududiga oid shevada o‘zak va qo‘shimchalar doirasida *i* tor unlisining qisqa, bilinar-bilinmas aytilishi, ko‘pincha, fe’l so‘z turkumi doirasida kuzatiladi: *aylantraman, qaytarsh, uzmdamasdim* kabi. Reduksiyaga uchragan unlilar juda qisqa talaffuz etilib, fonetik transkripsiyada yarim tovush sifatida eshitiladi. Bunda tor unlilar, odatda, keng unlilarga nisbatan ko‘proq qisqa talaffuz etilish xususiyatiga ega¹⁰³. Bundan tashqari, tovush tushishining turi bo‘lmish eliziya hodisasi Navoiy viloyati shevasida, nisbatan, past ko‘rsatkichni berdi. Bu 9,6 % ni tashkil etdi: *aytomasamam, bervolay* kabi. Ma’lumotlarga ko‘ra, eliziya fonetik jarayoni deyarli barcha shevada uchraydi va u ikki usulda amalga oshadi¹⁰⁴. Birinchi usulda mustaqil ma’noli so‘zlar o‘rtasida tovushlar muvofiqlashuvi yuz beradi: *o‘ta olmadi – o‘tolmadi, kiya olmadi – kiyolmadi, bu yer – bu:r, shu yer – she:r* kabi. Ikkinchi

¹⁰² Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги: Пед. ин-тларининг ўзбек тили ва адабиёти, ун-тларнинг филология фак-тлари талабаларн учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 129 б.

¹⁰³ Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги: Пед. ин-тларининг ўзбек тили ва адабиёти, ун-тларнинг филология фак-тлари талабаларн учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 115 б.

¹⁰⁴ <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

usulga ko‘ra, mustaqil ma’noli so‘zlarga to‘liqsiz fe’llarning muvofiqlashuvi natijasida sodir bo‘ladi: *bo‘lar ekan–bo‘leykan, kelar ekan–kelaykan* kabi. Shuningdek, shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik hodisalardan apakopa va sinkopa bir xil ko‘rsatkichga ega.

Noadabiy tovush almashinish jarayoni Navoiy viloyatida yashovchi shaxsning yozishmalarida 28,8 % ni tashkil etdi. Tahlilda unlilar doirasida tovush almashinishi ko‘proq kuzatiladi va u 27,2 % ko‘rsatkichga ega. Bunda *-ay* ravishdosh shaklining *-i* tovushi bilan o‘rin almashinuvi fe‘l so‘z turkumidagi so‘zlarda ko‘p uchraydi: *tanlamiman, hohlamiman, bormiman* kabi. Navoiy hududining o‘ziga xos jihati tarzda noadabiy fonetik hodisalardan assimilyatsiya jarayoniga uchragan *enni* so‘zi, nisbatan, faoldir. *Endi* so‘zida *n* tovushi o‘zidan keyingi *d* tovushini o‘ziga moslashtirib olyapti. Tovush ortishi hodisasi esa ushbu hududga mansub shaxsning matnida, nisbatan, kam ko‘rsatkichni tashkil etadi.

Noadabiy fonetik hodisalar yuzasidan Navoiy viloyati Xatirchi tumani hududida yashovchi shaxsning 5 ta turli mavzudagi yozishmasi tahlil qilindi (yozishmalar ilovada berilgan). Unga ko‘ra ushbu shaxsning yozma nutqida noadabiy tovush tushishi 65,6 % ni, tovush almashinishi 28,8% ni va tovush ortishi 3,2 % ni tashkil etdi. Ushbu tahlilda gumonlanuvchi shaxsning dalil sifatida olingan yozishmalaridagi noadabiy lingvistik birliklar klassifikatsiya qilinib, xususiy dalil korpusi yaratilishi uchun asos bo‘lishi mumkin. Bu, keyinchalik, istiqbolli natijalarga olib kelishi kutilmoqda.

Demak, shaxsiy yozishmalarda noadabiy tovush almashinishi jarayoni ko‘p kuzatiladi. Bu koeffitsiyent muammoli shaxsiy yozishmalarning lingvistik tahlili uchun muhim ahamiyatga ega. Ya’ni adresant haqidagi umumiy va xususiy xulosalarni shakllantirish, lingvistik ekspertiza jarayoniga ancha oydinlik kiritadi. Zero, insonning shaxsiyati, xarakter-xususiyati, ijtimoiy mansubligi, ilmiy salohiyati uning yozishmalarida aks etadi.

3.2. Shaxsiy yozishmalardagi noadabiy unli tovushlarning hududiy xoslanishi

Lingvistik geografiya, areal lingvistika sohalarining huquq tizimi bilan integratsiyalashuvi shaxsiy yozishmalarda til birliklarining hududiy xoslanishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Areal lingvistika va lingvistik geografiya sohaları bo‘yicha Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida 20 dan ortiq turkiy til va ularning shevalari lingvistik-geografik metod asosida tahlil qilingan¹⁰⁵. XIX asrning 1-yarmida italyan olimi K.Bartol areal lingvistika terminini o‘z tadqiqotida qo‘llagan va, keyinchalik, bu soha Yevropa olimlari e’tiboriga tushgan. Uning fikricha, areal lingvistika til, dialekt, shevalarni hudud doirasiga muvofiq tarzda o‘rganuvchi tilshunoslik tarmog‘idir. Zero, har bir hudud o‘z tili, mentaliteti, urf-odat va an’analariga ega. Noadabiy fonetik unsurlar unli va undosh harflardan iborat so‘zlarni ixcham va qulayroq ifodalashga urinish natijasida yuzaga

¹⁰⁵ Ernazarov Tolib. Lingvistik geografiya va areal lingvistika.
<https://www.youtube.com/embed/vxyyVGvDGWs>

keladi. Unli va undosh tovushlarni o‘rganuvchi bo‘lim fonetika-fonologiya bo‘lib, uning asosiy til birligi fonema hisoblanadi. Fonema so‘z va birliklarning ma’noli qismlarini tashkil etuvchi, eng kichik til birligidir¹⁰⁶. Noadabiy leksik qatlam qatori ular tarkibidagi unli va undosh tovushlar ham adabiy me’yor chegarasidan tashqarida sanaladi. Shuningdek, “...biz talaffuz qilayotgan so‘zlarning ma’nosini farqlash uchun xizmat qiluvchi fonemalarni ongli ravishda bilish qobiliyatiga ega emasmiz; yana ham past darajada har bir fonemani farqlanish belgilariga ega bo‘lishga imkon beruvchi fonologik qarama-qarshiliklarni tushunib yetmaymiz”¹⁰⁷. Natijada inson o‘zi anglamagan holda noadabiy unli va undosh tovushlarni talaffuz etadi va bu esa shaxsning ijtimoiy-hududiy mansubligini belgilab beradi. Tayanch shevalardan biri hisoblangan Toshkent shevasiga oid unlilar tasnifi quyidagicha: til oldi unlilar, oraliqdagi unlilar va til orqa unlilardir¹⁰⁸. Professor V.V.Reshetov buni qo‘llab-quvvatlagan holda Toshkent shevasiga, asosan, *i, u, o‘, a* unlilarini oraliq uchinchi unlilar deb ataydi. Bunda, albatta, unlilarning hosil bo‘lishidagi fiziologik jarayon asos qilib olinadi. Olimlarning ta’kidlashicha, unli tovushlarning turli variantda talaffuz qilinishida fiziologik holatlarning ta’siri yo‘q, balki turli akustik-artikulatsiyaga ega undosh tovushlarning o‘zaro munosabati asosida yuzaga keladi¹⁰⁹. M.Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, fonema bilan harf tushunchalarining farqi fonetik qonun sifatida tushunilgan, ya’ni fonemaning so‘z ma’nosini farqlash uchun xizmat qiluvchi nutq tovushlari va sotsial qiymatga ega bo‘lgan tilning eng kichik asosiy birligi ekanligi anglashiladi. Buni devondagi misollar tahlilidan yaqqol sezish mumkin. Chunonchi, *ḡōz-bo‘z* yumshoq (ya’ni, til oldi, lablangan) *ō (y̆)* unli bilan kelganda *material, mato turi* ma’nosida, *ḡōz-bo‘z* qattiq (ya’ni, til orqa, lablangan) *o (y̆)* unli bilan kelgan *bo‘z yer va rang (kulrang)* ma’nolarida ifodalangan. Bu so‘zlar tarkibidagi *o/ō, y/y̆* unlilari nutqda o‘ziga xos farqlanuvchi talaffuzga egaligi bilan har qaysisi XI-XIV asrlarning yodgorliklari tilida qo‘llangan unli fonemalar tilning ko‘tarilish o‘rniga ko‘ra til orqa (qattiq), til oldi (yumshoq); labning ishtirokiga ko‘ra lablangan lablanmagan kabi¹¹⁰. Tilning ko‘tarilish holatiga ko‘ra keng unlilar *a (ā) ə, o‘rta keng (yoki yarim tor) unlilar o, ö, (ə), tor unlilar y, ʏ, u* alohida mustaqil fonema sanalgan va ular yozuvda to‘rt harfni talab etgan, ya’ni qattiq talaffuzli til orqa, lablangan *o, y* unli fonemalari hamda *ö, y̆* yumshoq talaffuzli til oldi lablangan unli fonemalari kabi¹¹¹. Nutq birliklarining bunday xususiyatlari eski o‘zbek tilining barcha davrlarida saqlangan, hozirgi o‘zbek dialekt va shevalarida ham mavjud. O‘zbek tili unlilarining fonetik tasnifi yuzasidan N.S. Trubetskoy, Y.D. Polivanov, V.V Reshetov, E.V. Serovtyan va boshqa tilshunoslarning tadqiqotlarida yoritilgan¹¹². Ushbu olimlarning unli tovushlar yuzasidan tasnifi turlichadir. Bu

¹⁰⁶ Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 8 b.

¹⁰⁷ Леви-Строс К. Структурная антропология. – Москва, 1985. – 54 б.

¹⁰⁸ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – 14 б.

¹¹⁰ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent, 1963. – 432 b

¹¹¹ Niyozova O.X. XI-XIV asrlar o‘zbek yozma adabiy tilining fonetik va morfologik xususiyatlari: Mag. ...diss. 2017. – B. 28.

¹¹² Трубетской Н.С. Основы фонологии. – М., 1960; Трубетской Н.С. Некоторые соображения относительно морфонологии. “Пражский лингвистический кружок”. Изд., Прогресс, – Москва, 1967.; Поливанов Е.Д. Фонологическая конвергенция. №3. 1957; Поливанов Е.Д. Узбекская

ularning masalaga qaysi tomonlama yondashganiga ko'ra farqlanadi. Nutqiy hosilalardagi unli tovushlarning noadabiy qo'llanilishi ham individual xarakter, ham ijtimoiy xarakter kasb etadi. Ma'lum hududga mansub shaxs o'ziga xos tarzda tovushlarni talaffuz etadi. Bu esa matnshunoslik, dialektologiya, areologiya kabi sohalar qatori lingvistik ekspertiza uchun ham ahamiyatli sanaladi. Shaxsiy yozishmalarning audio va video tarzidagi turlarida unli va undosh fonemalarning akustik-artikulatsion vazifalari maxsus fonoskopik apparatlar bilan amalga oshiriladi. Bundan farqli o'laroq, qo'lyozma matn va elektron bosma yozuvdagi yozishmalarda esa fonemalarni inson talaffuz qilganidek yozuvda ham aks ettirishi mumkin. Bu yozuv ijrochisining shaxsiy intellektual xususiyatlaridan darak beradi. Lingvistik ekspertizada anonim xatning eng kichik lingvistik xususiyatlarigacha xatolar turini guruhlash, kodlash va shu asosida dalil korpusi yaratish masalasida amerikalik olimlar tomonidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan¹¹³. Ushbu tadqiqotlarga tayangan holda O'zbekistonning Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari misolida noadabiy unli tovushlar qiyosan tahlil qilindi. Bunda har ikki hududga mansub 20 yosh atrofidagi o'rta ma'lumotli shaxslardan 5 ta mavzuda qo'lyozma tarzida ijodiy bayon olindi (ijodiy bayonlar ilovada berilgan). Bayondan noadabiy so'z va birikmalar ajratildi va maxsus klassifikatsiya qilindi:

3.2.1-jadval

| <i>Buxoro shevasiga oid noadabiy unli tovushlarining xususiyatlar katalogi</i> | | | |
|---|------------------|---|---|
| Xususiyat | Xato turi | Xato turining tavsifi | Misollar |
| O'zakda | Yozuvda | O tovushi a tarzida ifodalangan | <i>...odamla bor joyni yamon ko'raman...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | E harfi a tarzida ifodalangan | <i>Man niobichni tabriklayman...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | E harfi a tarzida ifodalangan; u va i harfi ifodalanmagan | <i>Shusizam urshib katta bo'gansan man blan...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | U harfi ifodalanmagan | <i>Tug'lgan kuning muborak bo'sin.</i> |
| O'zakda | Yozuvda | E harfi a tarzida; o harfi a tarzida ifodalangan | <i>...eng erkataylog'i man edim bulani arasiga...</i> |
| Shaklda | Yozuvda | I harfi ifodalanmagan | <i>Siz zo'r qilasz...</i> |
| Shaklda | Yozuvda | A harfi o tarzida; u harfi ifodalanmagan | <i>Yangamlom bilan tog'om xabar oloptila...</i> |
| Shaklda | Yozuvda | A harfi o tarzida ifodalangan | <i>Xar kuni maktab boropman.</i> |
| O'zakda | Yozuvda | A harfi o tarzida ifodalangan | <i>...domlolari maxtaydi...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | O harfi a tarzida ifodalangan | <i>...tamosha qiganday ...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | E harfi i tarzida ifodalangan | <i>Ulani nanasi har zamon tilifon qladi...</i> |

диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент, 1933; Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978; Севортян Э.В. Материалы по сравнительной фонетике турецкого, азербайджанского и узбекского языков. Часть 1, Фонетика. – Москва, 1955; Murodova N.Q. O'quvchilar nutqida mahalliy shevalar ta'sirida vujudga kelgan talaffuz hamda imlo xatolari va ularni tuzatish usullari: Ped. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1993. – B. 28.

¹¹³ Kochmar E. Identification of a writer's native language by error analysis. (Master's thesis). University of Cambridge, UK. 2011; Shuy R. DARE's Role in Linguistic Profiling. Dictionary of American Regional English, 4(3) 2001; Solan L. M. Intuition Versus Algorithm: The Case of Forensic Authorship Attribution. Journal of Law and Policy, 21(2), 2013; Retrieved June 5, 2019. from <https://brooklynworks.brooklaw.edu/jlp/vol21/iss2/13>.; O'Donnell M. Demonstration of the UAM CorpusTool for text and image annotation. Proceedings of the 46 th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics on Human Language Technologies Demo Session - HLT 08, 2008; Hasselgård H., Ebeling S.O. At the interface between Contrastive Analysis and Learner Corpus Research: A parallel contrastive approach. Nordic Journal of English Studies. 1. 17. 182-214. 10.35360/njes.438. 2018; Coulthard M. On the use of corpora in the analysis of forensic texts. International Journal of Speech Language and the Law. 1. 1994. – 27-43 pp.

| | | | |
|------------------------------|---------------|--|---|
| Shaklda | Yozuvda | I harfi ifodalanmagan | <i>Qimaysz, ishiz ko'p...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | O harfi a tarzida; I harfi u tarzida ifodalangan | <i>...sizdan savumayman...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | O harfi a tarzida ifodalangan; u va I tarzida ifodalangan | <i>Apalarim uchin kettiz...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | O harfi a tarzida ifodalangan | <i>Apam avqotni sizday qimaydi.</i> |
| O'zakda | Yozuvda | E harfi a tarzida ifodalangan | <i>Man 3 yoshga kattardim...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | O harfi a tarzida ifodalangan | <i>Sizni yamonam sog'indim...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | O' harfi o tarzida ifodalangan | <i>Uyga keгим yoq...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | E harfi I tarzida ifodalangan | <i>Hich gapirmadimda...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | A harfi o tarzida ifodalangan | <i>...holi bachcha edim...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | E harfi a tarzida ifodalangan | <i>...man gapirayda...</i> |
| O'zak va shaklda | Yozuvda | A harfi e tarzida ifodalangan | <i>...nersalaga aqlm yetadi...</i> |
| Orfografiya, so'z qo'llashda | Yozuv, tanlov | E harfi I tarzida ifodalangan; X va h tovushi farqlanmagan; ruscha so'z qo'llangan | <i>Prosta xich kimga...</i> |
| Orfografiya, so'z qo'llashda | Tanlov | O harfi u tarzida ifodalangan; X va h farqlanmagan; doktor so'zi o'rnida duxtur qo'llangan | <i>Duxturlikka xavasim keladi...</i> |
| Olmosh | Tanlov | E tovushi a tarzida ifodalangan, Men kishilik olmoshi man tarzida | <i>...man avqot yeshni...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | E tovushi i tarzida; a harfi e tarzida ifodalangan | <i>...xich nersa bemasayam...</i> |
| So'z qo'llashda | Tanlov | A tovushi e tarzida ifodalangan | <i>...hamma nersa yetadi...</i> |
| Olmosh | Tanlov | E tovushi a tarzida ifodalangan, Men kishilik olmoshi man tarzida ifodalangan | <i>...manga ko'p narsa...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | O harfi a tarzida ifodalangan | <i>Sila bo'salariz hammasi bashqacha bo'ladi.</i> |
| O'zakda | Yozuvda | I tovushi ifodalanmagan | <i>...yaxshmsiz...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | I tovushi ifodalanmagan | <i>Brovni gaprsa bo'llida...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | I tovushi ifodalanmagan | <i>Uyga o'tirb egzaminga tayyorlanishm kerag.</i> |
| O'zakda | Yozuvda | I tovushi ifodalanmagan | <i>6 sovat o'qidm...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | I tovushi ifodalanmagan | <i>...keyn jo'rala fudbol...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | O' tovushi o tarzda ifodalangan; i harfi ifodalanmagan | <i>Yoqliklari blinadi...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | U tovushi i tarzda ifodalangan; i tovushi ifodalanmagan | <i>Bugin ishm ko'p...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | A tovushi e tarzida ifodalangan | <i>...xohlgan nersamni...</i> |
| O'zakda | Yozuvda | O' tovushi o tarzda ifodalangan | <i>Bulani qilishgayam ishi yoq.</i> |

3.2.2-jadval

| Qashqadaryo viloyati shevasiga oid noadabiy unli tovushlarning xususiyatlar katalogi | | | | |
|---|------------------|------------------|-------------------------------|---|
| | Xususiyat | Xato turi | Xato turining tavsifi | Misollar |
| 1 | Yozuvda | Texnik | A tovushi tushgan | <i>...yoqtirgan sovg'...</i> |
| 2 | O'zakda | Tanlov | O harfi a tarzida ifodalangan | <i>...ramantishni va o'zgacha..</i> |
| 3 | O'zakda | Tanlov | O' tovushi u ga almashgan | <i>...xaf ostiga quymoqdalar...</i> |
| 4 | O'zakda | Tanlov | O harfi u tarzda ifodalangan | <i>...duxturlar kurashmoqda...</i> |
| 5 | O'zakda | Tanlov | O harfi a tarzda ifodalangan | <i>...xali hamon karana virus...</i> |
| 6 | O'zakda | Tanlov | O' harfi u tarzda ifodalangan | <i>...toliqtirib quyvang...</i> |
| 7 | O'zakda | Tanlov | O' harfi u tarzda ifodalangan | <i>...ishni uylamang keling...</i> |
| 8 | O'zakda | Tanlov | O' harfi u tarzda ifodalangan | <i>...o'zizni uylasayiz bo'maydimi...</i> |
| 9 | Shaklda | Yozuv | I harfi u tarzida ifodalangan | <i>...o'g'liz sizlarni yuzuzni...</i> |
| 10 | O'zakda | Tanlov | O' harfi u tarzda ifodalangan | <i>...qurquv vahim bosmoqda.</i> |

| | | | | |
|----|---------|--------|--|--|
| 11 | O'zakda | Tanlov | O' harfi u tarzda ifodalangan | ...vaqtim qolganini <u>uylasam qurqib</u> ketyapman... |
| 12 | O'zakda | Tanlov | O' harfi u tarzda ifodalangan | ... <u>uzi</u> oz vaqt qoldi... |
| 13 | O'zakda | Tanlov | O' harfi u tarzda ifodalangan | ...uqishga kiraman. |
| 14 | O'zakda | Tanlov | U harfi o' tarzida ifodalangan | ...sizni <u>o'y</u> ishlari charchatib quymadimi... |
| 15 | O'zakda | Tanlov | I harfi ifodalanmagan | ... <u>bilmini</u> ilmini ayamasin... |
| 16 | O'zakda | Tanlov | U harfi o' tarzida ifodalangan | O'z <u>ko'chim</u> bilan erishaman. |
| 17 | O'zakda | Tanlov | So'roq belgisi qo'yilmagan; o' tovushi u tarzida ifodalangan | ... <u>kunglingdan</u> joy o'g'irlamadimi... |
| 18 | O'zakda | Tanlov | E harfi a tarzida ifodalangan | <u>Sani</u> kutib qoluvchi... |
| 19 | O'zakda | Tanlov | O' harfi u tarzida ifodalangan | ... <u>Dusting</u> Sherzod... |
| 20 | O'zakda | Tanlov | O' harfi u tarzida qo'llangan | ... <u>tug'ri</u> tushunasan__degan umiddaman... |
| 21 | O'zakda | Tanlov | O' harfi u tarzida ifodalangan | ...qolgan <u>dustlarimiz</u> ... |
| 22 | O'zakda | Tanlov | U harfi o' tarzida ifodalangan | ...kimdir esa <u>bo'lbul</u> ... |

Ikki hudud bo'ylab olingan tahlil xulosasiga ko'ra, Buxoro va Qashqadaryo hududiga xos shevalarda noadabiy unli tovushlar o'ziga xos xususiyatga ega. O va a unilari, e va a, i va u, o va u unillarining bir-birining o'rnida qo'llanishi, shuningdek, a va i tovushlarining yozuvda ifodalanmasligi har ikkala hudud uchun mushtarakdir:

o tovushi a tarzida talaffuz etiladi va yoziladi.

So'zning birinchi urg'usiz ochiq bo'g'inida: *Apam avqotni sizday qimaydi.* (Buxoro shevasi). So'zning birinchi urg'usiz yopiq bo'g'inida: *...xali hamon karana virus...* (Qashqadaryo shevasi). Shuningdek "a"lashish jarayoni Xo'jand hududi shevalari uchun ham xosdir¹¹⁴.

e tovushi a tarzida talaffuz etiladi va yoziladi

Ushbu variant ko'pchilik shevalar uchun xosdir: *...manga ko'p narsa...* (Buxoro shevasi); *Sani kutib qoluvchi...* (Qashqadaryo shevasi);

i tovushi u tarzida talaffuz etiladi va yoziladi.

So'zning ikkinchi urg'usiz ochiq bo'g'inida: *...sizdan savumayman...* (Buxoro shevasi). So'zning ikkinchi urg'usiz ochiq bo'g'inida: *...o'g'liz sizlarni yuzuzni...* (Qashqadaryo shevasi);

o tovushi u tarzida talaffuz etiladi va yoziladi.

Asosan, o'zlashma so'zlarda: *Duxturlikka xavasim keladi...* (Buxoro shevasi); *...duxturlar kurashmoqda...* (Qashqadaryo shevasi);

Yuqoridagi misollarda Buxoro va Qashqadaryo hududlaridagi shevada noadabiy unli tovushlarning ifodalanishi umumiy xarakter kasb etadi. Bu jihatdan ushbu ikki hudud shevasi o'zaro muvofiqdir. Anonim xatlarning tahlilida ham bu o'xshash kategoriyalarni farqlash ancha qo'l keladi. Zotan, o'xshashliklarni farqlamaslik masalaning yechimini chigallashtirishi mumkin. Gumonlanuvchi shaxsning dalil sifatida olingan yozishmalari yuqoridagidek kategoriyalashtirilsa, lingvistik tahlil mukammal va aniq bo'ladi¹¹⁵.

¹¹⁴ Sheraliyev Sh.E. O'zbek tili sharqiy Xo'jand shevalarining grammatik kategoriyalari: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2001. – 27 b.

¹¹⁵ Malmasi S., Tetreault J., & Dras M. Oracle and Human Baselines for Native Language Identification. Proceedings of the Tenth Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications, 2015. – 172-178 pp. doi:10.3115/v1/w15-0620;

Tahlil davomida Qashqadaryo va Buxoro hududi shevalariga oid o‘ziga xos jihatlar farqlandi. Masalan, Buxoro hududiga oid shevada noadabiy unllilar yozuvda quyidagicha namoyon bo‘ladi:

u unlisi *i* tarzida talaffuz etiladi va yoziladi: *Bugin ishm ko‘p...*

a unlisi *o* tarzida talaffuz etiladi va yoziladi.

So‘zning ikkinchi urg‘uli bo‘g‘inida: *...domlolari maxtaydi...*

e unlisi *i* tarzida talaffuz etiladi va yoziladi.

Asosan, bir bo‘g‘inli so‘zlarda kuzatiladi: *...xich nersa bemasayam...*

o‘ unlisi *o* tarzida talaffuz etiladi va yoziladi.

So‘zning urg‘usiz yopiq bo‘g‘inida: *Yoqliklari blinadi...*

a unlisi *e* tarzida talaffuz etiladi va yoziladi

So‘zning birinchi urg‘usiz yopiq bo‘g‘inida uchraydi: *...nersalaga aqlm yetadi...*

So‘zning morfologik tabiatiga ko‘ra urg‘uning ko‘chishi bilan *u* unli fonemasi *a* ga, *a* unli fonemasi *o* ga o‘tadi: *son-sana-sanoq; tirna-tirnoq* kabi¹¹⁶. Shuningdek, to‘g‘ri yozishning qonuniyatlari yuqoridagi me‘yordan kelib chiqqan. Ammo inson ba‘zan adabiy me‘yordan chekingan holda gapiradi va buni yozuvda aks ettiradi. Ana shu o‘rinda xatolik yuzaga keladi.

Qashqadaryo hududiga oid sheva ham noadabiy unli tovushlarning talaffuzi va yozuvda aks etishiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

O‘ unlisi *u* tarzida talaffuz etiladi va yoziladi: *...vaqtim qolganini uylasam qurqib ketyapman...*

u unlisi *o‘* tarzida talaffuz etiladi va yoziladi.

So‘zning birinchi yopiq urg‘usiz bo‘g‘inida: *O‘z ko‘chim bilan erishaman.*

Yuqoridagi tahlil natijalari 5 ta xat misolida aynan takrorlangan. Agar shunday noadabiy unli tovush yozuvda bir-ikki marta ishtirok etsa, u texnik xatolik hisoblanadi¹¹⁷. Masalan, Qashqadaryo sheva matnida *a* unlisining hamda Buxoro shevasida *a* va *u* tovushining yozuv jarayonida tushib qolishi texnik xatolik sifatida kiritiladi, chunki matn davomida bunday kamchilikka bir marta yo‘l qo‘yilgan. U noadabiy unli tovush sirasiga kiritilmaydi. Bundan tashqari, *o‘* tovushining *u* tovushi sifatida talaffuz etilishi va yozuvda aks etishi jihatidan Qashqadaryo va Navoiy viloyatlari shevasi mushtarakdir (tahlil ilovada berilgan). Ushbu tahlilda dialektologik va kriminalistik tahlil birdek ishtirok etyapti. Quyidagi shaxsiy yozishmada esa ko‘proq kriminalistik tahlil ustunlik qiladi:

Тр йуколеей сафсатабоз
хамма ёкни расво килдинг сен
МАНКУРТЗОДА!

¹¹⁶ Murodova N.Q. O‘quvchilar nutqida mahalliy shevalar ta‘sirida vujudga kelgan talaffuz hamda imlo xatolari va ularni tuzatish usullari: Ped. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1993. – 26 b.

¹¹⁷ Koppel M., Schler J., Zigdon K. Determining an author’s native language by mining a text for errors. In Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining - KDD ’05. 2005. 624-628 pp. – New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947;

Aynan *e* harfining qavatlangan holda yozilishi soʻzlovchining nutq vaziyatidan noroziligini ifodalaydi. Bundan tashqari, vaziyatdan norozilikni ifodalovchi birliklar ham mavjud: *safsatavoz; hamma yoqni rasvo qilding; manqurtzoda* kabi. Ushbu birliklarning semantik mohiyati quyidagicha:

Safsataboz – quruq gap sotishni, safsatabozlikni yaxshi koʻradigan, safsata sotuvchi¹¹⁸.

Manqurtzoda – anglamaydigan, ajdodini unutgan ongsiz. Maʼlumki, ushbu soʻzlar nutqiy vaziyatga munosib tanlanganmi yoki yoʻqmi, muammoning yechimi shundadir.

Yozishmada kontekstual ifodalanishiga koʻra, *manqurtzoda, safsataboz* soʻzlari oʻz semasida emas, balki pragmatik jihatdan shaxsga nisbatan salbiy munosabatni ifodalash uchun qoʻllanilgan. Ushbu muammoli matn yuridik shaxsning obroʻyiga putur yetkazishi mumkin. Agar asossiz ravishda *manqurtzoda, safsataboz* soʻzlari yozuvda aks etsa va u shaxsning qadr-qimmatiga salbiy taʼsirini oʻtkazsa, shunday vaziyatda tilshunos-ekspertning tahlili muhim sanaladi.

Ushbu yozishmaga muvofiq tilshunos-ekspertning vazifasi esa quyidagilardan iborat:

- 1) yozishmadagi birliklarning semantik mohiyatini aniqlash;
- 2) nutq birliklarining nutqiy vaziyatga munosabatini oʻrganish;
- 3) soʻzlovchining pragmatik vaziyatga munosabatini tahlil qilish;
- 4) soʻzlovchi va tinglovchi oʻrtasidagi suhbat yoʻnalishini aniqlash;
- 5) tinglovchiga nisbatan psixologik, maʼnaviy taʼsir, yaʼni daʼvat, tahqirlash, tahdid kabi holatlarni ifoda etuvchi unsurlarni asosli ravishda isbotlashdan iboratdir.

Yuqoridagi yozishma maʼlum siyosiy vaziyatga koʻra, rahbar lavozimidagi shaxslarning boshqaruv tartibiga nisbatan nafrat, norozilik ruhiy holatlarini ifodalash maqsadida qoʻllanilgan boʻlishi mumkin. Yozishmada *e* unli harfining qavatlantirilishi orqali maʼlum vaziyatdan charchaganlik, bezish kabi holatlarni namoyon etyapti. Yuqorida aytilganidek, ushbu munosabat rahbar lavozimdagi shaxsning omma oldidagi nufuziga taʼsir etsa, aynan obroʻsizlantirish, maʼnaviy zarar yetkazish maqsadida qoʻllansa, demak, ushbu yozishmani lingvistik tahlilga tortish mumkin. Shunday mazmundagi xatlarni sud lingvistik ekspertizasining oʻrganish obyekti sifatida olsa boʻladi.

Demak, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari misolida olingan tahlilga koʻra, noadabiy unli tovushlarning ifodalanishi ikki hududda oʻxshash va farqli jihatlariga ega. Ularni farqlash anonim xat muallifi portretini gavdalantirish uchun asos vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, nutqiy vaziyatning turi, suhbat yoʻnalishi, soʻzlovchining tinglovchiga nisbatan psixologik, maʼnaviy munosabati kabi masalalarni yoritishga yordam beradi.

¹¹⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Биринчи жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 463.

3.3. Shaxsiy yozishmalarda qo‘llangan noadabiy undosh tovushlarning hududiy xususiyatlari


Shaxsiy yozishmalarning turi va tili o‘raganilar ekan, bevosita uning tashkil etuvchilarini tahlilga tortish va shu asosida matn muallifi, uning hududiy xosligini aniqlash tilshunos-ekspertning asosiy vazifasidir. Shaxsiy yozishmada tahdid, tahqir, kamsitish, da‘vat kabi munosabatlarni aniqlash uchun uning tarkibiy qismlarining semantik qurilishi, ifoda xususiyati, noadabiy leksik, grammatik, fonetik unsurlarning ifodasi kabi xususiyatlariga e‘tibor qaratiladi. Shaxsiy yozishmadagi noadabiy undosh tovushlar bevosita so‘zlarning fonetik hodisaga uchrashi natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, *g, q, g‘, x* undoshlari *y, v, g‘, q* undoshlari bilan almashgan holda talaffuz etiladi va bu yozuvda ham aks etishi mumkin: *g//y: tiyma (tegma), iyna (igna); q//v: buzov (buzoq), qo‘nnirov (qo‘ng‘iroq); q//g‘: g‘uduq (quduq), g‘uzg‘un (quzg‘un); g‘//v: tov (tog‘), bovich (bog‘ich); x//q: qat (xat), qop (xo‘p), qalta (xalta)* kabi¹¹⁹. Yozishmada noadabiy unsurlarning tahlili tilshunoslikning dialektologiya, areologiya sohalariga aloqadordir. Shuningdek, sud-huquq tizimiga ham daxldor, chunki bu jinoyatga aloqador bo‘lgan kishi haqida unga tegishli axborotni lingvistik jihatdan tahlil qilish, shu orqali u yashaydigan hududni aniqlab olishga yordam beradi. Dialektologiya sohasi tahliliga ko‘ra, shaxsiy yozishmadagi noadabiy undosh tovushlarni aniqlash hududiy xoslikni belgilab bersa, lingvistik ekspertizaga oid tahlilda esa undosh tovushning qo‘llanilishiga ko‘ra, so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan psixologik ta‘siri, axloqiy munosabatini aniqlab olsa bo‘ladi. Masalan, *-ni* tushum kelishigi undosh tovush bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilsa, progressiv assimilyatsiya jarayoni yuz beradi: *tuzzi, kitoppi, daftarri* kabi. Bu, asosan, Toshkent va Namangan shevalariga xosdir¹²⁰. Ammo kriminalistik ekspertizada esa aynan noadabiy undosh tovushning nutqda aks etishi inson manfaati uchun, shuningdek, biror yuridik tashkilotning obro‘yi, nufuzi uchun ijobiy va salbiy ta‘siri kabi psixologik-pragmatik jihatdan keng o‘rganiladi. Masalan, *tezzz jo‘nating* gapida grammatik shakllanish jihatidan II shaxs birlikda qo‘llangan, mazmunan hurmat tushunchasini ifoda etyapti. Bunda undosh tovushning qavatlantirilgan varianti ekspert diqqatini tortadi. Ya‘ni ushbu gapda so‘zlovchining tinglovchiga buyruq, kesatq, nopisandlik munosabati mavjud. Agar xodimlardan iborat ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlariga korxonah rahbari sababsiz xuddi shunday yozsa va bundan xodim psixik aziyat cheksa, jamoa oldida xodimning obro‘yiga ta‘sir o‘tkazgan sanaladi. Ushbu holat yuzasidan xodimning lingvist-ekspertga murojaat qilishi va masalani huquqiy nuqtayi nazardan hal qilishga imkoni mavjud¹²¹. Noadabiy unsurlarning hududiy xosligi dialektologiya, uning tarkibiy yo‘nalishlari areologiya, lingvistik geografiya, shuningdek, lingvistik ekspertiza sohalarining o‘rganish obyekti sanaladi. Bu o‘ziga xos umumiy va xususiy sifatlariga ega. Ya‘ni har ikki soha noadabiy unsurning hududiy xususiyatini

¹¹⁹ Sheraliyev Sh.E. O‘zbek tili sharqiy Xo‘jand shevalarining grammatik kategoriyalari: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2001. – 26 b.

¹²⁰ Гулямов Я.Г. Грамматика Ташкентского говора. – Тошкент, 1968. – 43 с.

¹²¹ Аблин М. В. Теоретико-методологическое обоснование лингвистической экспертизы по делам об экстремизме: Автореф. дисс...канд. филол. наук. – УФА., 2016. – С. 162.

o‘rganishi jihatidan vazifasi mushtarakdir. Ammo masalani tahlil qilishdagi yondashuvi jihatidan bu ikki soha farqlanadi. Biri dialektologik nuqtayi nazaridan o‘rgansa, ikkinchisi ekspertologik, ya’ni kriminalistik jihatdan masalaga oydinlik kiritadi.



Ushbu yozishma Instagram ijtimoiy tarmog‘idan olingan. Unda bir san’atkorga nisbatan turli munosabatlarni aks etgan. Yozishmada quyidagi noadabiy leksik unsurlar bor: *ashuleni*, *iytip*, *yurmisanmi*, *siyosatti*, *qoyipti*, *sanga*, *hayvonnn* kabilar. Munosabat turini aniqlash uchun har bir birlikning semantik-mohiyati, kontekstual vaziyati tubdan o‘rganiladi¹²²:

3.3.1-jadval

| Misollar | Xato turi | Semantik ifodasi | Kontekstual ifodasi |
|------------|--|------------------|--|
| Ashuleni | a harfi e tarzida | Qo‘shiq | qo‘shiq so‘zining ekvivalenti sifatida |
| Iytip | a harfi singarmonizm hodisasiga uchragan, -b ravishdoshi jarangsizlangan | Aytib | Harakat mazmunida |
| Siyosatti | -ni tushum kelishigi assimilyatsiya hodisasiga uchragan | Siyosatni | Ijtimoiy vaziyat mazmunida |
| Qoyipti | -ib ravishdoshi jarangsizlangan; o‘ harfi o tarzida ifodalangan | Qo‘yibdi | Harakat mazmunida |
| Sanga | E harfi a tarzida ifodalangan | Senga | II shaxsga nisbatan munosabat mazmunida |
| Hayvonnn | N harfi qavatlantirilgan | Hayvon | Hayvon mavzuga semantik jihatdan mos emas, odamga nisbatan ushbu so‘z qo‘llanilyapti |
| Yurmisanmi | -ay ravishdoshi -i tarzida qo‘llanilgan | Yurmaysanmi | Harakat mazmunida |

Ushbu jadvalga ko‘ra, *hayvonnn* so‘zi kontekstual mazmunga muvofiq emas. Insonga nisbatan *hayvonnn* so‘zining qo‘llanilishi, shuningdek, *n* harfining qavatlanish holati vaziyatni murakkablashtiradi. Hayvon – harakat qilish va sezish qobiliyatiga ega bo‘lgan har bir tirik mavjudot; insondan boshqa har qanday jonivor¹²³. Birinchidan, ushbu so‘z matn mazmuniga semantik jihatdan mos emas, ikkinchidan, ushbu so‘z insonga nisbatan qo‘llanilyapti. Bu esa axloqiy me‘yorlarga ziddir. Shuning uchun ham ushbu so‘z omma oldida insonga nisbatan tahqirlash, haqoratlash mazmunida qo‘llanilgan. *n* harfining takror qo‘llanishi og‘zaki nutqda aks etsa, salbiy hissiy kuchga ega bo‘ladi. Bu fonetik hodisa bo‘lib, ayrim


¹²² Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст]: Учеб. пособие / А. Н. Баранов. – Москва: Флинта: Наука, 2007. – 592 с.

¹²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Биринчи жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 482.

tilshunoslar «undoshlarni qavatlash» atamasi bilan nomlashgan. Undoshlarni qavatlab qo‘llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlarini tugal tasvirlashga erishiladi. Masalan, *Ayyorlikda uchchiga chiqqanman deb maqtansam yolg‘on emas* (Oybek). *Uni ayblashga sizning ma‘naviy haqqingiz yo‘q, uka!* - dedi g‘azab bilan (gazetadan). Keltirilgan misollardagi undoshlarning qavatlanishi qahramonlar tabiatidagi subyektiv holatni ifodalashga xizmat qilgan. Ya‘ni, birinchi gapdagi qahramonning o‘z «ishi-hunaridan» mamnunligi, «anoyi» emasligini ta‘kidlash istagi qavatlangan «ch» undoshi orqali yanada aniq ifodalangan. Ikkinchi gapdagi qahramonning qahr-g‘azabi esa «q» geminatasi bilan ko‘rsatib berilgan¹²⁴. Shuning uchun ham yuqoridagi yozishmada aks etgan undoshlarning qavatlanishiga oid so‘zlar matnda haqorat so‘z sifatida baholanadi va shunday birliklar aks etgan yozishmalar lingvistik tahlilga muhtoj.

Yozishmadagi shevaga oid so‘zlar esa matn muallifining hududiy xosligini aniqlashga yordam beradi. Yuqoridagi yozishmaga oid xatlar lingvistik ekspertizaning o‘rganish obyektiga kiradi va buning uchun dialektologik va ekspertologik tahlil mushtarak tarzda bo‘y ko‘rsatadi.

Quyida O‘zbekiston hududidagi odam o‘g‘irlash bilan bog‘liq jinoyatlardan biri lingvistik va dialektologik tahlilga tortiladi. Mashhur tadbirkorning hayotiga oid jinoyat turi haqida so‘z boradi. Tadbirkorning juda katta moliyaviy bazasi mavjud bo‘lib, O‘zbekistondan tashqari xorijiy davlatlarda ham ko‘plab mol-mulki bo‘lgan. Tadbirkorning ismini shartli ravishda R. deb belgilaymiz. Uning M. ismli o‘g‘li bo‘lib, 2007-yilda tug‘ilgan. Jinoyatchilar pul undirish maqsadida tadbirkorning M. ismli 20 oylik bolasini mart oyi boshida bog‘chadan o‘g‘irlashgan. Bola o‘g‘irlangan kundan boshlab 1-martdan 2-aprelgacha o‘g‘rilar SMS orqali 7 ta xabar jo‘natishgan. Bir necha kundan so‘ng uyi atrofidagi maydondan bolaning jasadi topilgan. Jo‘natilgan yozishmalar 82 so‘zda noadabiy unsur mavjud va 5 ta noadabiy leksik unsur ishtirok etgan. Ushbu xatlardan birini tahlilga tortish maqsad qilib olindi.



Uka, 50 ming qog‘ozni tayyor qippo‘y.
Birokkundan keyin sanga qayga jo‘natish
keraligini aytamiz. Milisa-pilisa qilib utirma.
Bo‘masa, mandan yaxshili kutma. Ug‘ling
sog‘. Pulli berganindan keyin ug‘lini beramiz.
Ungacha anuni tayyor qippo‘y. Uzim sanga bir
gapini aytaman.

Yozishmadagi har bir nutq birligi lingvistik tahlilga tortiladi. Muammoli bo‘lgan, adabiy me‘yorga zid bo‘lgan quyidagi so‘zlar mavjud: *qog‘oz, qippo‘y, birokkundan, sanga, keraligini, utirma, bo‘masa, yaxshili, ug‘ling, pulli, berganindan, ug‘lini, anuni, qippo‘y, uzim, sanga, bir gapini aytaman.*

¹²⁴ Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent, 2020. – B. 82.

| Noma'lum hudud vakiliga xos noadabiy unsurlarga xos xususiyatlar katalogi | | | |
|--|--|---|--|
| Noadabiy unsurlar | Adabiy unsur | Xato turi | Noadabiy undosh tovushlar |
| Qog'oz | Yozish uchun mo'ljallangan | So'z qo'llash bilan bog'liq | |
| Qippo'y | Qilib qo'y | Fonetik hodisaga uchragan | So'z oxirida b tovushi keyingi q tovushi ta'sirida jarangsizlangan |
| Birokkundan | Biror kundan | Assimilyatsiya jarayoni | So'z oxirida r tovushi keyingi k tovushi ta'sirida jarangsizlangan |
| Sanga | Senga | E harfi a tarzida ifodalangan | |
| Keraligini | Kerakligini | K harfi tushib qolgan | |
| Utirma | O'tirma | O' unlisi u tarzida yozilgan | |
| Boloni | Bolangni | Unlilar moslashuvi | |
| Bo'masa | Bo'lmasa | L tovushi tushgan | |
| Yaxshili | Yaxshilik | K tovushi tushgan | |
| Ug'ling | O'g'ling | O' unlisi u tarzida aytilgan | |
| Pulli | Pulni | -ni kelishigi –li tarzida qo'llangan | |
| Berganindan | Berganingdan | -ng harfi n tarzda qo'llangan | |
| Ug'lini | O'g'lingni | O' unlisi u tarzida yozilgan, -ng egalik shakli ifodalanmagan | |
| Anuni | Ana uni | Fonetik hodisaga uchragan | |
| Uzim | O'zim | O' unlisi u tarzida yozilgan | |
| Bir gapini aytaman | Xabar beraman ma'nosidagi ibora qo'llangan | O'zga ma'nodagi frazema | |

O'zbekiston viloyatlarining shevalariga oid indeks lingvistik ekspertizaga ancha yordam beradi. Avvalo, matnning *uka* so'zi bilan boshlanishi e'tiborni tortadi. Qarindoshlikka aloqador ushbu so'z bir qon vakillarining yosh jihatdan kichigiga nisbatan qo'llaniladi¹²⁵. So'zboshi an'anaga ko'ra, *salom* bilan emas, balki *uka* so'zi bilan berilgani yozishma muallifining yoshini ayon qiladi. *Uka* murojaatining mazmunida esa muallif tadbirkorni oldindan taniganligi, unga o'zini yaqin tutishi kabi belgilar namoyon bo'ladi. Keyingi bosqichda har bir noadabiy leksik unsur hududlararo tahlil qilindi. Shunda *qog'oz* so'zi matnning umumiy semantik mohiyatiga ko'ra, *pul birligi* mazmunida qo'llanilgan va suhbat yo'nalishi ham buni taqozo etadi (*Pulli berganindan keyin ug'lini beramiz. ... Ungacha anuni tayyor qippo'y kabi*). *Qog'oz* so'zi noma'lum hududga tegishli jargon bo'lib, I bobdagi noadabiy leksik unsurlar tahliliga ko'ra, Toshkent viloyati Qibray tumani, Namangan, Andijon, Farg'ona hududlariga xos noadabiy leksik unsur sifatida baholangan. Ya'ni ushbu hududlarda *dollar pul birligi* mazmunida qo'llaniladi.

¹²⁵ Saidova M.Sh. Namangan shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik-semantik tahlili: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1995. – 45 b.

Qippo ‘y so‘zida noadabiy undosh tovushning ikkilanish holati kuzatilyapti, ya‘ni so‘zda jarangsizlanish assimilyatsiya fonetik hodisasi yuz bergan. Bu shevaga oid so‘z bo‘lib, Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlari shevalarida aynan shu tarzda qo‘llaniladi. Toshkent, Qashqadaryo, Buxoroning ayrim hududlarida *qipqo* ‘y, *sopqo* ‘y tarzida qo‘llaniladi¹²⁶. Shuningdek, yozishmada *bir gapini aytaman* iborasi qo‘llangan. Agar ushbu birikmaning leksik ma‘nosiga e‘tibor berilsa, *hammaga noma‘lum bir yangi gap aytaman* yoki *uning biror bir gaplaridan aytaman*, – kabi mazmunni ifodalaydi. Ammo Y.P. Popovanning semantik bloklash tahliliga ko‘ra, bu so‘zning asl mazmuni suhbat yo‘nalishiga umuman mos kelmaydi¹²⁷. Ya‘ni ushbu birliklar leksik ma‘nosi kontekstual mohiyatga muvofiq emas. Semantik bloklash usuli – yozishmada ifodalanayotgan nutqiy birliklar matndagi va matndan tashqaridagi mazmuniy ifodasini qiyosan tahlil qilishdir. Leksik ma‘no va kontekstual ma‘noning matndagi ifodasini o‘rganish hisoblanadi. Bunday vaziyatda noadabiy leksik unsurlarning indeksi tahlilga ancha aniqlik kiritadi. Unga ko‘ra, ushbu ibora hududlararo o‘rganilganda Shahrisabz, Navoiy, Samarqand kabi hududlarda *uning gapini senga aytaman* mazmunida qo‘llaniladi. Ammo Namangan hududida ushbu birlik esa *anig‘ini senga xabar qilaman* mazmunida qo‘llanilar ekan. Agar iboraning Namangan shevasidagi varianti qo‘llanilsa, yozishmadagi suhbat mazmuniga muvofiq bo‘ladi (*Ungacha anuni tayyor qippo* ‘y. *Uzim sanga bir gapini aytaman*). Noadabiy grammatik unsurlar tahliliga ko‘ra, yozishmada *keraligini, yaxshili, pulli, berganindan* kabi so‘zlar mavjud. *Keraligi, yaxshili* so‘zlarida so‘z o‘rtasida va oxirida *k* undoshi tushgan. Bunday holat, ko‘pincha, Toshkent, Namangan, Farg‘ona va Andijon hududlarida qo‘llaniladi. Yozishmada *pulli* so‘zida *-ni* tushum kelishigi *-li* tarzida ifodalanishi yuqoridagi boblarda tahlil qilingan hudud shevalarida uchramaydi. Ya‘ni tushum kelishigi *-li* tarzda Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo shevalariga xos emas. Demak, shu asos bilan O‘zbekistonning shimoliy hududlariga e‘tibor qaratiladi. Qarluq-chigil-uyg‘ur shevalarida assimilyatsiya hodisasi bilan bog‘liq holda tushum kelishigining *shakli -zi, -mi, -li, -shi, -pi, -chi* kabi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Bu, ayniqsa, Toshkent, Namangan, Shahrisabz, Urgut, Kattaqo‘rg‘on kabi shevalarda ko‘proq ko‘zga tashlanib turadi¹²⁸. Noadabiy unli va undosh tovushlarning qo‘llanish xususiyatiga ko‘ra, *birokkundan, sanga, utirma, bo‘masa, ug‘ling, ug‘lini, anuni, qippo* ‘y, *uzim* kabi. *O*‘ tovushining *u* tarzida talaffuzi va yozuvda aks etishi yuqoridagi tahlillarga ko‘ra Navoiy va Qashqadaryo hududi shevalariga xosdir (II bobda batafsil yozilgan). Ammo ushbu shaxsiy yozishmadagi noadabiy leksik va grammatik unsurlar bu hududlarga xos emas, – degan xulosani beradi. Quyida noadabiy undosh tovushlarga xos xususiyatlar tahlil qilingan:

¹²⁶ Джураева Х. Фонетика-морфологические и лексические особенности узбекских говоров, носящих этнические название «турк - калтатай» АКД.Т., 1975. – 49 с.

¹²⁷ Попова Е.П., Бондаренко О.В. Кострулева И.В. Русский язык и культура речи: Учебное пособие, – Ставрополь, 2017. – с 18.

¹²⁸ Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 149 б.

| Anonim yozishmaga oid noadabiy undosh tovushlarga xos xususiyatlar katalogi | | | |
|--|------------------|---|--|
| Xususiyat | Xato turi | Xato turining tavsifi | Misollar |
| Shaklda | Tanlov | N harfi progressiv assimilyatsiyaga uchrigan; l tovushi tushib qolgan | <u>Qog‘ozzi</u> <u>apkesang</u> bolani beramiz |
| Shaklda | Tanlov | -ib ravishdoshida jarangsizlanish holati yuz bergan | 50 ming qog‘ozni tayyor qippo‘y |
| O‘zakda | Tanlov | R tovushi progressiv assimilyatsiyaga uchrigan | <u>Birokkundan</u> keyin |
| Shaklda | Tanlov | N harfi progressiv assimilyatsiya natijasida l tarzida yozilgan | <u>Pulli</u> berganindan keyin |
| O‘zakda | Tanlov | K tovushi tushib qolgan | jo‘natish <u>keraligini</u> aytamiz. |
| O‘zak va shaklda | Tanlov | K va l tovushlari tushib qolgan | <u>Bo‘masa</u> , mandan <u>yaxshili</u> kutma. |
| O‘zak va shaklda | Tanlov | L tovushi tushib qolgan, ng harf birikmasi n tarzida ifodalangan | <u>Bo‘masa</u> bolongni <u>tushinda</u> ko‘rasan. |
| O‘zak va shaklda | Tanlov | Q va l tovushlari tushgan | karochochi kechro 5ga kesang kel |
| O‘zakda | Tanlov | S harfi qavatlangan; k tovushi tushgan | Vo‘ <u>iplosss</u> , sanga bola <u>keramasakan</u> . |
| O‘zakda | Tanlov | K tovushi tushgan; l harfi tushgan | Anularini <u>yetalab</u> kebsan yana. |
| Yozuvda | Tanlov | Varvar so‘z ishtirok etgan | <u>Karoche</u> ertaga 17:00 gacha kelsang, gaplashib olamiz. |
| O‘zak va shaklda | Tanlov | R harfi assimilyatsiya hodisasiga uchrigan; d harfi jarangsizlangan | Oxirgi matta aytittim. |
| O‘zakda | Tanlov | L tovushi tushgan | Bolangni tirik <u>qosun</u> |
| O‘zakda | Tanlov | Omala – ammo so‘zining variantdoshi; mashi – mana shu so‘zining eliziyaga uchrigan varianti qo‘llangan | <u>Mashi</u> oxirgisi <u>omala</u> |
| O‘zak va shaklda | Tanlov | L tovushi tushgan; b harfi jarangsizlangan; sabzi so‘zi matn mazmuniga aloqador emas, vulgar so‘z sifatida qo‘llanilgan | <u>Opkema</u> degandimku, <u>sag‘zi</u> . |
| O‘zak va shaklda | Tanlov | Ng harfiy birikma n tarzida ifodalangan; k va l harflari tushgan | <u>Ug‘lin</u> <u>kera</u> <u>bo‘sa</u> |
| Shaklda | Tanlov | Ng harfiy birikma tushib qolgan | <u>Tayyorladimi?</u> |
| Shaklda | Tanlov | N harfi assimilyatsiyaga uchrigan | Boloni <u>kurishshi</u> xohlasan, soqqani apke. |
| O‘zak va shaklda | Tanlov | D harfi jarangsizlangan | <u>zovutti</u> orqasidagi |

| | | | |
|------------------|--------|--|---------------------------------------|
| O‘zakda | Tanlov | T harfi tushgan | <u>Milisa</u> chaqirsa, bolom uldi |
| O‘zak va shaklda | Tanlov | B va q harfi jarangsizlangan; assimilyatsiya jarayoni yuz bergan | Manga farqi yog‘, <u>aytippo‘yay.</u> |
| Shaklda | Tanlov | -di shaklida d harfi jarangsizlangan | Seni qurqitmittim |
| Shaklda | Tanlov | -di shaklida d harfi jarangsizlangan | Man aytтим sanga. |
| O‘zakda | Yozuv | L harfi o‘rniga r harfi qo‘llangan | charxparakda ko‘rishamiz |

Ushbu yozishmada *-ni* tushum kelishigi *z, l, sh* tovushi bilan tugagan so‘zlarda fonetik xususiyat kasb etadi: *tuzzi, pulli, kurishshi* kabi. Qolgan barcha undosh bilan tugagan so‘zlarda *-ni* variantida qo‘llaniladi. Bundan tashqari, *ng* harfiy birikmasi ko‘p bo‘g‘inli urg‘uga ega so‘zlarda *n* tarzda qo‘llaniladi.

O‘tgan zamon *-di* shakli ushbu shevada jarangsizlanadi va *-ti* tarzida qo‘llaniladi: *qurqitmittim, aytтим* kabi. Shuningdek, *-ma* fe‘lning bo‘lishsiz shakli ham o‘ziga xos fonetik xususiyatga ega, ya‘ni *-mit* tarzida ifodalangan.

Bundan tashqari, qo‘shma fe‘llar ham o‘ziga xos fonetik xususiyatga ega: *apke, qippo‘y* kabi. Ushbu fe‘llardagi noadabiy undosh tovushlar Shahrizabz, Toshkent, Buxoro, Navoiy hududlarida *qipqo‘y, opke, sopqo‘y* tarzida ishlatiladi. Ammo Andijon, Farg‘ona va Namangan hududlarida aynan yuqoridagi variantda qo‘llaniladi.

So‘zning ikkinchi bo‘g‘inida *k* harfi tushirib qolgan holda yoziladi: *keraligini, yetalab keldingmi* kabi.

Yozishmada *sag‘zi* so‘zi mazmunga umuman muvofiq emas. Ushbu so‘z Farg‘ona, Namangan, Andijon hududlarida *sabzi* so‘zining ekvivalenti hisoblanadi. Ushbu so‘z ayrim hududlarda birovning ustidan kulish mazmunida qo‘llaniladi. Matnda ham haqorat so‘z sifatida qo‘llanilgan. (Ilovada hududiy xoslangan so‘zlar lug‘ati berilgan) Yozishmada ifodalangan *iflos* so‘zining leksik va kontekstual ma‘nolari mavjud. Iflos – qashshoqlik, notavonlik; kir bosgan, isqirt, kir mazmunini ifodalaydi¹²⁹. Ammo matnda ushbu birikma insonga nisbatan qo‘llanilyapti: *Vo‘ iplosss, sanga bola keramasakan. Iplosss* so‘zida *s* harfining takror qo‘llanishi fonetik hodisa bo‘lib, buni M.Yo‘ldoshev, M.Saparniyazova kabi olimlar: undoshlarni qavatlab qo‘llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlari tugal tasvirlashga erishiladi, – degan xulosaga kelishgan. Haqiqatan ham, yuqoridagi so‘zni og‘zaki nutqda aks ettirsa, insonning emotsional-ekspressiv ta‘siri so‘z ohangida namoyon bo‘ladi, ya‘ni tinglovchiga nisbatan past nazar bilan qarash, kamsitish mazmunini ifodalaydi. Yozishmada esa *f* harfi *p* tarzida ifodalangan va bu insonga og‘zaki talaffuzdagidek psixik ta‘sirini o‘tkazadi.

Yuqoridagi dialektologik tahlilda, avvalo, shevaga oid so‘zlarga leksik boylik sifatida qaraladi. Unda so‘zlarning semantik ma‘nosi, qo‘llanilish doirasi, so‘zlarning talaffuzidagi o‘zgarishlari, tovushlarning o‘zaro munosabati kabi xususiyatlar tahlil qilinadi. Masalan, jinoyatchining yozishmalaridan birida quyidagi mazmun mavjud:

¹²⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Биринчи жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 245.

Ertaga Naqshband mahallasidagi qushxonaga apke. Oxirgi matta aytittim. Bolaogni tirik qosun desang olib kel. Odomlarga aytma, garang.
Mashi oxirgisi omala

18:29 ✓

3.3.4-jadval

| Dialektologiyaga xos tahlil | Yozishmadan misollar | Kriminalistikaga xos tahlil |
|--|----------------------------------|---|
| <i>Olib kel</i> qo'shma so'zning Namangan, Farg'ona, Andijon shevasidagi varianti | ...apke... | <ol style="list-style-type: none"> 1. <i>Olib kel</i> so'zining Namangan, Farg'ona, Andijon shevasidagi varianti. 2. Ushbu so'z II shaxs buyruq-istak maylida ifodalangan. 3. Semantik jihatdan hurmatsizlik mazmunini ifodalaydi. |
| <ol style="list-style-type: none"> 1. Vulgar qatlamga mansub so'z. 2. Vulgar so'zlarning haqorat, so'kinish turiga kiradi. | ...garang... | <ol style="list-style-type: none"> 1. Vulgar qatlamga mansub so'z. 2. Vulgar so'zlarning haqorat, so'kinish turiga kiradi. 3. Shaxsga nisbatan tahqirlash maqsadida qo'llangan. 4. Shaxsiy yozishmaning suhbat yo'nalishidan darak beradi: yozishma tahqirlash, tamagirlik ruhida bitilgan. 5. Garang – qulog'i eshitmaydigan, kar¹³⁰. 6. Haqorat mazmunida qo'llansa, ma'muriy javobgarlikka tortiladi. |
| <ol style="list-style-type: none"> 1. <i>Matta</i> so'zida <i>r</i> harfi <i>t</i> tarzida qo'llanishi assimilyatsiya hodisasidan darak beradi. 2. <i>Ayttim</i> so'zida <i>-di</i> zamon shakli <i>-ti</i> tarzida qo'llangan. Bunda ham assimilyatsiya hodisasi yuz bergan. 3. <i>Matta</i>, <i>ayttim</i> so'zlari Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon kabi shevalarda uchraydi. | Oxirgi matta aytitim. Iplosss... | <ol style="list-style-type: none"> 1. <i>Matta</i> so'zida <i>r</i> harfi <i>t</i> tarzida qo'llanishi assimilyatsiya hodisasidan darak beradi. 2. <i>Ayttim</i> so'zida <i>-di</i> zamon shakli <i>-ti</i> tarzida qo'llangan. Bunda ham assimilyatsiya hodisasi yuz bergan. 3. <i>Matta</i>, <i>ayttim</i> so'zlari Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon kabi shevalarda uchraydi. 4. Nutqiy vaziyatga so'zlovchining munosabatini ifodalaydi. Ya'ni vaziyatga nisbatan so'zlovchi keskin munosabatda turibdi. 5. Tinglovchiga nisbatan qat'iy va keskin talab qo'yish ruhida yozilgan. 5. Ogohlantirish, ehtiyotkorlikka chaqirish mazmuni mavjud. 6. <i>Iplosss</i> so'zi og'zaki nutqda salbiy hissiy munosabatni ifodalaydi. <i>S</i> harfining takrorlanishi va insonga nisbatan qo'llanishi haqorat so'z sifatida baholanadi. |

¹³⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Биринчи жилд. – Москва: Русский язык, 1981. – Б. 486.

Dialektologiyada leksik va grammatik qatlamning lingvistik xususiyatlari yoritilsa, kriminalistik tahlilda yozishmadagi nutqiy vaziyat, soʻzlovchining pragmatik-psixologik holati, nutq yoʻnalishi, suhbat mavzusi kabi jihatlarini hisobga olgan holda ekspertiza olib boriladi. Bundan maqsad shuki, insoniyat manfaati uchun har bir jihat ahamiyatli sanaladi. Zotan, inson biologik faoliyatda ekan, turli vaziyatda turlicha yondashuvga ega, shuningdek, uning ruhiy holati ham nutqiy vaziyatga koʻra oʻzgarib boradi. Yoki, aksincha, inson nutqiy vaziyatni individual psixologik holati taʼsirida boshqarib turishi mumkin. Stress, ruhiy zoʻriqish, qoʻrquv, hayajon, quvonch, gʻazab, nafrat kabi ruhiy holatlar insonning nutqida roʻyi-rost namoyon boʻladi. Shuning uchun ham, yozishmalarning shakliy ifodasiga emas, balki mazmuniy xarakteriga koʻra tahlil qilinsa, taxminiy xulosalardan holi aniq faktlar asosidagi yechimga ega boʻlish mumkin. Bu esa lingvistik ekspertizaning bosh maqsadi hisoblanadi.

Demak, yuqoridagi oʻgʻrilik bilan bogʻliq jinoyatda ham dialektologiya, ham ekspertologiya sohalarining tahlil usullaridan foydalanildi. Kriminalistik tahlilda koʻproq inson manfaati ustun turadi. Tahlil natijasiga koʻra, barcha leksik, fonetik jihatlarini eʼtiborga olgan holda anonim yozishma muallifi Fargʻona, Andijon, Namangan hududiga mansub shaxs boʻlishi mumkin.

Uchinchi bob yuzasidan qisqa xulosalar

1. Oʻzbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik hodisalarni koeffitsientlarda aniqlash taklif sifatida beriladi. Bu koeffitsient muammoli shaxsiy yozishmalarning lingvistik tahlili uchun muhim ahamiyatga ega. Yaʼni adresant haqidagi umumiy va xususiy xulosalarni shakllantirish lingvistik ekspertiza jarayoniga ancha oydinlik kiritadi.

2. Ikki viloyat misolida olingan tahlilga koʻra, noadabiy unli tovushlarning ifodalanishi ikki hududda oʻxshash va farqli jihatlariga ega. Ularni farqlash viloyatlararo noadabiy unli tovushlar prototipini yaratish va shu asosda dalil korpusini tashkil etish mumkin.

3. Muammoli xatning tahlilida ham dialektologiya, ham ekspertiza sohalarining tahlil usullaridan muvofiq tarzda foydalanish samarali natija beradi. Dialektologik tahlilda nutq birligi hududiy, tarixiy, qiyosiy jihatdan oʻrganilsa, lingvistik ekspertizada esa nutq birligining inson qadr-qimmatiga, nufuzi, obroʻyiga ijobiy va salbiy taʼsiri kabi masalalar tadqiq etiladi. Lingvistik ekspertizada insonning huquqiy manfaatlari asosiy oʻrinda turadi.

4. Oʻzbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik hodisalarni miqdoriy jihatdan tahlil qilish oʻrinlidir. Chunki fonetik hodisalarning har biri hududiy jihatdan oʻziga xosdir. Shuning uchun ham, gumonlanuvchining dalil sifatida olingan yozishmalari asosida fonetik xususiyatlar koeffitsientlarda aniqlash maqsadga muvofiq boʻladi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Shaxsiy yozishmalar to'rt turga ega bo'lib, ularning har biri nutqiy birliklarning ishtirokiga ko'ra lingvistik ekspertizaning o'rganish obyekti bo'la oladi.

2. Inson qadr-qimmatini, sha'ni, obro'yiga daxl qilish mazmunidagi shaxsiy yozishmalarni *muammoli matn* termini bilan atash lozim. Lingvistik ekspertizani amalga oshiruvchi mutaxassis *tilshunos-ekspert* deb nomlanishi maqsadga muvofiq.

3. Anonim xatlar va muammoli yozishmalar tahlilida farqli jihatlar mavjud. Anonim xatlarda muallifning nutqiga xos xususiyatlar aniqlansa, muammoli yozishmalarda nutqiy birliklarning mazmuniy darajalari, inson huquqlariga daxl qilish xususiyatlari tahlil qilinadi.

4. Lingvistik ekspertizada shaxsiy yozishmalarning mavzuviy tilini o'rganish jo'natuvchi va qabul qiluvchining maqsadini aniqlashga yordam beradi.

5. Shaxsiy yozishmalarda nutqiy birliklarning ijobiy yoki salbiy psixik ta'sir kuchi ularning ma'no darajasiga ko'ra belgilanadi. Har qanday ma'noga ega haqorat so'zlar bilan ham lingvistik tahlilni amalga oshirib bo'lmaydi. Bunda haqorat so'zning ifodalanish maqsadi va ifodalanish darajasiga e'tibor qaratiladi. Inson obro'si, sha'niga ta'sir etish maqsadida amalga oshirilgan haqorat so'zlar lingvistik ekspertizaning o'rganish obyekti bo'la oladi.

6. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy leksik unsurlarning hududiy xosligini aniqlashda so'zlarni semantik, pragmatik va kontekstual jihatdan o'rganish lozim. Chunki har bir so'z ma'lum hudud doirasida o'ziga xos ifoda xususiyatiga ega. Shaxsiy yozishmalardagi noadabiy leksik unsurlarning ma'lum hudud doirasida qo'llanishini aniqlash lingvistik ekspertizada gumonlanuvchi haqidagi ma'lumotlarga ancha oydinlik kiritadi. Gumonlanuvchining yashash hududini aniqlashga yordam beradi. Bu sud-huquq tizimining psixologik, tibbiy kabi boshqa ekspertiza tarmoqlarining xulosalari bilan umumlashtiriladi. Yetarli asosga ega bo'lgandagina gumonlanuvchi haqida umumiy xulosa beriladi.

7. Shaxsiy yozishmalarda noadabiy grammatik shakllarning tahlilida sifat va miqdor usuli taklif sifatida beriladi. Sifatni aniqlash usuli asosida gumonlanuvchi shaxsning dalil tarzida olingan yozishmalari asosida noadabiy grammatik unsurlarning xususiyat katalogi tashkil etiladi. So'ng noadabiy grammatik shakllarning matndagi ifoda xususiyati, qo'llanilish o'rni, sintaktik munosabati lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Bu grammatik shakllardagi xatoliklarni aniqlash, shu orqali gumonlanuvchi shaxsning nutqida tez-tez uchraydigan noadabiy grammatik shakllarni belgilab olishga xizmat qiladi. Bu tahlil lingvistik ekspertiza uchun ahamiyatli sanaladi.

8. Noadabiy lug'aviy va sintaktik shakllarning xato turiga muvofiq xususiyat katalogini tashkil etish qo'shimchalarning hududiy tipik xarakterini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu xususiyat katalogi asosida gumonlanuvchiga tegishli bo'lgan yozishmalar asosida dalil korpusini yaratish mumkin. Keyingi bosqichda hududga xos bo'lgan noadabiy grammatik shakllarning korpusi orqali gumonlanuvchining dalil sifatida olingan yozishmalari tekshiriladi, hududga xos umumiy xususiyatlari aniqlanadi, so'ng xulosa beriladi.

9. Noadabiy grammatik shakllarning xususiyat katalogi asosidagi lingvistik tahlil 2 usulda amalga oshishi mumkin:

a) gumonlanuvchining shaxsiy yozishmalari asosidagi noadabiy grammatik shakllarning xususiyat katalogini tashkil etish;

b) hududiy xoslangan noadabiy grammatik unsurlarning xususiyat katalogini tashkil etish. Shu ikki usul asosidagi xususiyat kataloglari kodlashtirilib, prototipi hosil qilinib, dalil korpusini yaratish mumkin. Gumonlanuvchining yozishmalari asosida xususiy dalil korpusi yaratiladi va u hududiy dalil korpusi bilan qiyosan tahlil qilinadi. Lingvistik ekspertiza jarayonida noadabiy grammatik shakllarning xususiyat katalogi asosida gumonlanuvchining hududiy mansublik darajasini aniqlash mumkin. O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarning lingvistik tahlilida noadabiy leksik, grammatik, fonetik unsurlarning indeksi asosida elektron dasturni tashkil etish lingvistik ekspertizaning aniq va shaffof o‘tkazilishini ta’minlaydi.

10. O‘zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarning tahlilida ham dialektologiya, ham lingvistik ekspertiza sohalarining tahlil usullaridan muvofiq tarzda foydalanish samarali natija beradi. Dialektologik tahlilda noadabiy unsurlarning etimologik va hududiy xususiyatlari aniqlansa, lingvistik ekspertiza jarayonida esa noadabiy unsurlarning mazmuniy ifodasi, inson qadr-qimmati, haq-huquqlariga salbiy ta’sir kuchi, matn muallifining ijtimoiy mansublik darajasi, ilmiy salohiyati, nutqiy vaziyatdagi ruhiy holati kabilar tahlil qilinadi. Bu ikki tahlil jarayonining hamohanglikda amalga oshishi xulosaning tugal va asosli bo‘lishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. Davlat tili haqida. Ўзбекистон Республикасининг “Davlat tili haqida” gi Qonuni matnlari, qonun osti hujjatlar, qonunni amalga oshirish йўлидаги муаммо ва ечимлар: Ўқув қўлланма-мажмуа. – Тошкент: Фан, 2008. – 75 б.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чоратадбирлари тўғрисида»ги фармони // <https://lex.uz/uz/>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни янги босқичга кўтариш тўғрисида”ги Қарори // Халқ сўзи, 2017 йил, 29 июль.

4. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // Халқ сўзи, 2017 йил, 8 февраль, №28 (6722). – Б. 1-2.

II. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

5. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.

6. Каримов И.А. Она юртимиз бахту иқболи ва буюк келажаги йўлида хизмат қилиш – энг олий саодатдир. – Тошкент, 2015. – 304 б.

7. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз//Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимидаги киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент, 2016. – 56 б.

8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курамиз. – Тошкент, 2017. – 488 б.

9. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент, 2017. – 48 б.

III. Kitob va turkum nashrlari:

Bir tomlik kitoblar, monografiyalar, darsliklar, maqolalar to‘plami.

a) bir muallifning:

5. Abdusaidov A. O‘qituvchining nutq mahorati: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2013.

6. Aliyev A.Y. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. – T.: Fan, 1974. – b 219.

7. Azizova N.A. Talabalar nutqining lingvomadaniy va sotsiopragmatik xususiyati: Magis. diss... – Qarshi, 2013. – 14 b.

8. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1997.

9. Hamroyev M., Muhamedova D., Shodmonqulova D., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. – Toshkent, 2017. – b. 5.
10. Jo'rayev B. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1969. – b. 25-31.
11. Jo'rayev B. Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari. – Toshkent: Fan, 1969. – b. 25.
12. Milom V.L. Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages. 2019. – 52 p.
13. Mirzayev M. O'zbek tilining Buxoro gruppasi shevalari. – Toshkent., 1969. – 32 b.
14. Murodova N. O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal talqini. –T.: Fan., 2007.
15. Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari. (Fonetika, leksika) – T.: Fan, 1985.
16. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – T.: O'qituvchi, 1996.
17. Sherboyeva G. Badiiy matnda sotsial chegaralangan so'zlar. – Andijon., 2017.
18. Shoabdurahmonov Sh. O'zbek shevalarida leksik moslik va ularning adabiy tilga munosabati. – Toshkent, 1966. – B. 5.
19. Xudayberganova D.Q. Xorazm xalq dostonlari leksikasida nofaol qatlam. –Urganch, 2017. – 39 b.
20. Yo'ldoshev T. Tojikistondagi o'zbek shevalari morfologiyasi. – T.: Fan, 1986.
21. Александрович З.Д. Особенности перевода отклонений от литературной нормы (на примере романа З.Смит «Белые Зубы»). Выпускная квалификационная работа. – Челябинск, 2017. – 14 с;
22. Алексеева И.С. Введение в переводоведение [Текст] 2004. – 196 с.
23. Антонов О.Ю. Особенности использования специальных знаний в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних // – Москва, 2018. – С. 5-11.
24. Баранов А.Н. Авторизация текста: пример экспертизы // Цена слова: Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации. – М., 2002. – С. 356-363;
25. Баранов А.Н. Авторизация текста: пример экспертизы // Цена слова: Из практики лингвистических экспертиз текстов СМИ в судебных процессах по защите чести, достоинства и деловой репутации. – М., 2002. – С. 356-363.
26. Белкин Р. С. Собираение, исследование и оценка доказательств. – М., 1966.
27. Бельчиков Ю.А. Лингвистическая судебная экспертиза – целенаправленное герменевтическое исследование // Спорные тексты СМИ и судебные иски: Публикации. Документы. Экспертизы. Комментарии лингвистов / под ред. проф. М.В. Горбаневского. – Москва: Престиж, 2005. С. 15–20.

28. Борисова-Лукашенец Е.Г. Английский элементы в русском молодежном жаргоне. АКД. – Москва, 1964.
29. Влахов С. Непереваемое в переводе [Текст] – М., 2006. – 324 с.
30. Ворошилова М.Б. Лингвистическая экспертиза [Текст]: задачник: Учеб. пособие. В 2 ч. Ч 1. Экспертиза конфликтного текста / ФГБОУ ВО «Урал. гос. пед. ун-т». – Екатеринбург, 2016. – 220 с;
31. Демиденко Л.П. Речевые ошибки. – Минск, 1986. – 336 с.
32. Димитрова С. По спиралата на лингвистичните идеи // Актуални проблеми на лингвистиката. По случай 80-годишнината на проф. София: Акад. Изд. Марин Дринов, 2016. – С. 13-25.
33. Елистратов В.С. Арго и культура [Текст] / В.С. Елистратов. – Москва, 1995. – 231 с.
34. Ибрахимов С.И. Ўзбек тилининг Андижон шевази. – Тошкент, 1967.;
35. Иброгимов С. Профессиональная лексика узбекского языка (на материалах Ферганских говоров). – Тошкент, 1961.
36. Иброхимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. Кулоллик, тандирчилик ва шувоқчиликка оид. АДД. – Тошкент, 1956.
37. Капаназе Л.А. Жаргон и “Модные слова”. – Москва: Наша реч., 1965.
38. Коровушкин В.П. Основы контрастивной социолектологии: Дис. ... д-ра филол. наук [Текст]. – Пятигорск, 2005. – 187 с.
39. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний тахлили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 35.
40. Лошманова Л.Т. Жаргонизированная лексика в битовой речи молодёжи 50-60-х годов. АКД. – Л., 1975.
41. Мелиев К. Ҳозирги туркий тилларда ҳаракат номлари. – Тошкент, 1969. – Б. 65.
42. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент, 1933.
43. Севортян Э.В. Материалы по сравнительной фонетике турецкого, азербайджанского и узбекского языков. Часть 1, Фонетика. – М., 1955.
44. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс. 1993. – 656 с.
45. Сергеев Ф.П. Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителя, – Киев, 1988. – 123 с.
46. Скворецкая Е.В. Культура речи: Упражнения и рекомендации. – Новосибирск, 1991. – 88 с.
47. Скворцов Л.И. Канцеляризм и штампы // О культуре речи. – М., 1981. – С. 27-36.
48. Скворцов Л.И. Об оценках языка молодёжи. «Вопросы культуры речи» Вип. 5. – М., 1964.
49. Скворцов Л.И. Правильно ли мы говорим по-русски? : Справоч. пособие по произношению, ударению и словоупотреблению. – Москва, 1980. – 224 с.

50. Стернин И.А. Выявление признаков возбуждения расовой и национальной вражды в лингвистической экспертизе текста [Текст]: Метод. пособие / гос. ун-та. – Воронеж: Гарант, 2010.

51. Стратен В.В. Арго и арготизм: «Труди комиссии по русскому языку», – Л., 1931.

52. Трубетской Н.С. Некоторые соображения относительно морфонологии: Пражский лингвистический кружок, – Москва: Прогресс, 1967.

53. Трубетской Н.С. Основы фонологии. – Москва, 1960.

54. Фоменко Ю.В. Типы речевых ошибок. – Новосибирск, 1994.

55. Фоменко Ю.В. О типологии речевых ошибок // Рус. яз. в школе. № 2. 1987. – С. 50-56.

56. Цейтлин С. Н. Нарушение синтаксических норм в речи школьников: (нормативное управление) // Рус. яз. в школе, 1980. № 1. – С. 55-58.

57. Цейтлин С. Н. Речевые ошибки и их предупреждение. – Москва, 1982. – 143 с.

58. Цейтлин С.Н. Лексические неправильности в детской речи // Рус. яз. в школе, 1981. № 4. – С. 51-54.

59. Цейтлин С.Н. Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителей. – Москва, 1982. – 143 с.

60. Цейтлин С.Н. Типичные морфологические неправильности детской речи: (Материалы исследований) // Речевые приемы и ошибки: типология, деривация и функционирование. – Москва, 1989. – С. 56-65.

b) ikki muallifning:

61. Мирхамидов М., Ҳасанов С. Юридик тил ва ҳуқуқшунос нутқи. – Тошкент: Университет, 2004.

62. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш.Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1978.

b) uch muallifning:

63. Stamatatos E., Fakotakis N., Kokkinakis G. Computer-based authorship attribution without lexical measures. Computers and the Humanities 35, 2001. – p. 193-214.

64. Ярощук И.А., Жукова Н.А., Долженко Н.И. Лингвистическая экспертиза: Учебное пособие / – Белгород: ИД «БелГУ» НИУ «БелГУ», 2020.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

65. Allaberdiyev. A.A. Buxoro o'g'uz shevalari leksikasi: Filol. fan. d-ri. ...diss. – Toshkent, 2018. – 88 b.

66. Barnoyeva Z.S. XVII-XIX asr nazmida fonetik hodisalar va fonetik qonuniyatlar: Mag. ...diss. – Buxoro, 2016. – 33 b.

67. Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1994.

68. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. – Toshkent, 1960-1963. – 432 b.
69. Michell C. S. Investigating the use of forensic stylistic and stylometric techniques in the analyses of authorship on a publicly accessible social networking site (FACEBOOK): MA. diss... – South Africa. 2013. – p. 64.
70. Niyozova O.X. XI-XIV asrlar o'zbek yozma adabiy tilining fonetik va morfologik xususiyatlari: Mag. diss... 2017. – 28 b.
71. Perkins R. Linguistic Identifiers of L1 Persian speakers writing in English. NLID for Authorship Analysis. Unpublished doctoral dissertation. Aston University, – Birmingham, U.K, 2012.
72. Qudratov T. O'zbek tilining oraliq shevalari (Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va Qamashi rayonlaridagi oraliq sheva materiallari asosida): Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1968. – 236 b.
73. Qudratov T. O'zbek tilining oraliq shevalari (Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va Qamashi rayonlaridagi oraliq sheva materiallari asosida): Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1968. – 236 b.
74. To'rayeva D.A. Nutqda shaxs ruhiy holatining namoyon bo'lishi // Mag. ...diss. – Toshkent, 2017. – 52 b.
75. Абдураимова Ш.К. Сўз ўзлаштириш назарияси ва ўзлаштирмаларнинг вақтли матбуот тилида ўзгара бориши: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1995.
76. Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза: Автореф. дис. д-ра филол. наук. – Кемерово, 2010.
77. Викторовна Б.И. Многоуровневая системность стилистических норм и проблема типологизации речевых отклонений от них: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Краснодар, 2007.
78. Дарвешов И. Жануби-ғарбий Наманган шевалари фонетик-фонологик хусусиятларининг ареал тадқиқи: Филол. фан. бўй. фалсафа д-ри (PhD)... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 54 б.
79. Иброҳимов Й. Жанубий Оролбўйи ўзбек шевалари тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2000. – 366 б.
80. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Самарқанд, 1993. – 118 б.
81. Каримов Г. Некоторые вопросы развития узбекского литературного языка 1920-1930 гг: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1972.
82. Мирзаев М. Советско-интернациональные слова в узбекской периодической прессе (1945-1950): Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1951.
83. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини. – Тошкент, 2006. – 309 б.
84. Мухаммеджанов К. Ареальное исследование узбекских говоров Южного Казахстана: Автореф. дисс...д-ра филол. наук. – Ташкент, 1988. – 44 с.
85. Расулов И. Развитие лексики узбекского языка в период Великой Отечественной войны: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1951.

86. Рахмонов Н.С. Ўзбек тили Навоий вилояти шевалари морфологик хусусиятларининг лингвоареал тадқиқи: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Самарқанд, 2019. – Б.16.

V. Jurnallardagi maqolalarga havolalar:

87. Kochmar E. Identification of a writer's native language by error analysis. (Master's thesis). University of Cambridge, – UK. 2011.

88. Koppel M., Schler J., Zigdon K. Determining an author's native language by mining a text for errors. In Proceedings of the eleventh ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery in data mining. – KDD '05. 2005. 624–628 pp. – New York: ACM Press. doi:10.1145/1081870.1081947;

89. Light R., Warshawsky D. Preliminary Error Analysis: Russians Using English. Unpublished. 1974.

90. MacDonald P. “We All Make Mistakes!”. Analysing an Error-coded Corpus of Spanish University Students' Written English, in Complutense Journal of English Studies, 2016. – p. 103-129.

91. Malmasi S., Tetreault, J., Dras M. Oracle and Human Baselines for Native Language Identification. Proceedings of the Tenth Workshop on Innovative Use of NLP for Building Educational Applications, 2015. 172-178 pp. doi:10.3115/v1/w15-0620.

92. Mengliyev B.R. Amaliy filologiya istiqbollari va uning “Davlat tili to'g'risida”gi Qonun ijrosiga uyg'unligi imkoniyatlar eshigining “kalit”i. Ma'rifat gazetasi. 2015-yil, 10-oktabr.

93. Shatz I. Native Language Influence During Second Language Acquisition: A LargeScale Learner Corpus Analysis. Proceedings of the Pacific Second Language Research Forum, 2016. 175-180.

94. Shuy R. DARE's Role in Linguistic Profiling. Dictionary of American Regional English, 2001. 4(3).

95. Xolmatova G. Lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli // – Scientific Journal Impact Factor ISSN 2181-1784 VOL 1, ISSUE 3, 2021.

96. Галяшина Е. И. Проблемные зоны комплексной психолого-лингвистической экспертизы в судопроизводстве России// Армянский журнал психического здоровья. 2018. Том 9. № 1. – С. 50-57.

97. Галяшина Е. И. Судебная лингвистическая экспертиза и пределы допустимости использования методов лингвистической науки// Вестник Московского университета МВД России. 2018. № 4. – С. 31-36.

98. Галяшина Е. И. Феномен “неуважение к власти” в аспекте судебной лингвистической экспертизы по делам об информационных правонарушениях// Вестник Университета имени О.Е. Кутафина. 2019. № 5 (57). – С. 45-55.

99. Галяшина Е. И. Экспертиза экстремистских материалов: проблемы методического и информационного обеспечения// Вестник университета имени О.Е.Кутафина (МГЮА). 2018. № 7. – С. 25-41;

100. Галяшина Е.И. Комплексная психолого-лингвистическая экспертиза текстов – дань моде или насущная необходимость// Эксперт-криминалист. – 2018. № 3. – С. 6-9.

101. Галяшина Е.И. О “болевых точках” лингвистической экспертизы в уголовном судопроизводстве//Воронежские криминалистические чтения. – 2017. № 2 (19). – С. 121-131.

102. Галяшина Е.И. Проблемы повышения эффективности и качества судебной лингвистической экспертизы// Вестник Московского университета МВД России. – 2017. № 2. – С. 34-36.

103. Галяшина Е.И. Семантика «взятки» в русской языковой ментальности// Человек: Образ и сущность. – 2019. № 2 (37). – С. 131-151.

104. Иваненко Г. С. Лексикография и лингвистическая экспертизы: перспективы взаимоотношений// Юрислингвистика. 2018. № 7 - 8. – С. 98-118.

105. Иваненко Г. С. Люди нашего царя (к вопросу о методике анализа семантико-грамматической конструкции в лингвистической экспертизе)// Юрислингвистика. 2017. № 6. – С. 89-101.

106. Иваненко Г. С. Объективное и субъективное в конфликтном тексте: вопросы экспертной квалификации// Acta Linguistica Petropolitana. Труды института лингвистических исследований. 2016. № 5. – С. 109-131.

107. Ким Л.Г. Холистические принципы проведения идентификационной автороведческой экспертизы разножанровых текстов. Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы. – Москва: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. – 558 с.

108. Шахобиддинова Ш.Х. Татбикий тилшунослик тезислари. – Андижон давлат университети. Илмий хабарнома, – 2016. №3

VI. Internet materiallari va elektron resurslar:

109. <http://srtldshi.ru/uz/fizika/osobennosti-gostinic-i-pochtovoi-sluzhby-v-drevnem-rime-istoriya.html>

110. <https://brooklynworks.brooklaw.edu/jlp/vol21/iss2/13.;>

111. <https://lex.uz/docs/111453>

112. <https://uz.warbletoncouncil.org/hermeneutica-2189>

113. <https://www.philol.msu.ru/~RKIEF/INDEX>.

114. <https://youtu.be/7HCGob75xGQ> Join Dr. Robert Leonard, professor of linguistics and director of Hofstra's graduate program in forensic linguistics, to learn how the... Forensic Linguistics: Using Language Analysis to Solve Crimes with the FBI

115. Гильдия лингвистов-экспертов по документационным и информационным спорам. URL: <http://rusexpert.ru/uslugi/lingvokonfliktologia.html> (дата доступа 1.12.2019).

VII. Ensiklopediya va lug‘atlar:

116. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов, – Москва: SE, 1969. – 419 с.

117. Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. – Москва, 1998. – 546 с.

118. Жаргон // Энциклопедический словарь, начатый проф. И.Е.Андреевским, продолженный под ред. К.К.Арсеньева и засл. проф. Ф.Ф.Петрушевского. Т. XIa / Издатели Ф.А.Брокгауз (Лейпциг), И.А.Ефрон (СПб). – СПб, 1892. – 690 с.

119. Решетов В.В. Русча-ўзбекча луғат. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – 630 б.

120. Ўзбек тилининг изохли луғати. //Биринчи жилд. – Москва: Русский язык, 1981.

ILOVA 1

Namangan shevasining qisqacha lug'ati

A

Aba – ona
Abjag' – abjaq
Acha – buvi
Achchimoq – archmoq
Achka – ko'zoynak
Adi-bedi – aytishmoq, urishmoq
Akmlatr – akkumulator
Alakim – allakim
Alibbe – alifbo
Anu – ana bu
Apisha – afisha
Apt-angor – aft-angor
Apto'bus – avtobus
Aqa – u yoqqa
Aspal – asfalt
Astopurilla – astag'firullah
Attim – aytdim
Attib qo'ydim – artib qo'ydim
Atmayman – aytmayman
Aytalla – aytadilar
Aytippo'y – aytib qo'y
Ayttu – aytdik
Ashi – ana shu
Ashilla – ashula
Ashnaqa – ana shunaqa

B

Bak–barg
Bakalashka–ichimlik idishi
Balgar–garmdori
Barish-kelish–borish-kelish
Baylamoq–boylamoq
Bay-chuyda–yosh bolalarga nisbatan
Bayro–bayroq
Beadab–beodob
Bechara–bechora
Bediring–bodring
Bediroq–bodroq
Begimo't–begemot
Behololovat–behalovat
Bekik–berk
Belvog'–belbog'

Beribir–baribir
Beshvattar–beshbattar
Bevosh–bebosh
Beyda–bu yerda
Beyib ketibdi–boyib ketibdi
Bilay–bilak
Bilmedim–bilmadim
Birga–burga
Bir neshta–bir nechta
Boddim–bordim
Boddu–bordik
Boho–baho
Bohona–bahona
Bohor–bahor
Boldog'–sirg'a
Bolon–balon
Bolog'at–balog'at
Borippo'y–borib qo'y
Bomisiz–bormisiz
Bukuk–bukilgan
Bujet–budjet
Bug'altir–buxgalter
Bo'maydi–bo'lmaydi
Bo'sun–bo'lsin
Bo'tala–bo'tana (suvga nisbatan)
Bo'yanchiq–bo'yanadigan
narsalarning umumiy nomi
Bo'ydog'–bo'ydoq

D

Daddi–dardi
Daddisar–dardisar
Daliz–dahliz
Daptar–daftar
Dastahon–dasturxon
Dedomla–ota
Dekcha–kichkina qozonchaga
nisbatan
Dedil–dalil
Deqon–dehqon
Devan–divan
Devatti–deyapti
Devol–devor

Diriktir–direktor
 Dorvoza–darvoza
 Do‘lta–sariyog‘
 Duxtir–doktor, shifokor
E
 Echimoq–achimoq
 Echchimoq–yalinmoq
 Echishmoq–achishmoq
 Edip–adip
 Ekarishmoq–o‘ynashmoq
 Ela–elak
 Elisher–Alisher
 Eltib qo‘ymoq–olib borib qo‘ymoq
 Ennasa–allanarsa
 Enim–ust-boshga nisbatan
 Epaqa–xunuk bo‘lib ketmoq
 Epchiq–olib chiq
 Eri–ari
 Etigi–atigi
 Etta–ertaga
 Eyig‘–ayiq
F
 Fo‘rma–forma
 Fo‘rmula–formula
G
 Gapga bormoq–yig‘ilishga bormoq
 Gelusti–galstuk
 Gehtar–gektar
 Gilisselin– glitserin
 Gifir–gipyur
 Go‘da–go‘dak
 Go‘rkop–go‘rkov
 Gudo–gudok
 Gugut–gugurt
 Gulkoza–glukoza
 Guno–gunoh
 Gussiladi–gursillamoq
H
 Hanna–harna
 Happilamoq–halpillamoq
 Hapsala–hafsula
 Hassillamoq–hansiramoq
 Hayipsan–hayfsan
 Heli-beri–hali-beri
 Heliyam–haliyam

Holvator–holvaytar
 Horom–kir joyga nisbatan
 Horom-xarich–harom-xarish
 Hushu–biror narsani ko‘rsatish
I
 Ichikmoq–sog‘inmoq
 Imi-dimida hal qilmoq–bildirmoq
 Insul–insult
 Ina–keyin
 Iplos–iflos
 Iptor–iftor
 Irvay–oriq
 Isholda–nisholda
 Ishomang–e‘tibor bermang ma‘nosida
 Iskabtopar–pashsha
 Istarapil–qurilish materiali
 Istayapman–izlamoq
 Istol–stol
J
 Jag‘–jag‘–ko‘katning bir turi
 Jedigar–jodugar
 Jimpir–jemper
 Jovob–javob
K
 Kachchak–kirga nisbatan ishlatiladi
 Kalavat–krovat
 Kapkir–kapgir
 Kasa–kosa
 Kashalok–hamyon
 Kattishka–kartoshka
 Kelinchabi–kelinoyi
 Ketlamoq–kesmoq
 Kettu–ketdik
 Kovatak–tok bargidan qilinadigan ovqat
 Kraso‘pka– krasofka
 Ko‘ddim–ko‘rdim
 Ko‘pru–ko‘prik
 Ko‘rmana– chaqaloq, kelinni birinchi ko‘rganda beriladigan pul yoki sovg‘a
 Ko‘sob–kosov (tandir cho‘g‘ini bosish, qo‘zg‘ash uchun ishlatiladi)
 Ko‘yna–ko‘ylak

L

Lallaymoq–bo‘shang odamlarga nisbatan
 Lampichka–lampochka
 Lattachaynar– bo‘shang, landovur
 Layqa–loyqa
 Lo‘llovoz–maqtanchoq, o‘zini maqtaydiganlarga nisbatan
 Lula–loviya

M

Machalka–mochalka
 Makkam–mahkam
 Mammam–manman
 Mantr–montyor
 Mashi–mana shu
 Mebilan–men bilan
 Mehnatta–mehnatda
 Minan–bilan
 Mishiq–mushuk
 Morojna–marojna, muzqaymoq
 Moshna–mashina

N

Namakob–guldan tayyorlanadigan damlama
 Nonqovurdoq–ovqat turi

O

Ohliq–belgi
 Oldadi–aldamoq
 Olopkurak–axlat oladigan idish
 Olvali–olcha
 Ommolaykin–ammo–lekin
 Onor–anor
 Opo–chapo–yaqin bo‘lmoq
 Opodda–bobo
 Oqat–ovqat
 Oqqant–oqqand, shakar
 Orug‘–oriq
 Otquloq–ko‘katning bir turi
 Oxlat–axlat
 Oya–o‘qituvchi
 Oyo–oyoq
 Oyvon–ayvon
 Ozim–og‘zim

P

Padda–parda

Palon-pismadon–falon-pismadon

Papalamoq–avaylamoq

Paqir–chelak

Parash–yupqa

Parishta–farishta

Parosat–farosat

Pas–past

Patillamoq–shoshilmoq

Paypo–paypoq

Pela–piyola

Pemidor–pomidor

Pesa–pensiya

Peshhon–xontaxta

Pichinni–shirinlik turi

Pillapoya–zinapoya

Piyada ketmoq–piyoda ketmoq

Piypiq–sekin ish qilmoq

Pol–fol

Polbin–folbin

Potiha–fotiha

Putbol–futbol

Q

Qalip–qolip

Qallama–qatlama

Qaqajon–yosh bolalarga nisbatan

Qaqqa–qayoqqa

Qasmoq–qotgan nonga nisbatan

Qildu–qildik

Qosida–qasida

Qoshu–qoshiq

Qog‘oz–pul, dollar

Qo‘lamma–qo‘llanma

Qo‘lbola–qo‘lda yasalgan narsaga nisbatan

Qo‘ysun–qo‘ysin

S

Savzi–sabzi

Sila–sizlar

Sochu–sochiq

Sog‘at–soat

Stalba–stolba, simyog‘och

Surpa–supra

Svit–svet, elektr chiroq

So‘kalla–haqorat so‘zlarni aytmoq

So‘mka–sumka

T

Tannob–tarnov
 Tapichka–shippak
 Tarog‘–taroq
 Tashadim–tashlamoq
 Tes–tez
 Tilpon–telefon
 Tinnog‘–tirnoq
 Topaylu–topaylik
 Torvuz–tarvuz
 Tog‘ora–kir yuviladigan idish
 To‘nkamoq–aybni birovgaga ag‘darmoq
 To‘pli–tufli
 To‘ptosh–o‘yin turi
 To‘rg‘amoq–to‘g‘ramoq
 Tussiz–tuzsiz
 Tuzumisiz–tuzukmisiz
 Tuva–tuvak

U

Ula–ular
 Usha–o‘sha
 Utir–o‘tir

V

Vapli–vafli
 Vey–hoy

Y

Yenib ketdi–yonib ketdi
 Yilg‘amoq–yig‘lamoq
 Yigichcha–yigitcha
 Yoddam bermoq–yordam bermoq
 Yotimmiz–yotibimiz
 Yossin–yozsin

Z

Zaral–zarar
 Zarul–zarur

O‘

O‘mbir–o‘n bir
 O‘pippo‘y–o‘pib qo‘y
 O‘qidu–o‘qidik
 O‘qippo‘y–o‘qib qo‘y
 O‘shqamoq–o‘xshamoq
 O‘tkayli–o‘tgan yil
 O‘ttik–o‘tdik
 O‘ttimi–o‘tdimi
 O‘ttoq–o‘rtoq

O‘y–uy

O‘ylandi–uylandi
 O‘ynabpo‘y–o‘ynab qo‘y

Sh

Shamba–shanba
 Shaptali–shaftoli
 Sheshildi–shoshilmoq
 Sheyga–shu yerga
 Shikilli–shekilli
 Shimarmoq–himarmoq
 Shipir–shifer
 Shopir–shofyor, haydovchi
 Shoti–narvon
 Shupirgi–supurgi
 Shutta–hushtak

Ch

Chichi–chaqaloq
 Chikelevedduk–chiqib kelaverdik
 Chimali–chumoli
 Choch–soch
 Choydish–obdasta
 Cho‘nchak–cho‘ntak
 Chuchkirmoq–aksa urmoq
 Chumuch–cho‘mich
 Chushmoq–tushmoq

Buxoro o‘g‘uz shevalarining qisqacha lug‘ati**A**

Ajmoyil–ajinasifat, badbashara
 Almudom/elmudom–hamisha, darhol
 Alvonch–belanchak, bola uxlatadigan moslama
 Alg‘araz–xullas, nihoyat, alqissa
 Andomli–sifatli
 Andovakash–loy shuvaydigan kishi
 Angal/angal bo‘lmoq–kechikmoq, kech qolmoq yoki ushlanib qolmoq
 Angara/engara–hosili yig‘ishtirib olinadigan dala
 Angatang–hayron bo‘lish, ajablanish
 Angriju–qisqasi, lo‘ndasi
 Antik–Qorako‘l terisining “antiqa” deb ataluvchi turi
 Aqishqori–tomni suvoq qilganda yomg‘ir suvlari nov tomonga qarab

oqadigan holda nishab qilib suvash
 usuli
 Aqrava– sho‘r
 Aranji–birovning orqasidan ergashib
 yuruvchi
 Arganak/erganak– qo‘ton eshigi
 Arkach–bichilgan taka, serka
 Arrakart–o‘roq
 Artang–ertaga
 Arqayin–bemalol, xotirjam,
 hovliqmasdan
 Arqali/orqali–ruhiy xasta, telba kishi
 Arvona–tuya
 Atakxolta–paxta teriladigan etak,
 fartuk
 “Avazmat Kal”–yig‘loqi bolaga
 nisbatan ishlatiladigan ibora
 Avrisiyo–yuzi qora
 Azzik/ezzik–yig‘loqi
 Azzik/ezzik–jag‘
 Ag‘ram–og‘irlik, vazn
 Ag‘ramli–og‘ir, vazmin odam
 Ag‘zibirlik–hamjihatlik, birdamlik,
 bir–birini qo‘llab-quvvatlash
B
 Badal–xunuk
 Badarrap–hojatxona
 Badqiliq–badfe‘l
 Balli–belgi
 Balli–kulli–butunlay
 Baqna–boqimanda
 Basari–uzum navi
 Baxshi–bizbezak
 Bayov–g‘aflat
 Bazbayaqi–avvalgiday
 Becha–amma
 Bechkilik–tirama
 Bedalov–bezori
 Belak–taglik
 Belangi–beli mayib bo‘lgan
 Beman–juda ko‘p
 Benda/banda–rahmatli
 Bepuri–gummaning bir turi
 Beshag‘iz–mahmadona
 Beug‘ur–jinnisifat

Beyik–baland
 Beyishti–uzum navi
 Bichchi–ozgina
 Bikir–yaxlit, butun, bo‘lak
 Bilago‘ra–atayin
 Bilik–bilim
 Binoyi–tuzuk
 Bir tarzi–bir navi
 Biryag‘day–bir navi
 Bismil–yaraga o‘xshash kasallik
 Bitlisho‘ra–sho‘ra turi
 Bitov–tug‘maydigan ayol
 Bivi–opacha
 Biyonki–boshqa
 Biyora–palak
 Bobbi–semiz kishi
 Bodi–hech kimni mensimaydigan
 kishi
 Bodolmoq–maqтанmoq
 Bodoq–kichkina ariq
 Bodyovoq–yog‘och pashaxa
 Bolovon–surnayga o‘xshash cholg‘u
 asbobi
 Borlamoq–tekshirib ko‘rmoq
 Borli–o‘ziga to‘q
 Borloqchi–tekshiruvchi
 Bosabos–ur-yiqit
 Bosoldosh–tengdosh
 Boshteg–yosti
 Botlanmoq–qahr–g‘azabga minmoq
 Botli–kuchli, tez
 Bog‘dosh–chordona qurib o‘tirish
 Bog‘ir–jigar
 Bog‘ishta–umr yo‘ldosh
 Budurmoq–shisha, chinni
 Bugchama–tuguncha
 Buqcha–tugun
 Buqmoq–yashirinish
 Burt/murt–mo‘ylov
 Butta–buta
 Buvak–bola
 Buyuqti–bo‘g‘ilmoq
 Buyon–yovvoyi o‘simlik
 Bug‘oq–tuman
 Bo‘gat–to‘g‘on

Bo'grak–buyrak
Bo'kalak–ari
Bo'kmoq–yugurmoq
Bo'ldomli–yo'g'on, semiz
Bo'ltaklashmoq–bo'lak-bo'lak qilmoq
Bo'rjoq–cho'lda o'sadigan
daraxtsimon o'simlik
Bo'saxana–ostona
Bo'talomoch–loyqa suv
Bo'tqa–loygarchilik
Bo'ziquyin–mart qo'ng'izi

D

Dakdur–hech kimga so'z
aytmaydigan odam
Damlamoq–bukmoq
Dansari–10 kilogrammga teng og'irlik
o'lchovi
Dapishtirmoq–haydamoq
Dasmol–qozon-tovoq artadigan latta
Dasmolkadi–o'simlik turi
Dasmolkash–laganbardor
Dasmollanmoq–laganbardorlik
qilmoq
Dastir–urf-odat
Dasturxonboshi– dasturxonchi,
kayvoni
Dayov–bardam
Der/dar–zor, muhtoj
Derlik–egar yoki to'qima tagidan
qo'yiladigan qalin namat parcha
Deprek–nog'ora
Devra-desh – tevarak atrofda
yashovchi qo'ni-qo'shnilar
Deyza–xola
Digil–g'ildirak
Digilmajak–dumaloq narsa
Dikvosh–qo'pol
Dimsiq–turtki
Dindak–kindikning past qismi
Dinmasak–tinib-tinchimas
Dirmolovich–xaskash
Dirnoq–paxsa devor ostiga
qo'yiladigan poydevor
Dishlang–tishlari qiyshiq

Dishloq/tishloq–birovning tishlab
qoldirilgan rizqi
Dig'riq–yo'lakcha
Dolon–yo'lak, tishlamoq
Domizliq–achitqi, ivitqi
Domloq–tomchi
Domoqso'r–ochko'z
Domoqsuv–ochko'z
Domoqtegi–katta ro'mol
Dong'izmoq–urmoq
Doshkadi–toshqovoq
Dog'diramoq–qaltiramoq
Doyamoq–taqamoq, tekizmoq
Doyi–tog'a
Doyvachcha–tog'avachcha
Dubbiq–yumaloq
Dubchek–boshlanish, o'rin
Duboq–qopqoq
Duduk–nay
Dukart–qaychi
Dukasa–ulovga ikkovlon bo'lib
minish
Dulama–og'iz sutidan
tayyorlanadigan taom
Dumlamoq–o'qtalmoq
Dumlidush–tevarak-atrof
Dumlik–uyning shiftidagi tuynuk
Dummisho'ra–sho'ra turi
Dumpuldamoq–gumburlamoq
Dunin/dunagin–kecha
Dungizto'polong–yovvoyi o'simlik
Duqi–beso'naqay
Duramoq–yaralamoq
Durmoq–kovlashtirmoq
Dursuncha–tokcha
Durumsari–2 kg miqdorda og'irlik
o'lchovi
Durushta–omuxta yem
Dushaxa–chorshoxa
Dushoq–belbog', tushov
Dushuk–tandirdan tushgan non
Dutkash–mo'ri
Dutsa–tutun
Duv–navbat, o'rin
